ichib, qishloqning arpa, zog'ora nonini yeb, aqlini tanigan odamlarga Vatan sendan, sening dalangdagi egatdan boshlanadi. 2. Tasviriy matn. Tasviriy matnda voqiada ishtirok etadigan shaxslar bo'lmaydi. Unda, asosan, tabiat manzarasi, alohida narsalar (buyumlar), voqia va hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Matnning bu turida tasvirlanayotgan narsa, voqia-hodisa kabilarning o'ziga xos tashqi belgilariga alohida e'tibor beriladi. 3. Muhokama matnining o'ziga xos xususiyati shundaki so'zlovchi (o'quvchi) bayon qilinayotgan voqia-hodisaga o'z munosabatini bildiradi. O'z fikrini isbotlash uchun dalillar izlaydi va uni asoslashga intiladi. U kuzatish taqqoslash, natijalariga tayanib, ma'lum bir fikrni rad etadi va bu haqda o'z hukmini chiqaradi. Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnat sevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekin xo'rlik, to'g'rilik va egrilik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, botirlik va qo'qoqlik, odob va odobsizlik, qadr- qimmat va qadrsizlik, sabr-qanoat va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin. Ayniqsa xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, "Betga aytganning zahri yo'q", "Dili to'g'ri - yo'li to'g'ri", "Sayoq yurgan-tayoq yer" kabi. Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o'ziga xos xususiyatlari ularda tasviriylilik va ta'sirchanlikning kuchliligidir. O'quvchi badiiy matn yaratishda tabiat va ishtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo'ladi: uning mohiyatini ochish uchun turli-tuman leksik birliklar (ko'p ma'noli so'zlar, ma'nodosh va qarama- qarshi ma'noli so'zlar), tasviriy ifoda va frazeologik birikmalar, adabiy tilning tasviriy vositalari: o'xshatish, mubolog'a, kichraytirish, jonlantirish kabilardan o'z imkoniyatiga qarab bimalol goydalana oladi. Badiiy matn o'quvchilarda badiiy didni shakllantirishning asosiy vositalaridir. O'quvchi bunday matnlar orqali go'zallik va nafosat olamiga kiradi, o'z quvonchi va tashvishlari bilan o'rtoqlashadi, sevimli qahramonlariga ergashadi.

Badiiy matn bilish va yaratish aks ettirish va ijodning dialektik birligi asosida vujudga keladi. Badiiy asar kishilarning estetik ma'naviy talablarini qondirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati ziyo.uz
2. Turniyozov N, Yo'ldoshev B "Matn tilshunosligi" S.2011
3. O'zbek tilining izohli lug'ati ziyo.uz
4. Ne'mat Turniyozov, Bekmurod Yo'ldoshev Matn tilshunosligi S.201
5. Almamatov T. Yadgorov Q, Pochchayeva G. O'zbek tili o'qitish metodikasi metodik qo'llanma. Jizzax - 2006

6. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh., Ona tili,3-sinf.-
T.:2019
7. Ikromova R., Gulomova X., Yo'ldosheva Sh.,. Shodmonqulova D, Ona tili,
4-sinf uchun, T.,2020
8. Mirzayeva S., O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1992
9. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariyev Sh.,
Ona tili o'qitish metodikasi. -T.: Noshir,2009
10. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A., Ona tili, 2-sinf uchun. -
T.:2018

O'ZBEKISTONNING RESURS SALOHIYATI RIVOJLANISHI, IMKONIYATLARI.

Jo'rayev Og'abek Oybek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, MT-93 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yurtimizning resurs salohiyati uning rivojlanishi va ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar. *Iqtisodiy-geografik, tabiiy resurs, rivojlanish, foydali qazilmalar, xalq xo'jaligi, xomashyo.*

Har qanday hududiy birlikning iqtisodiy-geografik o'рни xususiyatlari avvalo uning qayerda joylashganligi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, O'zbekiston materik markazida, dunyo okeanlaridan ancha o'zoqda joylashgan. Shu sababli dengiz tutash hududlarga xos barcha qulayliklardan respublikamiz mahrumdir. Demak, O'zbekistonning mavjud iqtisodiy-geografik o'rnining barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari ko'p jihatdan ana shu holatdan, shuningdek uni qo'shnichilik xususiyatlaridan (qanday davlatlar, iqtisodiy rayonlar, dunyo mamlakatlari mintaqaviy guruhlariga tutush yaqinligi, ularning bir-birlariga iqtisodiy ta'sir etish imkoniyatlari) kelib chiqadi.

Tabiiy resurslar – kishilik jamiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan va xo'jalikda bevosita foydalaniladigan tabiat elementlaridir.

O'z navbatida tabiiy resurslar mamlakatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishdagi muhim omili bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston yer osti va yer usti tabiiy manbalari xilma-xil bo'lib. ularning asosiy turlari mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishda bevosita ishtirok etadi.

Mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirish nuqtai nazaridan uning tabiiy resurslaridan eng muhimi, foydali qazilmalardir. Foydali qazilmalar esa mamlakatning turli regionlarida keng tarqalgan. "O'zbekiston; - deydi 1-prizident Islom Karimov, - o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda fahrlanadi – bu yerda mashhur davriy sistemasining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan namoyon bo'lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral xomashyo turlarini o'z ichiga oladi. Ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSH dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral-xomashyo potentsiali 3,3 trillion AQSH dollaridan ortiqroq baholanayotganini ham aytib o'tish kerak".

Mustaqil taraqqiyotning hozirgi bosqichidayoq “har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 millirad dollarlik miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular yoniga 6,0 – 7,0 millirad dollarlik yangi zaxiralar qo‘shilmoqda”.

Mamlakatimizning tabiiy resurslarga boyligi, uning xalq xo‘jaligidagi ko‘pgina tarmoqlarini rivojlanishiga olib keladi. Bu o‘z navbatida, respublikamiz eksport salohiyatini ta‘minlaydi. Misol tariqasida tabiiy gaz konlarini oladigan bo‘lsak, zaminimizda aniqlangan tabiiy gaz zahirasi 2 trln. m³ ni tashkil etadi. O‘zbekiston hozirgi vaqtda tabiiy gaz eksport qiluvchi yirik o‘nlik davlatlar qatorida turadi. Undan tashqari tabiiy gaz yoqilg‘i sifatidagina emas, muhim kimyoviy xom ashyo sifatida ham katta ahamiyatga ega. Respublikamiz qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan azot o‘g‘itlari ham tabiiy gaz xom ashyosidan olinadi. Undan tashqari mamlakat yoqilqi – energetika sanoatida Muborak gazni qayta ishlash zavodi hamda Sho‘rtan gaz majmuida gaz asosida turli xil eksportbop mahsulotlar olinmoqda. Umuman olganda, respublikamiz xalq xo‘jaligida tabiiy resurslarning ahamiyati yuqori bo‘lib, faqatgina mavjud tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish, kelajak avlodlar manfaatlarini ko‘zlab ish yuritsak, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Qazib olinadigan yoqilg‘ining kamayishi, dunyo aholisining doimiy o‘sishi va sanoatlashgan iqtisodiyot tufayli global energiya talabi tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda[1]. O‘zbekiston Yaponiya va Rossiya davlatlari kabi dunyodagi eng yirik gaz iste‘molchisiga aylanmoqda. Afsuski, O‘zbekistonning iqtisodiyotini oldinga siljishiga sabab bo‘ladigan asosiy energiya iste‘moli neft va gaz qazilma boyliklarni iste‘moliga qarab qolmoqda.

Bioresurslar biologik kelib chiqishi yoki tabiatdan olingan har qanday resurs sifatida keng tanilgan. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, bioresurslar tabiiy va barqaror ravishda qayta tiklanadigan va biologik parchalanadigan hayot tomonidan yaratilgan materiallar va jarayonlar sifatida qaraladi. Insoniyatning rivojlanish tarixi ularning bioresurslar bilan chambarchas bog‘liqligidan boshlanadi. Insoniyat tsivilizatsiyasining boshidan beri ibtidoiy inson ajdodlari chuqur o‘rmonda yashagan va mavjud bo‘lgan ko‘plab resurslardan samimiy oziqlangan. Bunday yaqinlikdagi inson-tabiat assotsiatsiyasi qishloq jamiyatidan shahar jamiyatiga o‘tish holatini bildiradi. Shuning uchun bioresurslar tabiiy resursning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va insoniyat madaniyati va iqtisodiyotida markaziy o‘rinni egallaydi. Boshqa resurslarga, xususan, qazilma boyliklarga nisbatan Yer sayyorasida turli xil bioresurslar mavjud. Bioresurslar nafaqat inson o‘z maqsadlari uchun xonakilashtirilgan o‘simliklar va hayvonlarning keng assortimentini o‘z ichiga olmaydi, balki u qishloq xo‘jaligi ekinlarini, o‘rmon

xo'jaligidagi yog'ochlarni, dengiz resurslarini, oddiy va suv o'tlarini, qishloq xo'jaligi, sanoat va sanoat mahsulotlari va chiqindilarini o'z ichiga oladi. jamiyat. Hozirgi vaqtda butun dunyo tadqiqotchilari inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishning muhimligini tushunishadi va shuning uchun bunday tadqiqotlar butun dunyoda katta e'tiborni tortmoqda. O'rmon va biologik xilma-xilligi yuqori bo'lgan hududlar bioresurslardan barqaror foydalanish bo'yicha jahon kontekstida asosiy tadqiqot sohasiga aylandi.

Ma'lumki, O'zbekiston yer resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Moddiy ne'matlar orasida ham eng qimmatlisi bu yer resurslari hisoblanadi. Chunki, yer resurslari umumxalq boyligi bo'lib qolmasdan davlatning doimiy daromad manbai va faqatgina undan oqilona va samarali foydalanish talab etiladi. Respublikamiz yer resurslarining sifat va miqdor holatini muntazam kuzatib borish va bu maqsadlarga erishishga qaratilgan strategik rejalarni ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish, yer resurslaridan foydalanuvchi subyektlarning faoliyat natijalariga baho berish yo'llarini takomillashtirish orqali erishish mumkin. Agarda yer resurslaridan tartibsiz foydalanish davom etaversa va uning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilmasa, agrasanoat majmuasining iqtisodiyotiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston yer resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Yer resurslarini turli xil ifloslanishlardan (shamol, suv eroziyasi, sho'rlanish, suv bosishi) saqlanmasa uning unumdorlik darajasining pasayishiga olib keladi. O'z navbatida yer resurslaridan samarali foydalanish va ularni himoyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishni taqazo etadi. Yer resurslaridan foydalanishda yer kadastrlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish sabablarini aniqlash, salbiy tomonlari va sho'rni ketkazish tadbirlarini samarali tashkil etish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali yer resurslarini muhofaza qilish va unumdorlik darajasining pasayishiga yo'l qo'ymaslik mumkin.

Ma'lumki, mamlakatimiz tabiiy resurslar bilan yaxshi ta'minlangan. Tabiiy resurslar orasida hameng bebahosi bu yer resurslari hisoblanadi. Yer resurslari tugaydigan va tiklanadigan tabiiy boyluk bo'lishiga qaramasdan, undan oqilona foydalanish va muhofaza etish lozim. O'zbekiston Respublikasida yer resurslari davlat mulki, umummilliy boylukdir. Undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza etiladi. Bugungi kunda yer resurslarining meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya va deflyatsiya eroziysiga qarshi samarali kurashish bilan birga sug'oriladigan maydonlarda yer osti suvlari dinamikasi, minerallashuv darajasi, tuproq

sho'rtlanishi, tuproq bonitetining pastligi kabi qator masalalarini bartaraf etish kun tartibiga qo'yilgan.

O'zbekistonda issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish (to'g'ridan-to'g'ri yoqish yoki gazlashtirish yo'li bilan) uchun g'o'za poyasi, boshqa qishloq xo'jaligi va korxonalari chiqindilari, sanoat va maishiy chiqindilar, shuningdek, chorva mollari va qamish chiqindilaridan energiya resurslari sifatida foydalanish imkoniyati mavjud. Bir gektar g'o'zadan 2-4 tonna g'o'za poyasini olish mumkin. Quritilgan g'o'za poyalari an'anaviy ravishda qishloq joylarda yoqilg'i sifatida ishlatilgan yaniy kesilgan yog'och bilan paralel ravishda. Ushbu poyalarni yoqilg'i sifatida ishlatish uchun qayta ishlash yoki biogaz ishlab chiqarish uchun termal parchalanishi mumkin. G'o'za poyalarining yillik yalpi energiya salohiyati 2,3 mln.t., texnik salohiyati (biomassani termokimyoviy aylantirish texnologiyasidan foydalangan holda) 0,3 mln. Boshqa o'simlik resursi bo'lgan qamish o'z-o'zidan kanallar va suv omborlari bo'ylab yiliga 10 dan 12 million tonnagacha o'sadi. Yog'och resurslari esa unchalik katta emas, chunki O'zbekistonning faqat kichik bir qismi (umumiy yer maydonining 3,2 foizi) o'rmonlar bilan qoplangan: eng katta maydonni saksovul, archa va barilla egallaydi. Mamlakatning barcha o'rmonlari tasnifning I guruhiga tegishli bo'lib, ularda xo'jalik va xo'jaliksiz kesishning ayrim turlariga yo'l qo'yilmaydi. Qishloq xo'jaligiga ajratilayotgan ulkan yerlar natijasida yiliga 9 million bosh qoramol, 15 million bosh qo'y-echki 100 million kub metrdan ortiq organik chiqindilar chiqarmoqda. G'o'za poyalaridan an'anaviy ravishda qishloq joylarda ovqat tayyorlash uchun foydalanilishini hisobga olib, biomassaning energiya salohiyatini to'g'ri baholash uchun puxta tadqiqotlar o'tkazish zarur; chiqindi don va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari chorva uchun ozuqa va qurilish materiallari uchun ishlatiladi; hayvonlar va parrandalar chiqindilari mahalliy sharoitda o'g'it sifatida ishlatiladi yoki yoqilg'i sifatida foydalanish uchun tabiiy ravishda quritiladi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng, O'zbekiston Sovet Ittifoqidan chiqqan davlatlar orasida keng tarqalgan ishlab chiqarishning qisqarishi va deindustrializatsiyaning katta qismini chetlab o'tdi. 2015-yildan buyon mamlakatda iqtisodiyotni ochish, valyuta, sarmoya va savdodagi cheklovlarni jadal sur'atlarda olib tashlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Garchi bu o'sish va investitsiyalarni keltirib chiqargan bo'lsa-da, bu o'sishni ta'minlash qiyinroq bo'ladi. Joriy o'sish omillari tugamoqda va O'zbekiston past qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlar eksportiga bog'liq bo'lib qolmoqda, chunki narxlar o'zgarib turadi, tarmoqlar bo'yicha katta mahsuldorlik farqlari va bozor raqobatining yo'qligi. Bu kabi muammolarni

chetlab o'tish uchun mamlakatda bioiqtisodiyotni joriy etishni tezlashtirish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son va "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmoni
2. A.Qayimov, A.R.Bobojonov ,, Yer resurslarini boshqarish '' Toshkent-2020
3. Salimov B., Xotamov I. Investitsiyaviy faollik: tahlil va imkoniyatlar. TDIUkoll.monogr. – T.: Fan va texnologiya, 2019, 93-b.
4. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. – T.: Baktria press, 2017 – 18-b
5. X.Nomozov, Yu.Qoraxonov, O.Amanov ,, Yer resurslaridan foydalanish va himoyalash '' Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2011

YOSHLAR IMKONIYATI – CHEKSIZ UMMON KABIDIR.

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
„Yurisprudensiya“ (faoliyat turlari bo'yicha)*

ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Raxmatullayeva Parizod Xolmamat qizi

Annotatsiya: *Jamiyat taraqqiyotida, yurt millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellectual salohiyati muhim o'rin tutadi. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar, ta'lim, davlat siyosati, konstitutsiya, texnologiyalar, yoshlar imkoniyatlari, yangi islohotlar, yoshlarning imkoniyati, internet tarmoqlari*

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomil-lashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim hujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi. Shunday bo'lsa ham, bu borada bajariladigan ishlar hamisha keng ko'lamlil bo'lib, o'z dolzarbligini saqlab qola-veradi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz rahbarligida 2019-yil 19-martda “Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risida” o'tkazilgan video-selector yig'ilishida yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan ma'salalar muhokama qilindi va sohalarga taalluqli 5 ta muhim tashabbus ilgari surildi. Bular quyidagilar:

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr, va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida o'z qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish masalalari bo'yicha.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish masalalari bo'yicha.

To'rtinchi tashabbus aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha.

Beshinchi tashabbus xo'tin-qizlarni ish bilan ta'minlash ishlarini tizimli tashkil etish masalalari bo'yicha.

Mazkur tashabbuslar yosh avlodni har tomonlama mukammal tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazish ishlarini qamrab olgan bo'lib, tegishli sohalar ishtirokida amalga oshirib boriladi. Yig'ilishda har bir tashabbusning maqsadi aniq belgilanib, ijro etuvchi sohalarga tegishli vazifalar yuklatildi. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ham to'rtinchi tashabbus — aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish masalalari bo'yicha mas'ul tashkilot sifatida jarayonda faol ishtirokchiga aylanadi. Markazda quyidagi yo'nalishlarda amaliy ishlar olib boorish yo'lga qo'yilmoqda:

1) tegishli tashkilotlar mas'ulligi va hamkorligida 1 oy muddatda mazmun va mohiyat nuqtayi nazaridan milliy ruhimiz, shonli tariximiz va vatanparvar ajdodlarimizga munosib bo'lgan harbiy qasamyodning yangi matni bo'yicha taklif tayyorlash;

2) Xalq ta'limi vazirligi mas'ulligida Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda an'anaviy tarzda bir yilda ikki marotaba, 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni va 2-sentabr — Bilimlar kunida mam'lakatimiz bo'ylab o'tkaziladigan "Qadrdon maktabimga kitob sovg'a qilaman" shiori ostida aksiya tashkil qilish;

3) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul tashkilot sifatida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston milliy teleradio-kompaniyasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda, bir yilda bir marta — 9-fevral — buyuk ajdodimiz Alisher Navoiyning tavallud kunida e'lon qilinadigan "Bu yilda o'qilishi zarur bo'lgan 100 ta kitob" ro'yxatini tuzib chiqish, ushbu kitoblarning yil davomida televaradioefirlarda o'qib borilishi, el tanigan ziyolilar orqali barcha turdagi ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda keng tashviqotini tashkil qilish;

4) Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi mas'ulligida Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita va O'zbekiston musulmonlari idorasi bilan hamkorlikda jahon va o'zbek adabiyoti, tarihimiz

va qadriyatlarimiz bilan bog'liq sara asarlar, shuningdek, islom dini tarixi, islom dinining asl mazmun-mohiyati va yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalar haqida hikoya qiluvchi ixchamlashtirilgan matnlarni chop etish va audio-kitoblar tayyorlashni ta'minlash;

5) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul tashkilot sifatida Yoshlar ittifoqi va Madaniyat vazirligi bilan birgalikda yoshlarni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda kitobxonlikka keng jalb etishga qaratilgan ta'sirchan, tizimli, maqsadli va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bugungi kunda mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, zarur chora-tadbirlar belgilanib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni tarbiyalash ishlariga bunday aniq va maqsadli yondashuv, tizimli va tartibli qat'iy munosabat barcha soha vakillarini, shuningdek, keng aholi qatlami, ayniqsa, yoshlarni yanada sergaklantirib, daxldorlik hissi va mas'ulligini oshirmoqda. Oliy hamda ezgu maqsadlar sari bir yoqadan bosh chiqarib, birgalikda harakat qilish, o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali yuqori natijalarga erishish, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga undamoqda.

Shuningdek 2016-yilda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi.

Mazkur qonunda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo'yicha komissiya, Oliy Majlis palatalari huzurida "Yoshlar parlamenti" tashkil qilindi. Shu bilan birga Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi.

Mazkur ishlar natijasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgandan buyon 841 147 nafar yoshning bandligi ta'minlandi. 2021-yilning birinchi yarmida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 78 140 nafar yosh ishga joylashtirilgan bo'lib, 5 684 nafar yoshga subsidiyalar ajratildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj 127 nafar talabanning 350 million so'mlik to'lov shartnoma mablag'lari to'lab berildi."

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi"
2. <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--yoshlarga-yangi-imkoniyatlar>
3. <https://xs.uz/uz/post/yoshlar-uchun-yangi-imkoniyatlar-belgilandi>
4. <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>
5. <https://uznature.uz/uz/site/page?numer=1181>

THE IMPORTANCE OF PROPER ORGANIZATION OF MARKETING POLICY IN BANKS

F.Q. Bobokhujaeva

Senior Teacher Of The

"Marketing" Department Of The Tashkent State University Of Economics

ENTER

Importance of marketing in banking activity Marketing strategies in banks

Abstract: *In the following article, we can consider that the correct determination of the marketing strategy is the main factor in achieving high efficiency in the competitive environment and increasing the profit through the proper implementation of marketing activities in banks.*

Keywords: *Strategy, Marketing Mix, SWOT analysis, brand, segmentation.*

Today, in the economic environment of increasing globalization and competition, the proper organization of marketing policy is becoming important for the efficient operation of banks. For banks, marketing is emerging as an important tool in attracting, retaining, and providing new financial services to customers.

The role of marketing in banking activities is not only limited to the promotion of products and services, but also includes comprehensive processes such as strategic planning, studying and meeting customer needs, and ensuring competitiveness in the market. Today's modern banks strive to respond to market changes and customer requirements by constantly reviewing their marketing strategies.

By properly organizing the marketing policy, banks effectively manage their activities, increase the quality of service and strengthen customer loyalty. In this process, the identification of target markets, the effective application of marketing mix elements, the use of digital technologies, and the establishment of close relationships with customers are important.

In this study, the importance of the proper organization of marketing policy in banks, the factors affecting it and the performance indicators in practice are analyzed. Practical recommendations aimed at improving the financial performance of banks and building long-term relationships with customers are also presented.

Marketing is an integral part of modern banking, and it is an important tool to ensure efficient operation of banks and competitiveness in the market.

The role of marketing in banking includes various aspects and is explained as follows:

1. Attract and retain customers

Building and maintaining relationships with customers is important for banks. Through marketing strategies, banks effectively promote their services and products, which helps to attract new customers and retain existing customers. Advertising campaigns, promotions and special offers for customers increase the interest of customers in banking services.

2. Market research and analysis

Another important task of marketing is to study the needs, desires and market trends of consumers through market research and analysis. These studies enable banks to better understand market demands and provide their products and services to customers accordingly. Through market research, banks gain important information in defining their strategies and developing new products.

3. Applying the Marketing Mix

Marketing Mix elements (4R: Product, Price, Place, Promotion) are the main tools for developing effective marketing strategies for banks. Products (Product) - creation of new banking products and services, pricing (Price) - setting competitive prices for customers, location (Place) - development of service channels and branch network, promotion (Promotion) - attention of customers through advertising and PR strategies Processes such as engagement are key elements of the marketing mix.

4. Brand creation and development

It is important for banks to create a strong and reliable brand. By creating a brand, banks instill trust among their customers and increase their loyalty. Through marketing, banks promote their brand and increase its value. Advertising, PR campaigns and social media marketing play a major role in brand development.

5. Increasing economic camaraderie

Effective use of marketing strategies helps to increase the economic efficiency of banks. Through the right marketing policy, banks can successfully sell their products and services in the market and earn high profits. In this case, the effectiveness of marketing expenses and ROI (Return on Investment) indicators are important.

Marketing strategy is an important tool for any bank to develop and promote its products and services in accordance with customer demand. Bank marketing strategy is a set of activities, plans and decisions to attract customers, retain them and expand banking services.

Main departments	Department tasks	Main tasks
Bank Marketing Strategy	-	Unifies all strategic activities
Target market analysis	Segmentation	Identify different market segments
Customer Relationship (CRM)	Digital Marketing	Connecting with customers through social media, online platforms and mobile applications
Innovative products	Effective advertising	Carrying out advertising campaigns to promote new products and services
Promotion and promotions	Marketing information systems (MIS)	Collection and analysis of marketing data, evaluation of the effectiveness of marketing activities

Key aspects of marketing strategy:

1. Target markets and segmentation.

Identifying target markets: Banks should focus their products and services on the target group of customers. This is achieved through market segmentation based on demographic, psychographic and geographic factors.

Segmentation: Identifying different customer segments and developing products to suit their needs and preferences. For example, student loans for young people, corporate services for business segments.

2. Development and application of products.

Development of new products: Development of new and innovative banking products plays an important role in attracting and increasing customer satisfaction. For example, mobile banking services, online payments and digital lending services.

Upgrading existing products: Upgrading and improving existing banking products and services. For example, expansion of deposit services through additional bonuses and incentive promotions.

3. Pricing strategies.

Competitive Pricing: Banks should set competitive prices for their services. This increases the interest of customers towards the bank and helps to attract them.

Dynamic Pricing: Frequently changing and adjusting prices to match market conditions. This is especially true for loan and deposit interest rates.

4. Promotion strategies.

Advertising and PR companies: Banks should conduct effective advertising and PR campaigns to promote their products and services. Various mass media, social networks and internet platforms are used for this purpose.

Promotion and Promotions: Conducting various bonuses, discounts and incentive promotions to attract customers. For example, special bonuses for customers who open a new account.

5. Supply chain and networking.

Expanding channels: Providing banking services through extensive networks. For example, mobile banking applications, online platforms and traditional branches.

Supply Chain Optimization: Optimizing the supply chain to deliver products and services to customers quickly and conveniently. This is especially important for credit and lending services.

6. Customer Relationship Management (CRM)

Increase customer satisfaction and loyalty: Focus on building close relationships with customers and satisfying their needs. This increases customer loyalty to the bank.

Feedback systems: Listening to customer feedback and improving our services accordingly.

The scientific foundations of bank marketing strategy are based on various theories and models:

Elements of Marketing Mix theory (4R: Product, Price, Place, Promotion)
Effective management of Product, Price, Place and Promotion elements.

Porter's Five Forces Model: Used in analyzing market competition and making strategic decisions.

SWOT analysis: It is used to identify the bank's strengths and weaknesses, opportunities and threats.

Correct organization of marketing strategies in banks is important in increasing their competitiveness and strengthening their position in the market. By effectively applying their marketing strategies, banks build close relationships with customers, improve service quality, and achieve economic efficiency. Therefore, banks should develop marketing strategies according to scientifically based models and theories.

O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING MOHIYATI

Termiz muhandislik-texnologiya instituti assistenti

Qosimova Nodira Saidovna

Annotatsiya: *Maqolada mintqa iqtisodiyotining rivojlanishi mexanizmi va boshqarish zarurati, hamda mintaqaviy siyosatning mohiyati ilmiy asoslab berilgan. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, to'liq bandlik va narxlarning barqaror darajasiga erishishga yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda davlatning muhim vazifalari yoritilgan. O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar" 2030 yilgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish loyihasi to'g'risida fikr mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Mintqa iqtisodiyoti, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, mintaqaviy siyosat, Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar, kambag'allikni qisqartirish, gender tenglik.*

Аннотация: *В статье научно обоснованы механизм развития региональной экономики и необходимость управления, а также сущность региональной политики. Выделены важные задачи государства в разработке и реализации мер по стабилизации экономики, сокращению бедности, содействию достижению стабильного уровня полной занятости и цен, стимулированию экономического роста. Комментарии к проекту развития «Цели в области устойчивого развития» до 2030 года, принятому правительством Узбекистана.*

Ключевые слова: *региональная экономика, стимулирование экономического роста, региональная политика, сокращение бедности, гендерное равенство, Цели в области устойчивого развития.*

RESUME

The article scientifically substantiates the mechanism of development of the regional economy and the need for management, as well as the essence of regional policy. The important tasks of the state in the development and implementation of measures to stabilize the economy, reduce poverty, promote the achievement of a stable level of full employment and prices, and stimulate economic growth are highlighted. Comments on the development project "Sustainable Development Goals" until 2030, adopted by the government of Uzbekistan.

Key words: *regional economy, economic growth stimulation, regional policy, poverty reduction, gender equality, Sustainable Development Goals.*

Mintaqaviy iqtisodiyot o'z rivojlanish jarayonida mamlakat hududlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni ifodalaydi, Bozor munosabatlariga o'tish, iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan resurslar oqimining o'zgarishi mintaqalar oldiga takror ishlab chiqarish munosabatlarining umumiy tizimida o'z taqdirini o'zi belgilash muammosini qo'ydi. Biroq, hududiy tizim, uning rivojlanishining moliyaviy asoslari, mablag' manbalari va ularni jalb qilish mexanizmi bo'lishi mumkin. Mintaqada iqtisodiy rivojlanishni boshqarish zarurati, avvalambor, bozor iqtisodiyoti faoliyatining umumiy kamchiliklari, uning iqtisodiy foyda olishga qaratilganligi va ijtimoiy adolat muammolariga e'tibor bermasligi bilan bog'liqdir. Iqtisodiyotni davlat boshqaruvi samaradorligi, mintaqadagi rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiyot va mintaqaviy siyosat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, to'liq bandlik va narxlarning barqaror darajasiga erishishga yordam berish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning muhim vazifalari hisoblanadi. Daromadlar notekis taqsimlanadigan bozor sharoitida insonning hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqarish, insonni himoya qilish va kamol topishida yordam berish davlatning ijtimoiy siyosatida namoyon bo'ladi. Bundan kutiladigan pirovard maqsad – ommaviy farovonlikni oshirishga ko'mak berish, hamda kambag'allar sonini kamaytirib borishdir. Davlatning ijtimoiy siyosatida ish bilan bandlik darajasini belgilash, mamlakatda minimal ish haqini o'rnatish, kambag'allik chegaralarini aniqlash, yashash minimumi hamda "minimal istemol xarajatlar qiymati"ni belgilash kabi usullar doimo insonlarning hayotiy ehtiyojlarini o'zida ifodalaydi. Ayniqsa, jamiyatdagi tengsizlikning haddan tashqari oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik aholining keskin tarzda qashshoq va kambag'allarga ajralishining oldini oladi. Shu o'rinda mamlakat mintaqaviy siyosatining asosiy vazifalari haqida qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mintaqaviy siyosat bu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim.

Mintaqaviy siyosatning maqsadi mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga halaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat. Har qaysi davlatda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablari o'rganiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;
- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida

bozorning torayishiga olib keladi. Transport va kommunikatsiya aloqalarining

yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik

rivojlanish bosqichi (xomashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar

va xizmatlar);

- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi;

- ishlab chiqarish infratuzilmasi: ayeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikatsiya tizimlari va h.k. bilan ta'minlanishi;

- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi.

Mintaqaviy siyosatning o'rganish ob'ekti turli ko'rinishdagi hududiy notengliklar - aholining turmush darajasi va yashash sharoitidagi, ishsizlik va

bandlikdagi, alohida hududlarning iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi va tadbirkorlik

sharoitidagi tafovutlar bo'lib hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosat hududlar darajasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar majmuasini anglatib, u mohiyatiga ko'ra hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishida namoyon bo'ladi. Mintaqaviy siyosatning maqsadi - mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy muammolarning

paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, markaziy hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy siyosatning quyidagi 2 xil usuli keng qo'llaniladi:

“Adolatli” usul - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning bu turiga ko'ra, mamlakat fuqarolari qaysi hududda yashashlaridan qat'iy nazar, ularning turmush darajasi deyarli bir xil sharoit va imkoniyatlarda bo'lishi ko'zda tutiladi. Masalan, iqtisodiy salohiyati katta, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan AQSh, Kanada, Yaponiya va G'arbiy Evropa mamlakatlari mintaqaviy siyosatida “adolatli” usul keng qo'llaniladi.

“Samarali” usul - umumdavlat manfaatlari yo'lida har bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldir. Ushbu usul G'arbiy Evropa mamlakatlarida, shuningdek, O'zbekistonda ham keng qo'llanilmoqda. Jahon amaliyotidan foydalangan holda O'zbekistonda ham o'ziga xos mintaqaviy siyosat yuritiladi. Respublikamiz iqtisodiyotida bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan boshqa mamlakatlardagi singari “samarali” usulni qo'llash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat boshqaruvida 2017 yildan boshlangan tub o'zgarishlar ijtimoiy siyosat yuritish tizimida yangi davrni boshlab berdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ijtimoiy ustuvor yo'nalishda asosiy vazifalar qabul qilindi. Ushbu farmonga binoan mamlakatda yangi bosqichdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini ta'minlashga oid aniq tadbirlar belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 21.02.2022 yildagi “2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 83-son qarori qabul qilindi. Bu qarorga binoan quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

- 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar;

- 2022-2026 yillarda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga samarali erishish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi;

- 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi;

- Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishda tarmoqlararo muvofiqlashtirish va integratsiyalashgan yondashuvni ta'minlash maqsadida ekspert guruhlarining yangilangan tarkibi.

Unga ko'ra quyidagi vazifalar qo'yilmoqda:

- 2030 yilgacha mamlakatda kambag'allik darajasini ikki baravarga qisqartirish;

- Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish, ijtimoiy himoya qilish xizmatlari sifatini oshirish, ijtimoiy himoya qilish choralari doirasiga muhtojlarning barchasi to'liq qamrab olinishiga erishish;

- Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish;

- Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish;

- Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish;

- Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

Harakatlar strategiyasi yuqorida nazarda tutilgan chora- tadbirlar kompleksining bajarilishini nazorat qilish ob'yekti hisoblanib, unga ko'ra O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar" 2030 yilgacha bo'lgan davrdagi rivojlanish loyihasi rasmiy hujjatga aylandi. 2017– 2021-yillarga mo'ljallangan milliy harakatlar strategiyasi "Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar"ni amalga oshirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Hukumat 16 ta milliy "Barqaror rivojlanish sohasidagi maqsadlar", 125 ta vazifa va 206 ta ko'rsatkichni, ularni amalga oshirishni yengillashtirish uchun ma'qulladi. Bu maqsadlar yer yuzida qashshoqlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda dunyodagi barcha kishilar tinchlik va ravnaq topishdan bahramand bo'lishini ta'minlash bo'yicha global miqyosda harakat qilishga da'vat bo'lib hisoblanadi. Bu borada BMT va uning O'zbekistondagi hamkorlari, O'zbekiston va butun dunyo aholisi duch kelayotgan asosiy muammolarni hal etishga qaratilgan 17 ta o'zaro bog'liq va ulkan maqsaddan iborat bo'lgan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga erishish ustida ish olib bormoqda. BMTning O'zbekistonda amalga oshirish uchun harakat qilayotgan maqsadlari quyidagilardan iborat:

1. O'ta qashshoqlikka barham berish.

2. Ochlikka barham berish.
3. Sog'lik va farovonlik.
4. Sifatli ta'lim.
5. Gender tenglik.
6. Toza suv va sanitariya.
7. Arzon va toza energiya.
8. Munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish.
9. Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma.
10. Tengsizlikni kamaytirish.
11. Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari.
12. Ma'suliyatli iste'mol va ishlab chiqarish.
13. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish.
14. Dengiz ekotizimlarini asrash.
15. Quruqlikdagi ekotizimlarni asrash.
16. Tinchlik, adolat va samarali boshqaruv.
17. Barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik.

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi – 2030 yilga qadar yuqori darajali inson kapitali, innovatsiyalarga asoslangan real sektorning rivojlanishi va natijaga qaratilgan investitsiya siyosati yuritilishi orqali ijtimoiy siyosatga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti shakllantirilishi, respublikaning Jahon banki klassifikatori bo'yicha o'rtadan yuqori daromadli mamlakatlar guruhiga kirishini ta'minlaydi. Konsepsiyada yettita ustuvor yo'nalish belgilangan bo'lib, ustuvor vazifalarning o'z vaqtida bajarilishi mamlakatni 2030 yilda aholi jon boshiga YaIM ikki baravarga oshishi, mehnat bozorida barqaror yuqori daromadli ish o'rinlarining yaratilishi hamda aholi kambag'al qatlamining ikki marotabaga qisqarishiga olib keladi. Ushbu maqsadga erishish uchun, quyidagi ustuvor vazifalar doirasida tizimli chora- tadbirlar amalga oshiriladi:

- davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish, unda axborot texnologiyalari vositalaridan keng foydalanish, ijtimoiy sohalarga investitsiyalarning o'rta va uzoq muddatli samarasini inobatga olgan holda jalb etish yo'llarini ishlab chiqish;

- ta'lim xizmatlari bilan aholining ehtiyojmand qatlamini to'liq qamrab olish, bolalarga zaruriy ta'lim sharoitlarini yaratish, ko'nikmaga asoslangan tizimni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish;

- sog'liqni saqlash tizimi sifati hamda qamrov darajasini oshirishning samarali yo'nalishlarini aniqlash, mazkur xizmatlardan aholining kambag'al

qatlamlari imtiyozli foydalanishi uchun maqbul instrumentlarni amaliyotga joriy etish;

- mehnat bozoridagi mavjud talabdan kelib chiqib, kambag'al oila a'zolarini zamonaviy kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish, aholi bandligini ta'minlashning innovatsion vositalarini amaliyotga joriy etish;

- hududlarning mavjud salohiyatini aholining kambag'al qatlami daromadini oshirishga safarbar etish, "mahallabay" ishlash tizimi orqali kambag'al aholi bilan manzilli ishlash yo'llari samaradorligini oshirish;

- zarur muhandislik-kommunikatsiya hamda ishlab chiqarish infratuzilmalarini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda mazkur sohani standartlashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish;

- aholining ekologik madaniyatini, texnogen va tabiiy ofatlar sharoitida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xabardorligi darajasini oshirish, amaliyotga "yashil" iqtisodiyot me'yorlarini keng va izchil joriy etish.

Ushbu dastur "2021-2030 yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi" deb nomlandi. Mazkur strategiya ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Qisqa va o'rta muddatlar (2021-2025 yillar).

2. Uzoq muddatli (2026-2030 yillar).

Mamlakatda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 2030 yilgacha bo'lgan muddatda quyidagi natijalarga erishish rejalashtirildi:

- "ijtimoiy himoya yagona reestri" orqali kambag'al aholining ijtimoiy himoyasini to'liq shakllantirish, bunda mazkur toifadagi aholini 2025 yilda 85%gacha, 2030 yilda esa, 100% yordam bilan qamrab olish;

- kambag'al aholining ish bilan bandligiga to'liq erishish, bunda bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali yiliga 100 mingdan ortiq ehtiyojmand va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan fuqarolar uchun ish o'rinlarini kvotalash;

- o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan kambag'al aholi qatlamlarining 50 ming nafarini ro'yxatga olish, faoliyatini boshlash, mehnat qurollari sotib olishi va boshqa maqsadlar uchun subsidiyalar ajratish;

- kambag'al aholi qatlamini kasb-hunar, xorijiy til va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hamda tanlagan yo'nalishi bo'yicha mikrokreditlar ajratish orqali faoliyatini boshlashi yordamida 50 ming nafar kambag'al aholi bandligini ta'minlash;

- kambag'al oilalar farzandlarining maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini o'rtacha qamrov darajasidan oshirish, 2025 yilga borib 600 ming, 2030 yilga borib esa, 800 ming nafar ehtiyojmand va kam

daromadli oilalar farzandlariga o'quv yili boshida bir martalik o'quv qurollari va kiyim kechaklar sotib olishi uchun yordam pullarini ajratish, ehtiyojmand oilalar farzandlaridan 2 mingdan 5 ming nafarigacha oliy o'quv yurtlarida tahsil olishiga ko'maklashish;

– kambag'al aholining sog'liqni saqlash xizmatlaridan 100% bepul foydalanishiga imkoniyat yaratish, maxsus reestrlarga kiritilgan ehtiyojmandlardan 5000 nafariga har yili sog'lig'ini tiklash va sog'lomlashtirish maqsadida shifoxonalarga order va sihatgohlarga yo'llanmalar ajratish;

– uy-joyga muhtoj, og'ir turmush sharoitlarida yashayotgan kambag'al aholi qatlamlari, birinchi navbatda xotin-qizlarning yiliga 1500 nafarini uy-joy bilan ta'minlash, 10 ming nafarigacha ijara to'lovlarini qoplab berish, kam daromadli oilalarning 20 ming nafariga arzonlashtirilgan ko'p qavatli uylardan xonadon sotib olishi uchun boshlang'ich badal va subsidiyalar to'lab berish. Shuningdek, yuqoridagi barcha chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish orqali, 2030 yilga borib kambag'allik darajasini ikki barobarga qisqartirishga erishish nazarda tutilmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini takomillashtirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish zarur. Xorij tajribalarini o'rganish asosida, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza, mezonlar va hududiy xususiyatlardan kelib chiqib baholash uslubiyotini ishlab chiqish va amalga oshirish choralari qo'llash. Kambag'al insonlarning iqtisodiy imkoniyatlarini ishga solishda ularning sog'ligi jiddiy to'siq bo'lmoqda. Mablag'larning yetishmasligi ko'p jihatdan sog'lom turmush tarzini olib borish va salomatligini saqlab turish imkoniyatini cheklamoqda. Ilgari tekin bo'lgan tibbiy xizmatlarning qisqarishi, pullik tibbiy xizmatlarning kengayishi kambag'al qatlamning bu boradagi ehtiyojlarini erishib bo'lmas orzuga aylantirmoqda. Davlat ijtimoiy siyosatida "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarga bepul tibbiy xizmat tizimini yaratish kerak. Narxlarning o'sishi munosabati bilan, eng kam ish haqining indeksatsiyasini ta'minlovchi bosh kelishuvni ishlab chiqish va barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun uni majburiy qilishga erishish lozim. Mehnatga haq to'lash minimumi ishchi kuchining mo'tadil jismoniy qayta tiklanishi uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini, ya'ni tirikchilik minimumini hisobga olgan holda belgilashimiz kerak. Ta'lim tizimida esa kasb ta'limini kam ta'minlangan oilalar uchun davlat hisobidan moliyalash, birinchi marta kasb o'rganuvchilarga yoki bir necha yillik ish stajidan so'ng yangi kasb ta'limini o'rganuvchilar uchun sharoitlar yaratish. Oliy ta'limni to'la erkinlashtirilishiga erishish va davlat grantlarini faqat "Temir daftar" ga

kiritilganlar uchun taqdim etish, oliy ta'limdagi qolgan barcha imtiyozlarni to'la bekor qilish. Bundan tashqari xotin- qizlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va imtiyozli qabul qilishni tashkil etish. Xotin- qizlar o'rtasidagi ishsizlik va qashshoqlikni, oilada zo'ravonliklarni oldini olish va ayollar haq- huquqini himoya qilishga erishish lozim. Aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash mamlakatning eng ustuvor vazifasi bo'lmog'i kerak. shu jumladan, suv sifatini standartlashtirish va raqamlashtirish (aqlli suv) va yer osti tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish. Markazlashtirilgan suv ta'minotining o'sishi natijasida va aholini xavfsiz sanitariya xizmatlari bilan qamrab olishni oshirishga erishish. Bundan tashqari aholi va iqtisodiyotning energiya tejashda qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirish, hamda energiya samaradorligini sezilarli darajada oshirish, eskirganlarni yangilash va modernizatsiya qilishni ta'minlash. Mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash (inflyatsiya, ishsizlik), qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, mehnat migratsiyasini tartibga solish ham muhim vazifalarimizdan hisoblanadi. Sanoatning mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi hissasini oshirish, ishlab chiqarishda tarmoqlar ulushi va innovatsiyalar kirib kelishini ta'minlash orqali esa mamlakat iqtisodiy o'sish samaradorligiga erishish. Barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik ishlarini ham keng yo'lga qo'yishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" "O'zbekiston" Toshkent-2022
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son FARMONI
"2022—2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI TO'G'RISIDA"
3. O'zbekiston Respublikasining Barqaror Rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalari.
4. Sh.Sh. Shodmonov "Iqtisodiyot nazariyasi" Toshkent "Fan- texnologiya"-2005
5. "Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar" №4 (14). "Barqaror iqtisodiy rivojlanish bo'yicha strategik tashabbuslar va amaliy tavsiyalar: salohiyat va xatarlar" (O'zbekiston iqtisodchilari XIII Forumi)
6. "Мониторинг национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана" Турсун Ахмедов, доктор экономических наук, профессор,

7. "РЕГИОНАЛЬНАЯ ЭКОНОМИКА" Екатеринбург Издательство Уральского государственного экономического университета - 2020
8. I.A.Yakubov, A.A.Islomov, M.N. Sunnatov. "MINTAQAVIY IQTISODIYOT" TOSHKENT- 2019
9. Mirzaxodjayev A.B.Sharifov, Sh.S.Boboqulov S.B. "MAKROIQTISODIYOT fanidan o'quv qo'llanma". Samarqand-2021
10. Saidovna, Qosimova Nodira, and Sharifova Nargiza Khasanov. "MILLIY IQTISODIYOTDA IQTISODIY O'SISH VA DINAMIK MUVOZANAT." THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH 2.15 (2023): 92-97.

ONA TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Djo'rayeva Nigina G'ayrat qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
Kattaqo'rg'on filiali talabasi.*

Ochilova Muxlisa Abduraxmon qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining
Kattaqo'rg'on filiali talabasi.*

Ilmir rahbar: Sayipova D.A.

"Gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tili fanini o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish to'g'risida batafsil yoritilgan. Turli ko'rinishdagi zamonaviy metodlar va interfaol usullardan namunalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, pedagog, interfaol, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, imkoniyat, metod, texnologiya.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация. *В данной статье подробно описывается использование интерактивных методов в процессе обучения узбекскому языку. Приведены примеры различных современных методов и интерактивных методов.*

Ключевые слова: *образование, педагог, интерактив, инновационная технология, charxpalak, метод презентации, возможность, метод, технология.*

USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK LANGUAGE

Abstract. *This article describes in detail the use of interactive methods in the process of teaching the Uzbek language. Examples of various modern methods and interactive methods are given.*

Key words: *education, pedagogue, interactive, innovative technology, charxpalak, presentation method, opportunity, method, technology.*

Metod aslida yunoncha, "metodos" so'zidan olingan bo'lib, „bilish va tadqiqot yo'li“, „nazariya“, „ta'limot“ kabi ma'nolami bildiradi. Metodika (yun. „methodike“) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot — ta'lim berish

metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandır. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatish yo'llari va vositalari, ona tilini egallash, ya'ni nutqni, o'qish va yozishni, grammatika va imloni o'zlashtirib olish to'g'risidagi ilmdir. Metodika maktab oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilaydi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshiradi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilaydi. Metodika fani quyidagi masalalarni o'rganadi:

1. O'qitishning vazifalari va mazm unini aniqlaydi. Nimani o'qitish kerak? savoliga javob beradi, ya'ni boshlang'ich sinflar ona tili kursining dasturlarini, ta'lim mazmunini belgilab beradi, o'quvchilar uchun darsliklar va qo'llanmalar yaratib, ularni takomillashtirib, samaradorligi va muvofiqligini doimiy nazorat qilib boradi.

2. O'qitish metodlari, tamoyillari, usullari, dars va uning turlarini, o'quvchilar amaliy ishlari mashqlar va yozma ishlaming izchil tizimini ishlab chiqadi, ya'ni „Qanday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlab beradi.

3. O'quvchilarga ona tilidan bilim berish va ko'nikma hosil qilishda ilmiy nuqtayi nazardan eng foydali shart-sharoitlar haqidagi masalalarni hal qiladi, ya'ni „Nega xuddi mana shunday o'qitish kerak?“ savoliga javob tayyorlaydi. Eng foydali materiallarni, metodlarni o'rganadi, tanlangan metodlarni asoslaydi, tavsiyalarni eksperimental tekshiradi.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or

pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.

Innovatsion texnologiya – ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo'llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida o'qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg'ulotga aylanadi.

Ko'p yillar davomida an'anaviy dars o'tish ta'limning asosiy shakllaridan biri bo'lib keldi. An'anaviy darsda o'qituvchi faol, o'quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan'anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlashni taqozo etadi.

Ona tili o'qitish metodikasi o'zbek tilining ma'lum qismini nazariy egallashni nazarda tutadi, shuning uchun ham fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, so'z yasalishi va etimologiya, grammatika — morfologiya va sintaksis, stilistika, shuningdek, orfoepiya, grafika, orfografiya kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi hisoblanadi. Fonetika va fonologiya grafika bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishlashda, elementar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi. Leksikologiyani bilish maktabda lug'at ishi (ma'nodosh va zid ma'noli so'zlarga oid xilma-xil mashqlar o'tkazish, ko'p ma'noli so'zlar, ularning ma'no bo'yoqlari ustida ishlash) ni to'g'ri tashkil etish uchun juda muhimdir.

Noan'anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo'g'in hisoblanadi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday

metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu esa o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo'q”, “Ta'rif egasini top”, “Men kimman?”,

“Domino” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

So'zning tarkibi va so'z yasalişini o'rganishda metodikaga so'z yasalişini, etimologiya, grammatika asos vazifasini bajaradi. Morfologiya va sintaksis mavhum til hodisalarini shakllantirishni, til qurilişini haqida tushuncha hosil qilishni to'g'ri tashkil etishga, grammatik tushunchalardan to'g'ri yozuv masalalarini hal qilish uchun foydalanishga imkon beradi. Grammatikadan bilimi bo'lmagan o'quvchilarda imlo va punktuatsiyadan ko'nikma va malakalami shakllantirish mumkin emas. Grammatika o'quvchilar nutqini

o'stirishda muhim o'rin tutadi, chunki grammatika so'z shakllarini to'g'ri tuzish, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarni o'zaro to'g'ri bog'lash va gapni to'g'ri tuzishga o'rgatadi. To'g'ri yozuvga o'rgatish metodikasining rivojlanishida o'zbek tili imlosi nazariyasini hisobga olish talab etiladi. O'qish metodikasi adabiyot nazariyasiga asoslanadi, chunki o'quvchilar badiiy asarni amaliy tarzda tahlil qiladilar, ularga adabiyotshunoslikdan nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo metodika adabiy asarning yaratilish qonuniyatlarini, ularning o'quvchilarga ta'sirini, ayniqsa, adabiyotshunoslikka oid mavzulardan asarning g'oyaviy mazmuni, uning mavzusi va sujeti, kompozitsiyasi, janri, tasviriy vositalarini hisobga olishi zarur.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

“Charxpalak”. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

“Charxpalak” texnologiyasi quyidagicha amalga oshiriladi:

- o'quvchilar sharoitga qarab guruhlariga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keying guruhga “charxpalak aylanmasi” yo'nalishida almashtiradilar;
- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;
- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;

-o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;

-har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

“Taqdimot” usuli. Ushbu usulda ma'lum bir mavzu yoki bo'limlar yakunida o'tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o'quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil izlanib, materiallar to'playdi, ularni saralaydi, asosiylarini tanlab olib taqdimot qiladi. Masalan “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida taqdimot darsi o'tkazilganda o'quvchilarni avvaldan guruhlarga bo'lib, quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqdimot qilish topshiriladi:

1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring.

2-guruh. Alisher Navoiy ijodini “Klaster” usuli asosida tushuntiring.

3-guruh. Alisher Navoiy lirikasini “Kungaboqar” usuli asosida tushuntiring.

4-guruh. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini konseptual jadval asosida tushuntiring.

Har bir guruh berilgan yo'nalishlar bo'yicha darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumot to'playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqdimot qiladilar.

“Taqdimot” darslari orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin:

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;

axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma'lumotlar bazasini yarata olish; Ona tili o'qitish tamoyillari quyidagilar:

Til materialiga, nutq organlarining o'sishiga, nutq malakalarining to'g'ri rivojlanishiga e'tibor berish tamoyili. Nutq, til qonuniyatlariga, oz bo'lsa-da, e'tibor bermaslik amaliy nutq faoliyatini egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fonetik ko'nikmalarga yetarli e'tibor berilmasa, imloviy savodxonlikka putur yetadi. Bu ta'lim tamoyili tildan olib boriladigan mashg'ulotlarda eshituv va ko'ruv ko'rsatmaliligini ta'minlashni va nutq organlarini mashq qildirishni (gapirib berish, ifodali o'qishni, ichida gapirishni) talab etadi.

Til ma'nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma'nolarini) tushunish tamoyili. So'zni, morfemani, so'z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma'lum voqeahodisalar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash demakdir. Til ma'nolarini tushunish tamoyiliga amal qilishning sharti tilning hamma

tomonlarini, tilga oid barcha fanlar (grammatika, leksika, fonetika, orfografiya, uslubiyat)ni o'zaro bog'langan holda o'rganish hisoblanadi. Masalan, morfologiyani sintaksisga tayangan holdagina o'rganish, o'zlashtirish mumkin. Sintaksisni o'rganishda esa morfologiyaga suyaniladi, orfografiya fonetika, grammatika, so'z yasashiga suyanadi va hokazo. So'zni morfemik tahlil qilish uning ma'nosini tushunishga yordam beradi. Tilning ham ma'no tomonlari birbiri bilan o'zaro bog'langan bo'lib, o'qitishda buni albatta hisobga olish kerak.

Tilga sezgirlikni o'stirish tamoyili. Til — juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi.

Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili. Bu tamoyil til hodisalarini tushunmay turib savodli yozish, nutq madaniyati vositalarining xabar berish vazifasini tushunish bilan bir qatorda, uning ifodaliligini (uslubga oid) tushunishni, mazmunigina emas, balki so'z va nutq birliklarining, tilning boshqa badiiy-tasviriy vositalarining hissiy bo'yoqdorligini ham tushunishni ko'zda tutadi. Bu tamoyilga amal qilish uchun, birinchi navbatda, badiiy adabiyotlardan, shuningdek, tilning uslubiy xususiyatlari aniq ifodalangan boshqa matnlardan foydalanish talab etiladi. Bu esa matn mazmuni va uning o'ziga xos, “noziklik” larini ham anglab yetishga yordam beradi.

Og'zaki nutqni yozma nutqdan oldin o'zlashtirish tamoyili. Bu tamoyil ham kishi nutqining rivojlanishiga ta'sir etadi va til o'qitish metodikasini tuzishda xizmat qiladi. Metodika tamoyillari, didaktika tamoyillari kabi, o'qituvchi bilan o'quvchining maqsadga muvofiq faoliyatini belgilashga, ularning birgalikdagi ishlarida qulay yo'nalishni tanlashga yordam beradi, metodikaning fan sifatida nazariy asoslash elementlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Rafiyev A., Gulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). Toshkent. “Sharq”, 2013.
2. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to'plami. Toshkent. “Navro'z”, 2018.
3. Golish L. V., Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. Toshkent. “Iqtisodiyot”, 2012.
4. “Umumta'lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
5. “Til va adabiyot ta'limi” jurnali, 1-12 sonlar, 2018.

AVTOMOBIL O'RINDIQLARINI ISHLAB CHIQRISHDA PAYVANDLASH TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

Andijon Mashinasozlik Instituti "Transport vositalari muhandisligi"

yo'nalishi 4-kurs talabasi Yigitaliyev Muhammadali

Ilmiy rahbari. N.Ikromov

Annotatsiya: *Maqolada avtomobil o'rindiqlarini ishlab chiqarishda lazerli texnologiyalardan foydalanishda avtomobil ishlab chiqarishdagi foydasi, kelajakdagi qo'llanilishi, afzallik va kamchiliklari haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, daromad oshirish, avto-innovatsiya, taraqqiyot, yuqori aniqlik.*

Lazer-majburiy nurlanish yordamida yorug'likning kuchayishi ma'nosini anglatadigan so'z birikmalarining bosh harflaridan olingan bo'lib, optik kvant generator—ultrabinafsha, infraqizil va ko'zga ko'rinadigan soha diapozondagi nurlanishlarni hosil qiluvchi qurilma, kvant elektronikadagi asosiy qurilmalardan biri [1].

Birinchi Lazer 1960-yilda yoqutda amerikalik olim T. Meyman tomonidan yaratilgan. Ishi atom va molekulalarning majburiy nurlanishiga asoslangan [2]. Lazer har xil energiya (elektr, yorug'lik, kimyoviy, issiqlik va h.k.)ni optik diapozondagi kogerent elektromagnit nur energiyasiga aylantirib beradi. U 3 element — energiya manbai, aktiv muhit (modda), teskari bog'lanishdan iborat. Hozirgi kunda lazerdan payvandlash ishlarida foydalanilmoqda [3].

Lazerli payvandlash - bu samarali payvandlashga erishish uchun lazerning nurli energiyasidan foydalanadigan jarayon. Uning ishlash printsiplari - lazerli faol muhitni (masalan, CO₂ va boshqa gazlar aralashmasi, yagtriy alyuminiy granat kristallari va boshqalar) o'ziga xos tarzda qo'zg'atish [4]. Rezonansli bo'shliqda oldinga va orqaga tebranib, stimulyatsiya qilingan nurlanish nurini hosil qiladi [5]. Nur ish qismi bilan aloqa qilganda, uning energiyasi ishlov beriladigan qism tomonidan so'riladi va harorat materialning erish nuqtasiga yetganda payvandlash ishlari olib borilishi mumkin [6]. U asosan past tezlikli yupqa devorli devorlar uchun ishlatiladi. Materiallarni payvandlash; ikkinchisi nafaqat materialga to'liq kirib boradi, balki katta miqdordagi plazma hosil qilish uchun materialni bug'laydi [7]. Katta issiqlik tufayli, eritilgan hovuzning old tomonida kalit teshigi hodisasi paydo bo'ladi. Chuqur penetratsion payvandlash ishlov beriladigan qismga to'liq kirishi mumkin va katta kirish energiyasi va payvandlash tezligiga ega [8]. Hozirgi vaqtda u eng ko'p ishlatiladigan lazerli payvandlash usuli hisoblanadi [9].

Avtomobil o'rindiqlarini ishlab chiqarishda strukturaning o'zi engil, ammo ayni paytda iloji boricha bardoshli bo'lishga intiladi [10]. Buning uchun yuqori quvvatli refrakter po'lat navlari ishlatiladi. Ishonchli o'rindiqlar yo'lovchilarni har qanday baxtsiz hodisalarda shikastlanishdan himoya qiladi [11]. Bunday materialdan ramka yasash uchun tolali lazerlardan foydalaniladi [12]. Ammo barcha mashinalar bunday vazifalar uchun ishlatilishi mumkin emas. Izchil halqa rejimiga ega tizimlar talab qilinadi. Ko'p hollarda kuch va yengillik bir-biriga mos kelmaydigan narsalardir [13]. Avtomobil o'rindiqlarini ishlab chiqadigan muhandislar ushbu xususiyatlarni birlashtirishga intilishadi. Maqsadga erishish uchun maxsus qotishmalar qo'llaniladi [14]. Bu past qotishma po'lat va boshqa qotishmalar bo'lishi mumkin. Kuchli ulanish uchun tolali lazer bilan masofadan payvandlash usuli qo'llaniladi. Texnologiya quyidagilarga imkon beradi [15]:

- yaxshi va bir xil pishirish chuqurligi bilan mustahkam bir hil tikuvlarni yaratish;
- hatto ko'p qatlamli ramkani ham qaynatib oling;
- tez ishlash;
- ulanish joylarining mexanik kuchiga erishish;
- nuqsonlardan xalos bo'lish (masalan, yoriqlar paydo bo'lishi);
- mo'rt martensit hosil bo'lishining oldini olish.

Har bir narsaning afzallik va kamchiligi bor lazerli payvandlash ham bundan mustasno emas [16].

Lazerli payvandlashning afzalliklari;

1.Lazer Lazerli payvandlashdan foydalanish yuqori sifatli bo'g'inlar kuchini va eng katta nisbatlarini olishi mumkin va payvandlash tezligi nisbatan tez [17].

2.Lazer Lazerli payvandlash vakuumli muhitni talab qilmagani uchun, masofadan boshqarish va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish linzalar va optik tolalar orqali amalga oshirilishi mumkin [18].

3. Lazer katta quvvat zichligiga ega, titan, kvarts va boshqalar kabi payvandlanishi qiyin bo'lgan materiallarga yaxshi payvandlash ta'siriga ega va har xil xususiyatlarga ega materiallarni payvand qila oladi [19].

4. Lazer Bilan Kesish Toza, Aniq Kesmalar Hosil Qiladi. Lazer to'sarlari kesish uchun yuqori zichlikdagi issiqlik manbasidan foydalanadi, natijada aniq va toza kesmalar paydo bo'ladi [20]. Lazer to'sar tomonidan ishlab chiqarilgan yorug'lik to'lqini 10 000 nm to'lqin uzunligiga ega [21]. Aniq kesish metallning bu energiyani qisman yutishi natijasida mumkin bo'ladi, bu esa metallning molekulyar tuzilishining o'zgarishiga olib keladi [22]. Nur parametri mahsuloti (BPP) lazer nurlari sifatini baholash uchun ham ishlatiladi [23]. Masalan, CO₂

lazerlarining BPP odatda 8-9 mm. bu intensiv konsentrlangan issiqlik bilan birga kesishning deyarli mukammal sifati va usulning avtomobilsozlik sanoatida keng qo'llanilishini hisobga oladi [24].

5. Lazerni kesish juda ko'p qirrali bo'lib, u turli xil materiallarni lazer bilan kesishi mumkin [25]. Lazer to'sarlari lazerni kesish mashinasiga dasturlashtirilgan konturlarni kesish uchun aniq harakat qilishadi, chunki ularning kesish boshlari CNC tomonidan boshqariladi [26]. Bu avtomobil sektori uchun juda foydali texnologiya, chunki u ishlab chiqarish vaqtini juda qisqartiradi va har safar izchil qismlarni ishlab chiqaradi [27]. Bu, shuningdek, ushbu texnologiyaga dizaynning moslashuvchanligi va murakkabligi jihatidan juda ko'p qirrali bo'lish afzalligini beradi [28].

Plastmassa, mato, shisha va kauchuk bu avtomobilsozlik sanoatida ishlatiladigan materiallarning bir nechtasi, ularning barchasi lazer yordamida muvaffaqiyatli qayta ishlanishi mumkin [29]. Lazer bilan ishlov berishdan o'tgan komponentlar va materiallarni standart avtomobilning deyarli har bir qismida, shu jumladan tashqi va ichki qismida topish mumkin [30]. Bugungi kunda avtomobil ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichi, dastlabki loyihalash va ishlab chiqishdan yakuniy yig'ilishgacha, lazerlardan foydalanadi [31].

6. Lazerli kesish mashinalari boshqa Asboblardan bilan solishtirganda juda ixchamdir.

Lazer to'sarlarning ixchamligi ularning avtomobilsozlik sanoatida keng qo'llanilishi va mashhurlikining asosiy omilidir. Lazerni kesish mashinasidan foydalanish avtomobil ishlab chiqaruvchilari uchun chiqish-kosmik samaradorlikka aylanadi, chunki uning o'tkazuvchanligi bilan solishtirganda nisbatan kichikdir. Lazer to'sarlarning ixcham tabiati ishlab chiqarish liniyasiga oson integratsiya qilish imkonini beradi. Mashinalar minimal joy egallaydi va boshqa uskunalardan uchun qimmatli joyni bo'shatadi. Lazer to'sarlarning o'lchamlari afzalligi, shuningdek, sifatli qismlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan aniqlik va aniqlikni yo'qotmasdan, ularni kichikroq avtomobil do'konlarida ishlatish mumkinligini anglatadi.

7. Lazerli kesish mashinalari tez ishlaydi va yuqori sifatli natijalar beradi.

Lazer to'sarlari bilan bog'liq afzalliklardan biri ularning tez ishlov berish vaqtidir. Ular, shuningdek, aniqlik va aniqlik amalga oshiriladigan yuqori sifatli kesimlari bilan mashhur. Ushbu afzalliklar lazerli to'sarlarni avtomobil ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida avtomobil qismlarini ishlab chiqarishni soddalashtirish uchun ideal qiladi: dizayn bosqichidan qismlarni ishlab chiqishgacha yig'ilishgacha. Lazerlar ko'pincha ba'zi elementlarning 3 o'lchovli tabiati tufayli robot tizimlari bilan birgalikda ishlaydi. Muayyan

sharoitlarda robot qismni olib, uni statsionar ishlov berish boshiga taqdim etadi va kesishni tugatish uchun kerak bo'lganda manipulyatsiya qiladi. Shu bilan bir qatorda, nurni qismning 3 o'lchovli konturlari atrofida boshqarishga imkon berish uchun lazer robot qo'liga o'rnatilishi mumkin. Ushbu ikkita texnikani birlashtirish jarayonlarning keng doirasiga imkon beradi. Ko'p sonli kesish operatsiyalarini iloji boricha samarali bajarish uchun ishlov beriladigan qism va lazer boshini boshqaradi. Ko'pincha, bitta robot xujayrasi ichida bir nechta lazer jarayonlari amalga oshirilishi mumkin, bu ishlab chiqarishni tezlashtiradi va tsikl vaqtlarini kamaytiradi.

Biroq, lazerlar faqat ommaviy ishlab chiqarishda ishlatilmaydi. Ular, shuningdek, yuqori darajadagi, maxsus avtomobil ishlab chiqarishda qo'llaniladi, bu erda o'tkazuvchanlik past va ba'zi vazifalar hali ham qo'lda bajariladi. Bu erda maqsad ishlab chiqarishni kengaytirish yoki tezlashtirish o'rniga qayta ishlash sifatini, takrorlanuvchanligini va ishonchliligini oshirishdir. Bu rad etish stavkalarini pasaytiradi va qimmat materiallarning chiqindilarini kamaytiradi. Bu qobiliyat lazer to'sarlarni ham kichik, ham katta partiyali ishlab chiqarish uchun ideal qiladi.

LAZERLI PAYVANDLASHNING KAMCHILIKLARI

1. Lazer va payvandlash tizimining qismlari narxi nisbatan qimmat, shuning uchun dastlabki sarmoya va parvarishlash xarajatlari an'anaviy payvandlash jarayonidan yuqori va iqtisodiy foydasi past.

2. Qattiq materialning lazerni yutish tezligi past bo'lgani uchun, ayniqsa plazmadan keyin (plazma lazerga yutilish ta'siriga ega), lazerli payvandlashning konvertatsiya qilish samaradorligi odatda past bo'ladi (odatda 5% dan 30% gacha).

3. Lazer Lazerli payvandlashning kichik fokusli nuqtasi tufayli, ishlov beriladigan qismning asbob -uskunalari aniqligi talablari nisbatan yuqori va uskunaning kichik burilishlari katta ishlov berish xatolarini keltirib chiqaradi.

Biz bilamizki lazerni qo'llash texnologiyasining uzluksiz etukligi bilan lazerni qo'llash va undan foydalanish tobora qulaylashib bormoqda, shuningdek, u elektron iste'mol tovarlari, qadoqlash, jo'natish, aerokosmik, avtomobil ishlab chiqarish kabi ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. va hokazo. Lazerli payvandlash moslamasining mukammal ishlash afzalliklari va yuqori aniqlikdagi ishlov berish xususiyatlari bizga mahsulot sifatidagi yuqori sakrashni beradi, odamlar hayoti uchun yanada qulay mahsulotlar va xizmatlarni yaratadi. Hozirgi kunda lazerli payvandlash texnologiyasi avtomobil ishlab chiqarish sohasida keng qo'llanilmoqda. Lazerli texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarishni yangi pog'onaga olib chiqadi [32].

Avtomobil o'rindiqlari uchun lazer ilovasi- avtomobil ichki qismida (asosan avtomobil o'rindiqlari, avtomobil gilamlari, xavfsizlik yostiqchalari va boshqalar.) ishlab chiqarish joylari, ayniqsa avtomobil avtomobil o'rindig'i ishlab chiqarish, kompyuterda kesish va qo'lda kesish asosiy usul hisoblanadi. Kompyuterni kesish texnologiyasi narxi juda yuqori (eng past narx 1 million yuandan ortiq), ishlab chiqarish korxonalarining umumiy sotib olish qobiliyatidan ancha yuqori va moslashtirilgan kesish qiyin, shuning uchun ko'proq kompaniyalar hali ham qo'lda kesishdan foydalanmoqda [33].

Lazer texnologiyasidan bir qancha kompaniyalar samarali foydalanishmoqda.

Misol uchun Vuxandagi taniqli avtomobil interyeri ishlab chiqaruvchisi, lazer uskunalarini ishlatishdan oldin, avtomobil o'rindiqlari qopqog'ini ishlab chiqarish uchun qo'lda kesish usulidan foydalanilgan. Odatda jamoada uchta qo'lda ishlaydigan ishchi va beshta tikuvchilik ishchilari mavjud. Bu ishlab chiqarish rejimida, kesish 30 daqiqa vaqt oladi, va moddiy zarar, kesish sifati yuqori emas, foyda esa rivojlantirish uchun yetarli emas. Golden lazer kesish mashinasi foydalanishdan so'ng, o'rinar majmuini kesish vaqti 20 daqiqaga kamayadi. Moddiy zarar ham juda kamayadi, va qo'l-kesish harajatlari kamaytirildi, shuning uchun qiymati juda kamayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Икромов Нурулло Авазбекович, Гиясидинов Абдуманоб Шарохинович, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). Меры по снижению экологического воздействия автопарка. *Universum: технические науки*, (4-1 (85)), 44-47.

2. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 12, 93.

3. Икромов Нурилло Авазбекович (2015). Исследование влияния магнитного поля на физикомеханические свойства композиционных полимерных покрытий. *Вестник Курганского государственного университета*, (3 (37)), 96-99.

4. Икромов, Н. А., & Жалолова, З. Х. (2022). Исследования адгезионная прочность полимерных покрытий обработанных в магнитном поле. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 1(4), 58-62.

5. Ikromov, N. A., & Turaev, S. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges. *Academia-an international multidisciplinary research journal*, 10.

6. Ikromov Nurullo, & Rasulov Dilshod (2021). Technique and installations for electromagnetic treatment in the formation of composite polymer coatings. *Universum: технические науки*, (7-3 (88)), 52-55.

7. Negmatov, S. S., Mamadoliev, K. M., Sobirov, B. B., Latipov, I. K., Ergashev, E., Rakhmanov, B. S., & Tajibaev, B. M. (2008, August). Improvement of physico-mechanical properties of thermoreactive and thermoplastic polymeric coverings by physical methods of modification. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 1042, No. 1, pp. 67-69). American Institute of Physics.

8. Икромов, Н. А., & Расулов, Д. Н. (2020). Объекты и методики исследования композиционных полимерных материалов. *Современные научные исследования и инновации*, (10), 1-1.

9. Ikromov, N., Alijonov, A., Soliyev, B., Mamajonov, Y., Mahammadjonov, N., & Meliqoziyev, A. (2021). Analysis of mechanical properties of polymer bushing used in automobile industry. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 560-563.

10. Avazbekovich, I. N. (2022). Application Of Composite Materials and Metal Powders in the Technology of Restoration of Worn Parts. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 9, 70-72.

11. Ikromov, N. A., Isroilov, S. S., G'iyosiddinov, A. S., Rakhmatov, S. M., & Ibrokhimova, M. M. (2020). Situation of nes balance in the city passenger transportation market when moving passengers with transfers. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 188-198.

12. Тожибоев Бегижон Мамитжонович, & Икромов Нурилло Авазбекович (2020). Исследование свойств радиационно - обработанных наполненных композиционных полимерных покрытий γ - ЛУЧАМИ. *Universum: технические науки*, (12-1 (81)), 51-53.

13. Avazbekovich, I. N. (2022). Investigation Of The Influence Of Technological Factors Of Magnetic Treatment Of Polymer Coatings On Their Adhesion And Physical And Mechanical Properties. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1064-1070.

<https://orcid.org/0000-0002-1774-2217>.

14. Икромов, Н. А. (2022). ўғли Холматов СУ Ҳайдовчиларнинг иш тажрибасини йўл транспорт ходисасига таъсирини ўрганиш. *Journal of new century innovations*, 10(2), 11-18.

15. Ikromov N. A., To'raev S. A. Avtomobil patronlarining turli polimer materiallarini yutishini aniqlash //Akademiya-xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali.

16. Негматов, С. С., Жалилов, Ш. Н., Рахманов, Ш. В., Негматова, К. С., Абед, Н. С., & Икромов, Н. А. & Махаммаджонов, ХА (2022). Исследование тепловой водостойкости и прочностных свойств композиционных полимер-полимерных связующих. *Universum: технические науки*, (11-5 (104)), 47-53.

17. Ikromov N. et al. Kristallanish va qotishmalarning qotish jarayonida komponentlarning o'zaro ta'siri //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 39-46.

18. Негматов С.С. и др. Исследование антифрикционно-виброзвукопоглощающих композиционных полимерных материалов и покрытий на их основе //Universum: технические науки. – 2021. – №. 8-1 (89). – С. 11-15.

19. Ikromov N.A. et al. Shahar ko'chalarida transport vositalarining harakat jadalligini o'rganish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 863-872.

20. Икромов Н. Физическая модификация термопластичного полимерного композиционного материала: дис. – Белорусско-Российский университет, 2019.

21. Давлатов Р. М. и др. Разработка полимерной композиции для улучшения свойств шерсти //Все материалы. Энциклопедический справочник. – 2017. – №. 8. – С. 13-18.

22. Avazbekovich I. N. Transport vositalarning texnik holatini baholash //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 92-97.

23. Икромов Н. и др. Определения физико-механическое прочность полимерных покрытий обработанных в магнитном поле // Science and innovation in the education system. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 16-22.

24. Негматов С. С. и др. Триботехнические свойства композиционных материалов на основе термопластичного полимера и органоминеральных наполнителей при контактном взаимодействии с волокнистой массой (хлопком-сырцом) //Физика и химия обработки материалов. – 2020. – №. 5. – С. 66-74.

25. Avazbekovich I. N., Shoxobiddin ogli T. F., Shuhratbek ogli A. A. Requirements for the design of an auto parts store //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 160-163.

26. Ikromov N. Yengil avtomobillarga taksi saroyini loyihalsh // Scienceweb academic papers collection. – 2023.

27. Avazbekovich I. N. Avtomobillarga kunlik qarov va diagnostika ishlarini tashkillashtirish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 112-116.

28. Ikromov N. Kinematic calculation of the hydraulic system of the unloading device of trailers //Proceeding X International Conference «Industrial Technologies and Engineering» ICITE–2023, Volume III. – Scienceweb-National database of scientific research of Uzbekistan, 2023.
29. Ikromov N. Features of modern electric cars //механика ва технология илмий журнали. – 2023.
30. Ikromov N. Investigation of the effect of magnetic treatment of polymer coatings on their adhesive and physical and mechanical properties //Машинасозлик илмий-техника журнали. – 2022.
31. Негматов С. С. и др. О разработке композиционных полимерных материалов для защиты и ремонта трубопроводов и оборудования нефтегазовой промышленности от коррозионно-механических повреждений. – 2022.
32. Икромов, Н. А. Гиясидинов Абдуманоб Шарохинович, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). Меры по снижению экологического воздействия автопарка. Universum: технические науки,(4-1 (85)), 44-47.
33. Zingirov S., Ikromov N., Mamasoliyeva O. ENSURING SAFE MOVEMENT BY DESIGNING THE OPERATING MODE OF DRIVERS WITH THE HELP OF A CAR KEY IN THE ORGANIZATION OF INTERNATIONAL TRANSPORT //IMRAS. – 2024. – Т. 7. – №. 4. – С. 55-60.

YENGIL AVTOMOBILLARNI G'ILDIRAK VA SHINALARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH


Andijon Mashinasozlik Instituti "Transport vositalari muhandisligi"

yo'nalishi 4-kurs talabasi Sunnatov Akbar Xolmurod o'g'li

Ilmiy rahbari. N.Ikromov

G'ildiraklar avtomobil yurish qismining uzellaridan biridir. Avtomobilning ilgarilama harakati yo'l ustida amalga oshadi [1]. G'ildirakni harakatlantiruvchi burovchi moment yetakchi ko'priikka transmissiya agregatlari orqali uzatiladi. Burovchi moment biror qo'shimcha uzal yordamida yo'l sathi bilan muloqotda bo'lgandagina hosil bo'lgan aks-ta'sir kuchi yordamida avtomobil ilgarilama harakatlanishga majbur bo'ladi [2].

G'ildiraklar tuzilishi quyidagi rasmda keltirilgan:



*1-rasm. Avtomobil
g'ildiragining tuzilishi.*

1-shina; 2-to'g'in; 3-stupitsa.



2-rasm. Disk.


G'ildirakning vazifasi avtomobilni yo'l bilan bog'lab uning harakatlanishini ta'minlash va shu bilan birga yo'l notekisliklaridan uzatilayotgan turtkilarni biroz yumshatib kuzovga, kuzovdan tushayotgan tikiyo 'nalishdagi yuklamalarni esa yo'lga uzatishdir [3].

Shinalar vazifasi, profilining ko'rinishi, o'lchamlari, konstruksiyasi va germetikligini ta'minlash usuli bilan ham turlarga bo'linadi [4].


Yengil avtomobil shinalari hamma iqlim hududlarida, yengil avtomobil, kichik yuk ko'taradigan yuk avtomobili, mikroavtobuslarda ishlatiladi [5]. Xuddi shu ekspluatatsiya sharoiti uchun shinalar yuk avtomobillari, ularning tirkamalari, yarim tirkamalari, avtobuslarda ishlatiladi [6].

Shina profilning ko'rinishi bo'yicha (3-rasm) ular oddiy profilli, keng profilli, past profilli, o'ta past profilli, arkasimon, pnevmo- katoklarga bo'linadi [7].

4-rasm. Diognal va radial shinalarning konstruksiyasi:



3-rasm. Shinaning qirqimi:
V-shinaning eni; N-profilning balandligi; D-shinaning tashqi diametri; d-to'g'ining diametri.



a) diognal; b) radial.

Oddiy profilli shinalarda (3-rasm) uning balandligi N ning eni V ga nisbati $0,9$ dan kattadir. Uning ko'ndalang kesimi torpid shaklidir va u kamerali yoki kamerasiz qilib ishlanishi mumkin [8]. Bu turdagi shinalar yaxshi yo'llarda yurishga mo'ljallangan hamma avtomobillarga o'rnatiladi. O'z navbatida radial shinalar R va RS turlarga ajraladi [9].


Diagonal shinalar (4a-rasm)da kord iplari qatlami 2 ikkitadir va shina diagonali bo'ylab joylashgan. Uning qolgan qismlarining tuzilishi radial (R) shinalar bilan bir xildir [10].

Radial (R) shinalarda (4b-rasm) kord iplari 2 radius bo'ylab joylashgan, diagonal shinadan ikki marta kam. Uning uchun $N / V = 0,70,85$ va kamerali yoki kamerasiz qilib tayyorlanadi [11].

Radial shinalar diagonal turiga nisbatan kattaroq yuk ko'tara olish qobiliyati, katta radial elastikligi, g'ildirashga qarshiligining kamligi, nisbatan kamroq qizishi, chidamliligining 2 martagacha yuqoriligi bilan ajralib turadi [12]. Lekin radial shina tannarxining yuqoriligi, yon tomonga elastikligining yuqoriligi, notekis yo'ldan yurilganda shovqin chiqarishi kabi kamchiliklarga ega [13].

Radial (RS) turidagi shinaning tuzilishi xuddi R turidagiga o'xshash bo'lib, faqat protektorining yechilish usuli bilan ajralib turadi [14]. RS turidagi radial shinalar protektor halqalarining almashishi hisobiga ko'p vaqtga chidaydi (150000 km gacha), lekin massasi kattaligi va halqalarning chiqib ketish xavfi


borligi kabi kamchiliklarga ega [15]. Transport vositalarida sovuqqa chidamli shinalar ham ishlatilib, ular minus 45°C dan ham past haroratda ish qobiliyatini yo'qotmaydi, yetarlicha mustahkam va elastik bo'ladi [17]. Shuning uchun g'ildirakni kuzov bilan bog'laydigan kuchlarni qabul etuvchi yo'naltiruvchi richaglar zarur [16]. Yo'l notekisliklaridan, ta'sir etayotgan turtkilardan hosil bo'layotgan tebranishlarni so'ndirish ham kerak.



Shinaning tuzilishi: 1-protektor; 2-yelka qismi; 3-ramka; 4-yon qism; 5-to'sar va yostiq qatlami; 6-yelka sohasiga qo'shimcha kiritish (yashil); 7-yon halqa; 8-yon qismlardan iborat.

1909 192

1928 1937 194 1955 19 1968 19 19S7 199 199



5-rasm. Shinalar protektorlarining ko'rinishi.

«Tiko» avtomobilining g'ildiragi shtampalanib tayyorlangan disk va to'g'indan iborat, qismlarga ajralmaydigan turiga mansub. O'lchamlari 4.00Vx 12. Shinasi radial turiga kirib, kamerasiz, o'lchamlari 135R12S yoki 70R12S. Shinadagi bosim birinchisi uchun 0,18 MPa, ikkinchisini 0,19 MPa.

Shina rusumi	Salonda 3 kishi bo'lganda, shina bosimi, MPa		Salonda 5 kishi bo'lganda, shina bosimi, MPa	
	Old g'ildirak	Orqa g'ildirak	Old g'ildirak	Orqa g'ildirak
155SR13	0,18	0,16	0,19	0,24
175/70R13	0,18	0,16	0,19	0,24
185/60R14	0,21	0,19	0,22	0,24

«Neksiya» avtomobilining g'ildiragi qismlarga ajralmaydigan, po'latdan yasalgan 5,5 Jx13 yoki aluminiy qotishmasidan 5,5 Jx14 rusumlidir. Shinaning uch turdagisi ishlatiladi: 155SR13, 175\70R13, 185\60R14N. Uchala turdagi shina ham radialdir va kamerasiz. Shinaga to'g'ri kelgan yuklamaga qarab, uning bosimi har xil bo'ladi.

«Damas» avtomobilining g'ildiragi 4.00x12 rusumli bo'lib, konstruksiyasi «Tiko» avtomobilining o'zginasidir. Bu g'ildirakka 155R12S-6PR rusumli shina kiygaziladi. Shina radial turidagi bo'lib, kamerasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Икромов Нурулло Авазбекович, Гиясидинов Абдуманоб Шарохиidinovich, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). Меры по снижению экологического воздействия автопарка. *Universum: технические науки*, (4-1 (85)), 44-47.

2. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 12, 93.

3. Икромов Нурилло Авазбекович (2015). Исследование влияния магнитного поля на физикомеханические свойства композиционных полимерных покрытий. *Вестник Курганского государственного университета*, (3 (37)), 96-99.

4. Икромов, Н. А., & Жалолова, З. Х. (2022). Исследования адгезионная прочность полимерных покрытий обработанных в магнитном поле. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 1(4), 58-62.

5. Ikromov, N. A., & Turaev, S. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges. *Academia-an international multidisciplinary research journal*, 10.

6. Ikromov Nurullo, & Rasulov Dilshod (2021). Technique and installations for electromagnetic treatment in the formation of composite polymer coatings. *Universum: технические науки*, (7-3 (88)), 52-55.

7. Negmatov, S. S., Mamadoliev, K. M., Sobirov, B. B., Latipov, I. K., Ergashev, E., Rakhmanov, B. S., & Tajibaev, B. M. (2008, August). Improvement of physico-mechanical properties of thermoreactive and thermoplastic polymeric coverings by physical methods of modification. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 1042, No. 1, pp. 67-69). American Institute of Physics.

8. Икромов, Н. А., & Расулов, Д. Н. (2020). Объекты и методики исследования композиционных полимерных материалов. *Современные научные исследования и инновации*, (10), 1-1.
9. Ikromov, N., Alijonov, A., Soliyev, B., Mamajonov, Y., Mahammadjonov, N., & Meliqoziyev, A. (2021). Analysis of mechanical properties of polymer bushing used in automobile industry. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 560-563.
10. Avazbekovich, I. N. (2022). Application Of Composite Materials and Metal Powders in the Technology of Restoration of Worn Parts. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 9, 70-72.
11. Ikromov, N. A., Isroilov, S. S., G'iyosiddinov, A. S., Rakhmatov, S. M., & Ibrokhimova, M. M. (2020). Situation of nes balance in the city passenger transportation market when moving passengers with transfers. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 188-198.
12. Тожибоев Бегижон Мамитжонович, & Икромов Нурилло Авазбекович (2020). Исследование свойств радиационно - обработанных наполненных композиционных полимерных покрытий γ - ЛУЧАМИ. *Universum: технические науки*, (12-1 (81)), 51-53.
13. Avazbekovich, I. N. (2022). Investigation Of The Influence Of Technological Factors Of Magnetic Treatment Of Polymer Coatings On Their Adhesion And Physical And Mechanical Properties. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1064-1070.
<https://orcid.org/0000-0002-1774-2217>.
14. Икромов, Н. А. (2022). ўғли Холматов СУ Хайдовчиларнинг иш тажрибасини йўл транспорт ходисасига таъсирини ўрганиш. *Journal of new century innovations*, 10(2), 11-18.
15. Ikromov N. A., To'raev S. A. Avtomobil patronlarining turli polimer materiallarini yutishini aniqlash //Akademiya-xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqot jurnali.
16. Негматов, С. С., Жалилов, Ш. Н., Рахманов, Ш. В., Негматова, К. С., Абед, Н. С., & Икромов, Н. А. & Махаммаджонов, ХА (2022). Исследование тепловой водостойкости и прочностных свойств композиционных полимер-полимерных связующих. *Universum: технические науки*,(11-5 (104)), 47-53.
17. Ikromov N. et al. Kristallanish va qotishmalarning qotish jarayonida komponentlarning o'zaro ta'siri //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 39-46.
18. Негматов С.С. и др. Исследование антифрикционно-виброзвукопоглощающих композиционных полимерных материалов и

покрытий на их основе //Universum: технические науки. – 2021. – №. 8-1 (89). – С. 11-15.

19. Ikromov N.A. et al. Shahar ko'chalarida transport vositalarining harakat jadalligini o'rganish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 863-872.

20. Икромов Н. Физическая модификация термопластичного полимерного композиционного материала: дис. – Белорусско-Российский университет, 2019.

21. Давлатов Р. М. и др. Разработка полимерной композиции для улучшения свойств шерсти //Все материалы. Энциклопедический справочник. – 2017. – №. 8. – С. 13-18.

22. Avazbekovich I. N. Transport vositalarning texnik holatini baholash //World scientific research journal. – 2023. – Т. 18. – №. 1. – С. 92-97.

**DAMAS AVTOMOBILIGA KUNDALIK TEXNIK XIZMAT
KO'RSATISHDA XAR BIR SUTKADA BOSIB O'TILGAN MASOFADAN
KEYIN HOLATLARNI O'RGANISH.**

Andijon Mashinasozlik Instituti "Transport vositalari muhandisligi"

yo'nalishi 4-kurs talabasi

Shokirov Sardor Saidovich

Ilmiy rahbari. N.Ikromov

DAMAS avtomobillariga TXK, D va tamirlash uchun ishlab chiqarish bazasini barpo etish talab etiladi.

Loyixalash ishini bajarish uchun avtomobilning gabarit o'lchami, Yonilg'i idishining xajmi va boshqalar zarur bo'ladi. Shuningdek, TXK va ta'mirlashning alohida xususiyatlari kerak [1].

DAMAS avtomobilining qisqacha texnik xarakteristikasi quyidagicha berilgan:

Ko'rsatgichlarning nomlari, o'lchov birligi.	Belgilanishi va miqdori.
Dvigatelning maksimal quvvati, ot kuchi.	65
Avtomobilning to'la massasi, kg.	1750
Avtomobilning eng katta tezligi, km/s	160
Gabarit o'lchovi, sm:	
-balandligi (N_a)	1858
-kengligi (V_a)	1782
-uzinligi (L_a)	2970
Yonilg'i idishining hajmi (l)	40
Passajir urindiklar soni (pass)	8

DAMAS avtomobiliga TXK va joriy ta'mirlashning alohida xususiyatlarini ko'rib chiqamiz [2]. Buning uchun TXKdagi majburiy-ogoxlantiruvchi tizim ko'zda tutilgan. Unda quyidagi amallar bajariladi:

- kundalik texnik ko'rsatish (KTXK);
- texnik xizmat ko'rsatish №1;
- texnik xizmat ko'rsatish №2;
- diagnostika №1;
- diagnostika №2;

1) Tashqaridan nazorat qilish bilan avtomobilning butligi, kuzov, kabina, yukxona, peshoyna, orqani ko'rsatuvchi ko'zgu, nomer belgisi, bo'yoqlar xolati, eshik qulflari, rama, reszor, amartizatorlar, g'ildirak va

shinalarning texnik xolti tekshiriladi [3]. Avtomobil to'xtagan joylarda undan yonilg'i, moy, sovitish va tormoz suyuqliklari tommaganligiga ishonch xosil qilish kerak. Aniqlangan buziqliklar bartaraf etiladi va sovitish, tormoz suyuqliklari, moy, yonilg'ilarining kami to'ldiriladi [4].

2) Rul boshqarmasi, tormoz mexanizmlari, yoritish asboblari, darak berish va tovishli daraklagichlar va oyna tozalagichlarning to'g'ri ishlashi tekshiriladi.

3) Dvigatel karteridagi moy satxi tekshiriladi [5].

4) Yilning issiq davrida oyna tozalagich idishi suv bilan to'ldiriladi.

5) Avtomobil ortiqcha chang sharoitida yoki yo'lning noteks va suyuq layqalar bilan to'lgan chuqirchalari bor joylarida ishlatilganda xovo filtri tozalanadi yoki almashtiriladi [6].

6) Avtomobil iflos va chang yo'llarda ishlatilganda u yuviladi [7].

7) Avtomobil yilning soviq paytlarida garajdan tashqarida saqlanganda uning sovitish tizimidagi suyuqlik ishdan keyin to'kib tashlanadi [8]

TXK-1DA QUYIDAGI AMALLAR BAJARILADI:

1) Agregat yuritmalaridagi tasma xolati tekshiriladi [9].

2) Ajratib qo'shish mexanizmi tepkisining erkin yurish yo'li tekshiriladi va zaruriyatga qarab sozlanadi.

3) Uzatmalar qutisi, orqangi ko'priklarning jipsligi nazorat qilinadi va ularning xavo chiqarish teshikchlari tozalanadi.

4) Tirkama bilan muntazam ishlaganda tortish-bog'lash qurilmasidagi ilmoqning o'q bo'ylab tirqishi, maxkamlash gaykasidagi shplit xolati, ilmoqning eyilganligi va uning erkin aylanishi tekshiriladi. Ayrim xollarda tirkama bilan ishlatilganda bu amallar bitta TXK-2dan keyin oralatib bajariladi.

5) Shinalar xolati tekshiriladi.

6) Rul chambaragining erkin yurish yo'li tekshiriladi.

7) Rul kuchaytirgichi nasosining kranshteyni dvigatel blokiga va nasosni krashteynga maxkamlanganligi tekshiriladi.

8) Rul tortqisi sharnirlaridagi tirqish va sharnir barmoqlarining zichlagichlarining xolati tekshiriladi [10].

9) Sharnir barmoqlari maxkamlanganligi va shplitlanganligi, soshka valining sozlovchi vint va burilish saffasidagi ponalovchi gaykalari maxkamlanadi (vint xolatini o'zgartirmagan xolda).

10) Pnevmatik tormoz yuritmasining jipsligi tekshiriladi [11].

11) Tormoz kamerasi tortqisining erkin yurish yo'li va barmoqlarning shplitlanganligi tekshiriladi, zarur bo'lganda sozlanadi [12].

12) Tormoz tizimidagi muzlashga qarshi quyilgan spirt almashtiriladi.

13) Elektrolit satxi tekshiriladi, zarur bo'lganda qo'shimcha disstirlangan suv quyiladi. Akkumulyator batareyasi kir va elektrolit qoldiqlaridan

tozalanadi,shomollatish teshiklari ochiladi,tok o'tkazgich uchlaridagi ilashmalarining mahkamligi va ishonchliligi tekshiriladi.

14) Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatilgandan keyin agregat,birikma, mexanizm va asboblarning ishlashi ularni yurgazib ko'rish yoki diagnostik postlarida tekshiriladi.

Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish(TXK-2) texnik xizmat ko'rsatish(TXK-1)ga nisbatan butun son karrasi asosida o'tkaziladi.

Shu bilan birga TXK-2da TXK-1 amalarining barchasi bajariladi va avtomobilning quyidagi mexanizmlarning ishlashi chuqir tekshiriladi:

1)TXK-1 dagi ish xajmining hammasi bajariladi.

2)Dvigatelning oldingi orqangi tayanch yostiqchalarining xolati tekshiriladi,zarur bo'lganda ular qo'shimcha maxkamlanadi.

3) Stilindiralar kallagining mahkamligi dvigatelning soviq xolatida tekshiriladi,gaz taqsimlash mexanizmidagi issiqlik tirqishi sozlanadi.

4) Ishlab bo'lgan gazlarni chiqarish va kiritish trubalarining mahkamligi tekshiriladi hamda mahkamlanadi.

5) Sovitish tizimidagi radiator osmasining mahkamligi, radiator jalyuzasi yuritmasining xolati va ishlashi tekshiriladi.

6) Yonilg'i bakining mahkamligi tekshiriladi.

7) Yonilg'i filtr-tindirgichining filtirlovchi elementlari chiqariladi va u qismlarga ajratilmasdan yuviladi.

8) Uzatmalar qutisi va uning tashqi detallarining mahkamligi tekshiriladi.

9) Kardan uzatma sharniridagi tirqish va shlistali birikmalar, oralik tayanchning xolati va mahkamligi tekshiriladi.Kordan val flanestining mahkamligi tekshiriladi.

10) Orqangi ko'prik yarim o'qining flanesti va asosiy uzatma,konussimon shesternyaning oldingi podshipnigining qopqog'ibosh uzatma qobig'i yonidagi qopqoqlarnipng mahkamlanganligi tekshiriladi.

11) Oldingi ko'prik balkasining xolati va to'g'ri joylashganligi nazorat qilinadi.Oldingi g'ildiraklarning o'zaro yaqinlashuvi tekshiriladi va sozlanadi.

12)Oldingi va orqangi ko'prik gupchaklaridagi podshipniklarning moylari almashtiriladi va tirqishlari sozlanadi(Xar ikkinchi TXK-2 dan keyin).

13)Ressor va amartizatorlarning xolati, orqangi ko'prikka qo'yilgan yostiqlarning joylashuvi tekshiriladi,talab etilganda esa buziqliklar bartaraf etiladi. Stremyanka,almashtiriluvchi quloqlar, oldingi ,orqangi ressor va amartizatorlarning mahkamligi, amartizatorlardan suyuqlik tommayotganligi tekshiriladi.

14) Zaxiradagi g'ildirak va uning kronshteynining mahkamligi teko'iriladi:

- 15) Rul boshqarmasi kardan valining ponalovchi gaykasini maxkamligi tekshiriladi.
- 16) Kompresor va tormoz kamerasing maxkamligi tekshiriladi.
- 17) Ishchi tormoz tizimi tepkisining erkin yurish va to'la yo'li tekshiriladi.
- 18) Generator va uning kronshteynining maxkamligi tekshiriladi, zarur bo'lganda maxkamlanadi.
- 19) Generator va kuchlanish rostlagichiga texnik xizmat ko'rsatiladi (to'rtinchi TXK-2 dan keyin avtomobildan chiqarib olib amallar bajariladi).
- 20) Startyorning maxkamligi tekshiriladi, zarur bo'lganda tortiladi.
- 21) Startyorga texnik xizmat ko'rsatiladi va oltinchi TXK-2 dan keyin avtomobildan chiqarib olinib amallar bajariladi.
- 22) Startyor va generator chiqiqlariga bog'langan elektr o'tkazgich simlarining maxkamligi tekshiriladi.
- 23) Rul boshqarmasi nasosining filtri yuviladi va sapuni tozalanadi.
- 24) Avtomobil kabinasi va platformasining ramaga, qanot, oyoq qo'ygich, loy sachratgichlarning mahkamlanganligi tekshiriladi.
- 25) Moylash kartasi asosida moylash ishlari bajariladi.
- 26) Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatilgandan keyin agregat, birikma va mexanizmlarning ishlashi ularni yurgazib ko'rish yoki diagnostik postlarida tekshiriladi.

Yonilg'i ta'minoti tizimi bo'yicha bajariladigan ishlarga alohida e'tibor beriladi. Avtomobillarga TXK-2 o'tkazish davriyli zavod tayyorlovchi tamonidan belgilab beriladi va uning yo'l kategoriyasi 3,4- guruxga, iqlim sharoiti esa shimoliy rayonlarga to'g'ri keladi. Ishlab chiqarish dasturini hisoblashda TXK-2 davriyligi berilgan ekspluatatsiya sharoiti bo'yicha korritirovka qilinadi.

Loyihalana yotgan ATKlarda ko'zda tutilgan joriy ta'mirlash (JT) xudidida agregatlar qismlarga ajratiladi, detallar ta'mirlanadi, yig'iladi va sinab ko'riladi. Bu ishlab chiqarish bazasini talab etadi. TXK ishlarini bajarish sifatidan qat'iy nazar va zavod tayyorlovchi tamonidan berilgan detal va agregatlarning chidamliligi ekspluatatsiya qilish jaroyonida sinadi, ishdan chiqadi. Ularning ko'pchiligi dvigatel va transimissiya detallariga to'g'ri keladi.

ATKlarda TXK va JT ishlarini bajarish uchun ishlab chiqarish bazasi zarur bo'ladi. Unga ishlab chiqarish maydoni, ishchi kuchi, texnologik jixozlar, moslama va asboblarning kiradi.

Ushbu loyihada DAMAS avtomobili uchun ishlab chiqarish bazasini hisoblash vazifasi qo'yilgan.

ADABIYOTLAR:

1. Икромов Нурулло Авазбекович, Гиясидинов Абдуманоб Шарохиidinovich, & Рузиматов Бахром Рахмонжон Угли (2021). Меры по снижению экологического воздействия автопарка. *Universum: технические науки*, (4-1 (85)), 44-47.
2. Икромов, Н. А. (2021). Исследования физико-механических свойств радиационно модифицированных эпоксидных композиций и покрытий на их основе. *Universum: технические науки: электрон. научн. журн*, 12, 93.
3. Икромов Нурилло Авазбекович (2015). Исследование влияния магнитного поля на физикомеханические свойства композиционных полимерных покрытий. *Вестник Курганского государственного университета*, (3 (37)), 96-99.
4. Икромов, Н. А., & Жалолова, З. Х. (2022). Исследования адгезионная прочность полимерных покрытий обработанных в магнитном поле. *So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 1(4), 58-62.
5. Ikromov, N. A., & Turaev, S. A. To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges. *Academia-an international multidisciplinary research journal*, 10.
6. Ikromov Nurullo, & Rasulov Dilshod (2021). Technique and installations for electromagnetic treatment in the formation of composite polymer coatings. *Universum: технические науки*, (7-3 (88)), 52-55.
7. Negmatov, S. S., Mamadoliev, K. M., Sobirov, B. B., Latipov, I. K., Ergashev, E., Rakhmanov, B. S., & Tajibaev, B. M. (2008, August). Improvement of physico-mechanical properties of thermoreactive and thermoplastic polymeric coverings by physical methods of modification. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 1042, No. 1, pp. 67-69). American Institute of Physics.
8. Икромов, Н. А., & Расулов, Д. Н. (2020). Объекты и методики исследования композиционных полимерных материалов. *Современные научные исследования и инновации*, (10), 1-1.
9. Ikromov, N., Alijonov, A., Soliyev, B., Mamajonov, Y., Mahammadjonov, N., & Meliqoziyev, A. (2021). Analysis of mechanical properties of polymer bushing used in automobile industry. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 10(3), 560-563.
10. Avazbekovich, I. N. (2022). Application Of Composite Materials and Metal Powders in the Technology of Restoration of Worn Parts. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 9, 70-72.

11. Ikromov, N. A., Isroilov, S. S., G'iyosiddinov, A. S., Rakhmatov, S. M., & Ibrokhimova, M. M. (2020). Situation of nes balance in the city passenger transportation market when moving passengers with transfers. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 188-198.
12. Тожибоев Бегижон Мамитжонович, & Икрамов Нурилло Авазбекович (2020). Исследование свойств радиационно - обработанных наполненных композиционных полимерных покрытий γ - ЛУЧАМИ. *Universum: технические науки*, (12-1 (81)), 51-53.

TIBBIYOT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA TOVAR MODDIY ZAXIRALARGA BO'LGAN EHTIYOJ VA UNING HISOBINI YURITISHNING ZARURLIGI

Kasimova Gulyora Axmatovna

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Byudjet
hisobi va g'aznachilik ishi" kafedrasida professori*

Masharipov Odilbek Muzaffar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 1-kurs magistranti


Annotatsiya: *Ushbu maqolada respublikamizdagi tibbiyot tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralariga bo'lgan ehtiyojni o'rganish hamda tovar moddiy zaxiralar hisobini yuritish va takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlar to'g'risida to'xtalib o'tildi. Tibbiyot muassasalarida tovar moddiy zaxiralari hisobi jarayonini tashkil etishning ilmiy va uslubiy jihatlari yoritildi.*

Kalit so'zlar: *budjet tashkiloti, buxgalteriya hisobi, tovar-moddiy zaxiralar, materiallar, daromadlar va xarajatlar, joriy qiymat.*

Tibbiyot tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralarini hisobini yuritish juda muhimdir, chunki bu tizimning samaradorligini ta'minlash va bemorlarga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Zaxiralarni samarali boshqarish tibbiyot tashkilotlarida ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Bu ortiqcha xaridlarni oldini olish, zaxiralarni to'g'ri saqlash va yaroqlilik muddati o'tgan mahsulotlarni isrof qilishning oldini oladi. Bu, shuningdek, favqulodda holatlar uchun zarur bo'lgan ashyolarni o'z vaqtida va yetarli miqdorda saqlash imkonini beradi. To'g'ri zaxira boshqaruvi tibbiy xodimlarning bemor parvarishiga ko'proq vaqt ajratishiga imkon beradi, chunki ular ashyolarni qidirishga va boshqarishga kamroq vaqt sarflashadi. Bu bemorlarga ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshiradi. Zaxiralarni to'g'ri boshqarish orqali tibbiyot tashkilotlari moliyaviy jihatdan foyda ko'rishi mumkin. Bu mahsulotlarning yaroqlilik muddati o'tishini kuzatib borish va eskirgan yoki ortiqcha mahsulotlarni oldini olish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, yetkazib beruvchilar bilan yaxshiroq narxlarda shartnomalar tuzish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, tibbiyot tashkilotlarida tovar moddiy zaxiralarini samarali boshqarish nafaqat moliyaviy tejamkorlik va operatsion samaradorlikni oshiradi, balki bemor parvarishi sifatini ham yaxshilaydi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali bu jarayonlarni avtomatlashtirish va optimallashtirish mumkin, bu esa yanada yaxshi natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan davlat tibbiyot muassasalarining hisob yuritish tizimi, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibi hamda nazorat tizimini bozor munosabatlari talablari asosida qayta ko'rib chiqish, rivojlantirish va takomillashtirib borish davlatimiz byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadidir. Davlat tibbiyot muassasalari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarishda tovar moddiy qiymatliklarga extiyoj sezadi. Tovar moddiy qiymatliklar muassasda joriy davrda foydalanilib, xarajatlar tarkibiga olib borish orqali hisobdan chiqariladi. Muassasalarning faoliyat turlariga qarab tovar moddiy qiymatliklarning turlari ham farq qiladi. Tovar moddiy qiymatliklarni hisobga oluvchi schyotlarda muassasaga tegishli bo'lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulklar, jumladan, qurilish – ta'mirlash materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i va yonilg'ilar, ozuqa va y-hashak, tara (idish)lar, qishloq xo'jalik mahsulotlari va ishlab chiqarish buyumlari, o'stiruvdagi va boquvdagi chorva mollari, o'quv, ilmiy va boshqa maqsadlar uchun materiallar hamda laboratoriya sinovida bo'lgan, uzoq vaqt foydalaniladigan materiallar, shartnoma asosida bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun maxsus asbob-uskunalar va boshqalar hisobga olinadi.

Tovar moddiy qiymatliklarni sarflashni buxgalteriya xujjatlarida aks ettirish quyidagicha: talabnoma, ichki yuk xati, memorial order, 308-shakl bosh kitob (1-rasm).




1-rasm. Tovar moddiy qiymatliklarning sarflanishini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirishning sxematik ko'rinishi³

2-sonli BHXSda tovar-moddiy zaxiralarga quyidagicha ta'rif berilgan:⁴

Tovar-moddiy zaxiralar – bu quyidagi aktivlardir:

- odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;
- bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan;
- ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xom ashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlar.

4-son BHMSning 8-bandida tovar-moddiy zaxiralarni aktiv sifatida tan olishning quyidagi mezonlari belgilangan:



2-rasm. TMZlarni aktiv sifatida tan olish mezonlari

Tovar-moddiy zaxiralarning tashkilotga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy nafning kelib tushishiga ishonch mavjudligini aniqlashda korxonada dastlabki tan olish paytida mavjud bo'lgan faktlarga asoslanib bo'lajak iqtisodiy nafning olinishi ehtimolligi darajasini baholashi lozim bo'ladi. Buning ma'nosi shundaki, korxonada olingan aktivga egalik qilish, undan foydalanish va boshqarishga bog'liq bo'lgan barcha bo'lajak daromadlar (ular odatda tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishi, shuningdek sotilishidan tushadigan daromadlar shaklida namoyon bo'ladi) o'ziga tegishli bo'lishiga ishonch hosil.

³ Toshkent Iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi Tulaganov.A

⁴ Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17th Edition. 101 p

qilishi lozim va mazkur obyektga egalik qilishga bog'liq barcha tavakkalchilikni (jumladan mulkning tasodifan ishdan chiqishi yoki buzilishi xavfi, shuningdek uni saqlash, qayta ishlash va hisobdan chiqarishga bog'liq ko'zda tutilgan xarajatlarni) o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiy naf olish ehtimolligining mavjudligi korxonaga aktiv bilan bog'liq bo'lgan, iqtisodiy moddiy boyliklarga ega bo'lishi va shunga muvofiq tegishli tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishi xususida oydinlik kiritilishini taqozo etadi. Odatda iqtisodiy manfaatlar va tavakkalchiliklar korxonaga to'liq o'tgandagina bunday aniqlik paydo bo'ladi. Bungacha esa aktivni xarid qilish operatsiyasi deyarli talafotlarsiz (jarimalarsiz) bekor qilishini mumkin, shuning uchun aktiv tan olinmaydi. Tovar-moddiy zaxiralarni tan olishning yuqorida keltirilgan aktivning qiymati ishonchli baholanishi mumkinligi sharti buxgalteriya hisobi amaliyotida odatda oson qoniqtiriladi, chunki aktivni xarid qilish operatsiyasi natijasida uning qiymati aniqlanadi. Masalan, tovar-moddiy zaxiralar boshqa shaxslardan sotib olinayotganda ularning qiymatini baholashning asosiy ishonchli ko'rsatkichi tovarmoddiy zaxiralarning tomonlarni qoniqtiradigan va oldi-sotdi shartnomasida ko'rsatilgan bahosi hisoblanadi; tovar-moddiy zaxiralar korxonaga bepul kelib tushganda baholashning asosini tegishli o'tkazish hujjatlarida ko'rsatilgan tovarmoddiy zaxiralar qiymati yoki ular kelib tushgan paytdagi bozor qiymati tashkil kiladi. Bunda, agar aktiv xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kuchi bilan mustaqil yaratilgan bo'lsa, uning qiymatini materiallar, ishchi kuchini sotib olish bo'yicha tashqi tomonlar bilan olib borilgan operatsiyalar hamda tovar-moddiy zaxiralarni yaratish (ishlab chiqarish) jarayonidagi boshqa xarajatlar asosida ishonchli baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.A. Karimov, J.E. Kurbanbayev, S.A. Jumanazarov; - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. b.
2. A.S. Ramazonov, Sh.V. G'aniyev, I.N. Qo'ziyev. "Budjet hisobi va nazorati" . Darslik. T.: "Nihol print". 2022 yil. 632 b.
3. «Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi yo'riqnoma (2010 yil 22 dekabr, 2169-son)

OPPORTUNITIES TO DEVELOP ECOLOGICAL TOURISM IN KHORAZM REGION

Tojiev Alisher Sultannazirovich

UrDU, teacher of the Department of History.

Abstract: *This article analyzes the possibilities of ecotourism development in Khorezm region.*

Key words: *Aral Sea, ecotourism, resorts, medical tourism, foreign investments.*

In the President's Decree No. PF-4861 of December 2, 2016 "On measures to ensure rapid development of the tourism industry of the Republic of Uzbekistan" [1, p. 2]. as noted: "Rapid development of tourism in the country, more complete and effective use of the existing huge tourism potential, national and regional programs for the comprehensive development of other potential types of tourism - ... ecological tourism ... internal, inbound and outbound tourism along with traditional cultural and historical tourism development and implementation" is defined.

On April 25, 2007, in an interview with "TODAY" newspaper, I. Karimov assessed the country's ecotourism potential and said: "The beautiful geographical and natural conditions are very favorable for the development of ecotourism in the territory of the republic" [2, p. 1]. The goal of ecotourism is the rational use of nature in the tourist direction for the ecological safety and sustainable development of current and future generations. Therefore, effective use of natural and ecological resources is one of the urgent issues. In the world, the ecological tourism direction of the tourism industry was formed and is developing on the basis of the search for ways to save the nature of our planet and its resources for the prevention of the ecological crisis facing mankind, for the sustainable development and survival of mankind.

Khorezm region has a great opportunity to use natural and ecological resources, including the "Kal'ajyk castle" health-tourist complex in Bogot district. This health center is located near the lake around the 3,000-year-old Kalajik Castle. This lake is considered an important tourist and recreation object of this place, its water is rich in various mineral substances, bathing in water, lying in the coastal mud, burying in the sand and basking in the sun improves the blood circulation system, calms the nerves, and is effective in the treatment of joint and some skin diseases. In this place, there is a restaurant serving tourists, a camping site, camel and horse rides around the fort.

Solving environmental problems affecting public health has been elevated to the level of public policy. The fact that 35 percent of the population in the region, including 40 percent of the rural population, is not provided with clean drinking water shows that the work in the field is not satisfactory. For example, in 2002, in order to improve the supply of clean drinking water to the population in the region, a foreign bank loan in the amount of 4 million 926 thousand US dollars was appropriated. Some of the inefficient regional medical institutions were privatized, and the rest were brought to the level of medical students. By the year 2000, 38 cases of private treatment were registered, including 5 in 1999. Besides, the hospital was still in a precarious situation.

The bolneological resort "Khonka" sanatorium, located on the shore of the "Shavot" channel of the region, is operating. For many years, this sanatorium has been helping visitors effectively deal with cardiological, neurological and locomotor diseases. This sanatorium is famous for its healing mineral water saturated with bromine, iodine and other trace elements.

Timely resolution of issues of ecotourism development in the region, preservation of biodiversity in nature, protection of natural resources and prevention of international environmental crises will be a contribution [3, p. 5]. Reforms were carried out in the health system of Khorezm region on the basis of "State Dastypi on Health Care System Reform". Inefficiently working hospitals, medical facilities have been reduced, and the area where medical facilities meet has been reduced to the level of sanitary facilities.

Another of the sanatorium-resort facilities created using natural ecological resources is the "Shavot Obi-hayot" sanatorium located in Shavot district. The sanatorium is surrounded by trees and plants and is located on the water's edge, providing vacationers with fresh air. The difference between this health center and other places is that special healing infusions are made here. In addition, the sanatorium offers acupuncture, hydromassage, magnetotherapy and other human refreshing services to those who want to restore their health in this place. Also, visitors to the sanatorium can use the services of healing mud, swimming pool, vibromassage, sauna, and gym. [4, 6. 4].

Khorezm region also has some recreational resources. For example, it is possible to create a tourist complex on the shores of "Govukkol" and "Eshonravot" lakes in the Khiva district, develop fishing, organize tents, swimming equipment rental services, and the infrastructure of swimming pools. According to data, the income from ecotourism in the tourist market is 10-18 percent. In particular, the share of ecological tourism in the economy of Kenya, Costa Rica, the Middle East and some Arab countries, and some countries on the European continent is significant. This type of tourism is also distinguished

by its importance in solving the problems of nature protection, preservation and reproduction of rare plants and animals. On the banks of the "Shavot" channel in the city of Urganch, special places for ships to stop were built, new ships were bought and put into operation, and recreation facilities were organized, and a hypermarket with a modern look was built in the city center.

According to the definition of the International Union for Conservation of Nature, "ecological tourism or ecotourism helps to protect nature in order to travel responsibly with respect to the natural environment, explore areas without harming their nature and enjoy their unique, beautiful places, has a "soft" impact on the environment, local activates the socio-economic conditions of the population and ensures that they receive benefits from this activity".

There is a great potential for the development of ecological tourism in the region, and it is possible to develop ecological tourism and hotel services on the Amudarya coast of Bogot, Khanka, Urganch districts. It is also possible to establish ecological tourism services in the zone of the "Kyzilqum" state reserve in the region. This reserve is located in the middle stream of Amudarya, mainly in Khazorasp district of Khorezm region and partly in Romiton district of Bukhara region. The total area of the reserve is 10 thousand 311 hectares. 86 percent of its territory corresponds to Khazorasp district. The reserve consists mainly of groves and partly desert, and the reserve has more than 150 species of flora, 86 species of animals and 267 species of birds. Of these, 8 types of fish, 1 reptile, 18 types of birds and 2 types of animals are included in the "Red Book". On the basis of this reserve, there are opportunities to develop ecological tourism and hotel services on the coast of Amudarya, and organize camel and horse excursions for tourists [5, 6. 158].

One of the main directions for the development of ecological tourism in the archipelago region is the Lower Amudarya State Biosphere Reserve (KADBR), where there are 43 species of fish, 2 species of amphibians, 29 species of reptiles, 246 species of birds and 36 species of mammals, as well as many natural ecotourism sites on the Amudarya coast. is also available. Also, Aqchakol, Sudoe, Eshonravot, and Govuk lakes of the Republic of Karakalpakstan are important objects for the development of ecological tourism in the Aral Bay region.

On January 28, 2022, the President's Decree No. PF-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" stated that "implementation of concrete measures for the development of ecotourism in the Republic of Karakalpakstan and the Aral Bay is defined as a priority"[6, 6. 4].

In general, as opportunities for the development of ecotourism in the region, it can be shown that there is an opportunity to develop ecotourism in a

complex manner with other types of tourism, that natural and ecological resources can be used as an object for ecological tourism in regions that are in an ecological crisis.

REFERENCES:

1. Президент Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сонли Фармони.
2. Каримов И.А. Today газетасига берган интервьюси. // Халқ сўзи, 2007 йил 26 январь.
3. Хаитбоев Р. Экологик туризм. – Тошкент: “Баркамол файз медиа”. 2018, – Б. 5.
4. Ибадуллаев Э. Хоразм вилоятида туристик-рекреацион хизматларнинг ривожланиш истикболлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий журнали, 2020 йил сентябрь-октябрь, № 5.
5. Матякубов У. Туризмда тараққиёт стратегиясини амалга ошириш муаммолари. Тошкент: “Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи”, 2022. – Б. 158.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.

“САНОАТ-4.0” ТАМОЙИЛИ АСОСИДА КОРХОНАЛАНИНГ ТЕХНОЛОГИЯЛАРГА БЎЛГАН РАЎБАТЛАНТИРИШ.

Хасанова Муътабар Султоновна

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамаси ҳузуридаги

Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби магистранти

Антонация. *Ушбу мақола иқтисодий хавфсизликни таъминлашда, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришда ишлаб чиқаришни автоматлаштириш, саноат корхоналарига рақамли иқтисодиётни тадбиқ этиш, шунингдек, саноат-4.0 стратегиясини корхоналар ривожланишида тутган ўрнини янада кенгроқ ўрганишга қаратилган. Шунингдек, тўртинчи саноат инқилобининг ишлаб чиқариш корхоналарига тадбиқ этилишининг таъсири, имкониятлари ва келтириб чиқариши мумкин бўлган муаммолар таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *Саноат-4.0 стратегияси, рақамли иқтисодиёт, сунъий интелект, ишлаб чиқаришни автоматлаштириш, “ақилли” ишлаб чиқариш технологиялари.*

КИРИШ

Дунё аҳолисининг тобора кўпайиб бориши нафақат мамлакатимизда, балки бутун дунёда иқтисодий хавфсизликни таъминлаш, озиқ-овқат хавфсизлигини олдини олиш ҳар бир давлатнинг асосий глобал муаммоларидан бирига айланиб бормоқда. Республикамизда ҳам охириги 30 йилдан ортиқ вақт давомида аҳоли сонинг қарийб икки баробарга ортиши мазкур муаммоларга ечим топишнинг ҳам иқтисодий, ҳам ҳуқуқий жиҳатдан мустақамлаб тегишли чора-тадбирларни амалга оширишни талаб этмоқда. Мамлакатимизда аҳоли турмуш даражасини ошириш, уларни ижтимоий, иқтисодий жиҳатдан қўллаб-қувватлашнинг энг замонавий ва тезкор ечими бу рақамли иқтисодиётга ўтиш, саноатга кам харжли самарадорлиги юқори бўлган “Ақлли ишлаб чиқариш” технологияларини жорий этиш юзасидан бир қатор ишлар амалга оширилди.

Мазкур муаммоларга ечим топиш, келгусида барча замонавий технологияларни жорий этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-6079-сонли фармони қабул қилинди.

Ушбу фармонга мувофиқ, иқтисодиётнинг реал сектори тармоқларидаги корхоналарда бошқарув, ишлаб чиқариш ва логистика жараёнларини автоматлаштириш бўйича 280 дан ортиқ ахборот тизимлари ва дастурий маҳсулотлар жорий этилади:

маҳаллий IT-компаниялар ва дастурий маҳсулотлар ишлаб чиқарувчилар ҳамда уларнинг маҳсулотлари ва хизматларининг ягона маълумотлар базасини шакллантириш, шунингдек, уларга ўз маҳсулотларини ички ва ташқи бозорларда илгари суришда кўмаклашиш:

ахборот технологиялари соҳасидаги устувор йўналишлар бўйича фундаментал ва амалий тадқиқотларни олиб бориш;

иқтисодиёт тармоқларида виртуал ва тўлдирилган реаллик, сунъий интеллект, криптография, машина ўрганиши, катта маълумотларни таҳлил қилиш ва «булутли» ҳисоблаш технологияларидан фойдаланиш имкониятларини ўрганиш ва уларни амалиётга татбиқ этиш;

истикболли инновацион ишланмалар ва стартап-лойиҳаларини амалга ошириш ҳамда уларни тижоратлаштириш ва технологиялар трансферини кўллаб-қувватлаш белгиланган⁵.

САНОАТ 4.0 ТАМОЙИЛИ

Инсониятнинг ривожланиш тарихига назар ташлайдиган бўлсак, бугунга қадар дунё цивилизациясида 4 та саноат инқилоби рўй берди:

Саноат 4.0 тамойили ҳақида сўз юритишдан олдин мазкур саноат инқилоблари тўғрисида тўхталиб ўтсак.

Дунё тарихида 1784 йилда биринчи саноат инқилоби, 1870 йилда иккинчи саноат инқилоби, 1969 йилда учинчи саноат инқилоби рўй берди. Айни дамда эса тўртинчи саноат инқилобига ўтиш жараёни босқичма-босқич давом этмоқда.



1-расм. Саноат инқилоблари таснифи.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 05.10.2020 йилдаги “Рақамли Ўзбекистон-2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПФ-6079-сонли фармони

Хорижий давлатларда INDUSTRY 4.0 номи билан танилган тўртинчи саноат инқилоби дастлаб ғарб мамлакатларида пайдо бўлди. 2011 йилда Германияда ўтказилган саноат кўргазмаларининг бирида Германия ҳукумати ишлаб чиқаришда ахборот технологияларидан кенгрок фойдаланиш зарурлиги тўғрисида сўз борган. Шундан сўнг махсус ташкил этилган мансабдор шахслар ва мутахассислар гуруҳи мамлакатдаги ишлаб чиқариш корхоналарини “ақилли” корхоналарга айлантириш, ишлаб чиқариш жараёнида робототехникадан янада кенгрок фойдаланиш стратегиясини ишлаб чиқдилар. Янги технологияларни фаол ривожлантираётган бошқа давлатлар ҳам ушбу фикрга эргашдилар.

Ишлаб чиқаришда тўртинчи саноат инқилоби иқтисодий ўсишнинг янги омилидир, бу илгари бўлмаган ўқитиш имкониятлари ва янгиликларни қабул қилиш билан боғлиқ. Атрофдаги дунёни яхшилашга йўналтирилган кенг қамровли ғояга мувофиқ ақлли технологияларни жорий этиш, рақамли иқтисодиётни янада такомиллаштириш глобал иқтисодиётни мустаҳкамлаш, Ер сайёрамизнинг экологик ҳолатини яхшилаш ҳамда келажакда таҳдид солаётган озиқ-овқат хавфсизлигини олдини олишга ёрдам беради.

Бу каби вазифаларни амалга ошириш бевосита саноат ишлаб чиқаришни рақамлаштириш, янги замонавий технологиялар асосида ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, шунингдек, рақамли иқтисодиётга ўтиш жараёни билан боғлиқ саналади. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда, саноат ишлаб чиқариш жараёнини рақамлаштириш ҳамда саноатлашган жамиятни барпо этиш ҳозирги кунда миллий иқтисодиётнинг асосий масаласи эканлигини англаб олиш мумкин.

Ҳозирги кунда рақамли иқтисодиётнинг жадал ривожланиши электрон савдо, тўлов жараёнларини онлайн амалга ошириш, таълим, хизмат кўрсатиш, шунингдек, ишлаб чиқариш жараёнини автоматлаштириш, саноат тузилмаси таркибини рақамли технологиялар асосида такомиллаштириш аҳолини сифатли саноат маҳсулотлари билан таъминлаш имконини оширади.

Бундан ташқари, саноат 4.0 тамойилининг ривожланиши технологик ахборотда мавжуд бўлган минтақавий тўсиқларни кесиб ўтиш, халқаро ҳамкорлик дастурини ишга тушириш ва марказлаштирилмаган инфратузилмани қуриш учун замин яратади.

Ҳозирги кунда дунёда иқтисодиёт структураси ўзгармоқда – тобора кўплаб одамлар товар ишлаб чиқариш билан эмас, балки ахборот олиш ва қайта ишлаш билан шуғулланмоқда. Ҳамма учун одатий бўлган иқтисодиёт ўрнига бир қатор хусусиятларга эга бўлган рақамли иқтисодиёт келмоқда:



2-расм. Замонавий иқтисодиёт структураси

Рақамли иқтисодиёт ёки бошқача қилиб айтганда веб-иқтисодиёт замонавий рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда ташкил қилинадиган иқтисодий, ижтимоий ва маданий муносабатлар тизимини ифодалайди.

Рақамли иқтисодиёт замонавий жамиятда кундалик воқеликка айланади, ундан фойдаланиш туфайли барча тармоқлар самарадорлиги ортади. Замонавий компьютер технологияларидан фойдаланиш имкониятлари сифат ва сон жиҳатидан ортади - компьютер орқали деярли барча операцияларни амалга ошириш: пул тўлаш, чиптага буюртма бериш, керакли ахборот қидириш мумкин ва ҳ.к. Рақамли иқтисодиёт даврида ахборот энг муҳим роль ўйнайди, у улкан қийматга эга бўлган асосий номоддий активга айланади.

Рақамли иқтисодиёт – бу меҳнат унумдорлиги ва иқтисодий ўсишни тезлатиш, турмуш сифати ва инвестицион муҳитни яхшилаш мақсадида рақамли технологиялар, институтлар, номатив-ҳуқуқий база, кўникмалар ва бизнес ёрдамида онлайн режимида маълумотлар алмашилиш воситасида иқтисодий ривожланиш парадигмасидир.

“Ахборотлашган жамият” тушунчаси 1960-йилларнинг иккинчи ярмидан қўллана бошлаган бўлиб, ушбу атамани илмий муомалага Токио технология институти профессори, япон олими Ю.Хаяши киритган. Ахборотлашган жамият у томонидан компьютерлаштириш жараёни одамларга ишончли ахборот манбаларига уланиш имконини берадиган, уларни ҳар куни бир хил ва зериктирадиган ишлардан халос қиладиган, ишлаб чиқаришни автоматлаштириш даражаси юқори бўлишини таъминлайдиган деб тавсифланган. Бунда ишлаб чиқаришнинг ўзи ҳам ўзгаради – унинг махсулоти кўпроқ «ахборот сифимига эга» бўлади, бу эса

унинг кийматида инновациялар, дизайн ва маркетинг улушининг ортишини англатади.

Сунъий интеллект ҳақидаги тасаввур ва бу соҳадаги изланишлар — «ақлий машиналар» ишлаб чиқаришга илмий ёндошиш биринчи бўлиб Стаanford университетининг (АҚШ) профессори Джон Маккарти ташаббуси асосида 1956 йили ташкил топган илмий тугарақда пайдо бўлди⁶.

«Интеллект» сўзи лотинча «intellectus» сўздан келиб чиккан бўлиб, у билиш (аниқлаш), тушуниш ёки фахмлаш (ақл) маъносини беради. Инглиз тилида “artificial intelligence” атамаси “мантикий мулоҳаза қилиш қобилияти” ёки “сунъий ақл” тушунчасида қўлланилади. Сунъий интеллектнинг кўплаб таърифлари орасида қуйидагиларда тўхталиб ўтамиз:

➤ инсон фаолиятининг интеллектуал турларини (ўйинлар, нақшларни аниқлаш, таҳлилий фаолият ва бошқалар) математик, дастурий ёки аппарат моделлаштириш муаммоларини ҳал қиладиган илмий йўналиш;

➤ ижодий вазифаларни ишлай оладиган ҳамда шу ҳақидаги билимларни хотирада сақлайдиган техник ёки дастурий тизим; Интеллектуал тизим учта асосий блокни ўз ичига олади: маълумотлар базаси, ҳисобловчи ҳамда ихтисослашган дастурларсиз маълумотларни киритиш учун компьютерлар билан алоқа қилишга имкон берадиган ақлли интерфейс;

➤ ақлли дастурлар ёки роботларни яратиш вазифаси қўйилган информатика ва ахборот технологияларидаги йўналиш;

➤ тизимнинг ташқи маълумотларни таҳлил қилиш ва шарҳлаш, мустақил ўрганиш ва қўйилган муаммоларни ҳал қилиш учун олинган билимлардан фойдаланиш қобилияти.

Сунъий интеллект технологияси одамлар каби ақлли компьютер ёки машиналарнинг ихтиросига асосланган. Яъни, инсоннинг ақлий қобилиятларини ўрганиш натижасида интеллектуал дастурлар ва тизимлар ишлаб чиқилмоқда. Сунъий ақл - бу одамга ўхшаш когнитив функцияларни бажарадиган машина. Мутахассисларнинг фикрига кўра, сунъий интеллектдан фойдаланиш мураккаб ва мажмуавий вазифаларни ҳал қилишга, самарадорликни оширишга ёрдам беради. Интернетнинг расмий манбаларига кўра, 2018 йилда Иқтисодий Ҳамкорлик ва Ривожланиш Ташкилоти сунъий интеллект бўйича Тавсияномани ишлаб чиқишни бошлади.

⁶ David Poole Alan Mackworth Artificial Intelligence: Foundations of Computational Agents, Cambridge University Press, 2010

Бугунги кунда йирик компаниялар сунъий интеллект тизимларини ривожлантиришга турли хил ёндашувларни қўллашмоқда. Одатда, ушбу ишланмалар қуйидаги йўналишларда амалга оширилади: масалан, миждозларнинг юзларини таниб олиш, миждозлар эхтиёждларини тахлил қилиш ва индивидуал таклифларни яратиш; хавфсизлик тизимлари (кибер фирибгарликни аниқлаш, жинойтчилик йўллари билан топилган пулларни легаллаштириш); молия бозорларидаги савдо тизимлари.

ТАДҚИКОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Илмий мақолада кўтарилган масалаларни тадқиқ этиш, атрофлича ўрганиш, рақамларни тахлил қилиш, Саноат 4.0 талқини, унинг ҳаракатлантирувчи кучлари ва тўсиқларини ўрганиш тахлил натижаларини тизимлаштирган ҳолда таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқиш, кузатиш, қиёслаш, эксперт баҳолаш, мақсадли ривожлантириш каби тадқиқот усулларидан фойдаланилди.

Асосланган назария маълум бир ҳодиса тўғрисида ҳар томонлама тушунтиришлар ишлаб чиқишга қаратилган. Усул одатда мунтазам равишда тўпланган ва тахлил қилинган маълумотларга асосланган назарияларни яратиш учун ишлатилади. Страусс ва Корбин фикрига кўра, *"Асосли назарияни ўрганишдаги мақсад ҳодисаларни тадқиқотнинг ўзи давомида ривожланиб борадиган назарий асослар асосида тушунтиришдир"*. Таркибий назария тушунчаларни аниқлаш ва маълумотларни сифатли йиғиш асосида назарияни яратиш учун систематик методлардан фойдаланади⁷. Асосланган назария принципларига мувофиқ, биз назарий тўйинганлик даражасига эришиш учун маълумотларимизни такрорий равишда тўпландик ва тахлил қилдик.

Майлз ва Хуберманнинг сўзларига кўра, *"Сифатли тадқиқотлар майдон ёки ҳаётини вазият билан интенсив, узоқ муддатли алоқа орқали амалга оширилади"* дейилган.

ТАХЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР МУҲОКАМАСИ

Ҳозирги даврга келиб Саноат 4.0 инкилобида ҳам техник, ҳам ижтимоий томондан баъзи муаммолар мавжуд.

Тўртинчи саноат инкилобининг афзалликларини максимал даражада ошириш учун корпоратив чегаралардан ташқарига чиқадиган кенг қўламли ҳамкорлик зарур, айниқса, барча машиналарнинг бир хил тилда гаплашишига ишонч ҳосил қилинганда. Агар тугалланмаган махсулот РФИД чипини ўқий олмайдиган машинага келса, у бошқа частотада дастурлаштирилган, ишлаб чиқариш жараёнида хатолик бўлади. Шундай қилиб, турли хил компанияларнинг машиналари эркин алоқа қиладиган

⁷ Korbin, 2008

умумий платформалар ва тилларни аниқлаш кибер-физик тизимларнинг тарқалишидаги асосий вазифалардан бири бўлиб қолмоқда.

Бошқа томондан, хаддан ташқари бир хиллик ҳам хавфли бўлиши мумкин. Google етакчилигидан сўнг, бир нечта кучли компаниялар Саноат 4.0 да ғайритабиий устунликка эга бўлишлари мумкин.

"Саноат 4.0 талаб қиладиган катта маълумотлар миллий компаниялар томонидан эмас, балки Силикон водийсининг тўртта фирмаси томонидан тўпланди", деди ўтган йили Германия иқтисодиёт вазири Зигмар Габриел.

Хавфсизликнинг яна бир муҳим масаласи: Хавфсиз тармоқларни яратиш қийин ва жисмоний тизимларнинг Интернет билан бирлашиши уларни киберхужумларга нисбатан заифроқ қилади. Саноат 4.0 нинг ривожланиши билан ишлаб чиқариш жараёнлари масофадан туриб ишлаб чиқариш протоколини бошқариш ёки шунчаки жараённи фалаж қилиш орқали кўрқитилиши мумкин. Ақли фабрикалар тобора кенг тарқалиб бораётганлиги сабабли, уларнинг хавфсизлиги тобора долзарб бўлиб қолмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Acocella, 2012 I. Acocella **The focus groups in social research: advantages and disadvantages** Qual. Quant., 46 (2012), pp. 1125-1136
2. Dora Horvath and Roland Zs.Szabo, Driving forces and barriers of Industry 4.0: Do multinational and small and medium-sized companies have equal opportunities? Technological Forecasting and Social Change Volume 146, September 2019, Pages 119-132
3. Adolph et al., 2014 S. Adolph, M. Tisch, J. Metternich **Challenges and approaches to competency development for future production** Educ. Altern., 12 (2014), pp. 1001-1010
4. Agee, 2009 J. Agee **Developing qualitative research questions: a reflective process** Int. J. Qual. Stud. Educ., 22 (2009), pp. 431-447, [10.1080/09518390902736512](https://doi.org/10.1080/09518390902736512).
5. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., Sultanova, Y. Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 2020, 12(2), стр. 2677–2683
Международные и межгосударственные сферы его применения весьма разнообразны. Так, он давно уже выступает в качестве «языка науки» — средства общения ученых разных стран, а также кодирования и хранения общечеловеческих знаний (большая часть объема всей мировой информации публикуется на английском и русском языке.)

Русский язык является официальным языком в Организации Объединенных Наций, СНГ и других международных организациях, что подчеркивает его важность на мировой арене. Так же остается одним из самых популярных языков в мире, и его изучение способствует сохранению языкового многообразия. Однако, русский язык в современном мире также сталкивается с рядом проблем. В условиях глобализации и распространения английского языка как международного языка общения, русский язык может потерять свою популярность и значимость. Все больше людей в современном мире изучают английский язык как второй язык, чтобы успешно конкурировать на международной арене.

Владение английским языком – важная часть образования успешных людей. Люди, которые кроме родного языка, знают еще минимум два иностранных, производят благоприятное впечатление на окружающих. Современная молодежь извлекает нужную им информацию на страницах в интернете, а большинство страниц в интернете пишутся на английском языке. Знание английского позволит туристам познакомиться с интересными людьми, живущими в разных странах. Очень большое количество английских слов пришло в русский язык и широко используется в молодежной среде. Изучение английского языка – это один из самых важных составляющих моментов современного, успешного человека.

Английский язык является наиболее важным средством общения на международном уровне. Современный человек не может пользоваться новейшими преимуществами цивилизации без определенных языковых знаний. Все сферы нашей важной деятельности требуют определенного уровня знания английского языка. Всё больше людей начинают учить

английский язык. его должен знать каждый современный человек хотя бы на базовом уровне.

Иностранный язык играет важную роль в нашей жизни. Эти знания необходимы людям всех возрастов. Английский актуален во всех сферах жизни. Без этого не обойтись тем, кто хочет получить престижное образование или же работу. Сотрудники, говорящие по-английски, зарабатывают больше, чем сотрудники, не говорящие по-английски. Этот факт может стать отличным мотиватором для изучения английской лексики и грамматики в любом возрасте. А если брать роль иностранных языков по чисто физическому факту, то знание какого-либо из языков даёт ряд больших преимуществ.

Многие компании предоставляют свои вакансии в различных сферах жизнедеятельности. И никому не секрет что чтоб устроится на высокооплачиваемую и престижную работу нужно проходить собеседования и ряд других испытаний. И знание иностранного языка поможет и увеличит ваши шансы на успешное прохождения этого этапа и чем больше языков вы знаете, тем успешнее можно подняться по карьерной лестнице и зарабатывать хорошие деньги, и не только. Кроме того, знание иностранного языка незаменимо в путешествиях. Политика стала касаться каждой сфер жизни в современном мире, и без неё ни куда, многоязыковой человек может больше понимать и разбираться в политической ситуации, в добавок если он так же хорошо будет разбираться и в самой политике, то эта даёт ему превосходство на другими.

Так же еще одним из востребованным языком является китайский. Китай является самой населенной страной в мире с населением более 1,4 миллиарда человек. В настоящее время он является одной из самых dynamically growing economies и крупнейшим экспортером в мире. Таким образом, знание китайского языка является важным инструментом для молодежи, которая стремится к успеху в профессиональной сфере и развитию карьеры.

Китайская культура имеет тысячелетнюю историю и богатое наследие, включая философию, литературу, искусство и науку. Знание китайского языка позволяет молодежи быть частью этой культуры и погрузиться в её ценности. Это также может быть преимуществом при поиске работы в областях, связанных с туризмом, образованием, культурой и другими сферами, где знание китайского языка оказывается полезным.

Ведь международные конференции, изучение мирового опыта и обмен информацией научных умов происходит лишь с использованием иностранного языка. Даже олимпийские игры и всевозможные

соревнования между странами выбрали официальным языком именно английский. Многие молодые люди хотят получить возможность пройти обучение или стажировку в зарубежных странах. Чтобы этого достичь, необходимо написать тесты с высоким результатом и пройти конкурсный отбор, на котором будет отмечен уровень знания английского языка. Помимо европейских языков спрос также вырос и на китайский язык – сотрудничество российских компаний с Китаем с каждым годом набирает обороты.

Можно сказать, что, изучая другой язык ты становишься другим человеком, это даёт тебе колоссальный опыт в познании мира. Ты зарабатываешь себе авторитет, хорошую память и новые возможности. А именно свой успех. Всё же я считаю, что роль иностранного языка в жизни современной молодёжи очень важна. Ведь наша молодёжь – наше будущее, а значит мы должны быть образованными. И стать квалифицированными специалистами. А в этом нам поможет иностранный язык. Так как у людей сложилось впечатление что если ты знаешь язык помимо своего родного, то это значит, что ты очень образованный и успешный человек. Ведь с нуля выучить язык просто сидя дома могут не все и чтоб всё же что-то запомнить нужны какие-либо вложения. И нет ничего лучше, чем вложения в себя и собственное образование. А значит став образованнее, к тебе придут новые моральные ценности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Хакимова Г. Т., Султонова С. Х., Хидралиев р. Т. Интернет-видеоблоги как источник языкового материала при обучении русскому языку как иностранному //Science And Innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 27. – С. 105-109.

2. Султонова С. Х. Особенности обучения падежной системе русского языка для узбекскоговорящей аудитории //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 13-17.

3. Sultanova S. X. Features of the communicative approach to working with text in the lessons of russian as a foreign language in uzbek groups.

4. Султонова С. Х. Икт как средство повышения мотивации на уроках русского языка //Вопросы Педагогика. – 2018. – №. 3. – С. 98-101.

5. Султонова С. Х. Обучение узбекских студентов употреблению этикетных фраз-просьб и фраз-советов (курс «культура делового общения»). //so 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2024. – Т. 7. – №. 3. – С. 104-107.

6. Носирова З., Султонова С. Х. Основные черты современного корейского языка в свете теории вариантности //sustainability of education, socio-economic science theory. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 4-7.

7. Ханазарова С., Султонова С. Х. Мотивация на уроках русского языка //Sustainability of education, socio-economic science theory. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 8-12.

8.Тухтахужаева Н. А. Лексико-фразеологическая репрезентация концепта'happiness'/'бахт'в английском и узбекском языках //Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №. 28. – С. 112-115.

9.Тухтаходжаева Н. А. НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ СПЕЦИФИКА КОНЦЕПТА" СЧАСТЬЯ" В РАЗНОСИСТЕМНЫХ ЯЗЫКАХ //Международный научно-исследовательский журнал. – 2012. – №. 6-2. – С. 30-30.

O'ZGA GAP VA UNING TURLARI. KO'CHIRMA GAP. O'ZLASHTIRMA GAP

Vohidova Muqaddas

Oriental Universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogika kafedrasi katta o'qituvchisi (+998894 842 40 20)

Omadjonova Gulshoda

Oriental Universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi (+998977646676)

Annotatsiya: *Ushbu maqolamiz O'zga gap va uning turlari. Ko'chirma gap. O'zlashtirma gap haqida bo'lib, bunda mavzu to'liq yoritilgan har bir qoidalardan so'ng turli metodlarni qo'llab darsni yanada qiziqarli qilib o'tkazishdir.*

O'zga gap — muallifning nutqiga kiritilgan boshqa bir shaxsning bayonotidir. O'zga gapli qurilmalar nutqdagi vazifasi, ohangi va tuzilishi jihatdan mustaqil tuzilmalar hisoblanadi. O'zga gapli qurilmalar nutq jarayonida boshqalarning fikr-mulohazasini bayon qilishda o'zga shaxs va so'zlovchi nutqining qorishuvi natijasida yuzaga keladigan sintaktik birliklardir. O'zganing gapi bu biror-bir shaxsning fikrini so'zlovchi o'z nutqida ishlatishi ya'nimuallif gapi orqali berilishidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqida ham dialog yoki boshqa nutqiy bayonotlarga qaraganda boshqa birovning nutqi juda ko'p ishlatiladi. Lekin ular aslida o'zga gap haqidanaazariy ma'lumotga ega bo'lishmaydi.

Ma'lumki, o'zga gaplar nutqni boshqa bir insonga yetkazib berishda insonlar uchun asosiy yordamchidir. Bunday o'zga gaplardan katta-yu kichik birdek foydalanishadi. O'zga gaplar tuzilish jihatdan murakkab qurilma bo'lsa ham, xattoki boshlang'ich sinf o'quvchilari ham bundan keng foydalanishadi. Garchi, ularga bu davrda qo'shma gaplar haqida nazariy bilimlar berilmasa ham. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali maktab yoshiga yetmasidan nutqlarida birovning gaplari ya'ni o'zga gaplardan foydalanadilar. Biroq, boshlang'ich sinf predmetlarining tarkibiga o'zga gap mavzusi kiritilmagan. O'quvchilar bu tushuncha haqida ma'lumotlarga ega bo'lmasdan muloqotlarida do'stlarining, ota-onasining, bobo-buvisining va boshqa yaqinlarining so'zlaridan foydalanadilar. r sifatida keladi. Bunday gaplarda o'zganing gapidan foydalanilib, bu gaplar nutqqa o'zgartirishsiz olib kirilishi ham mumkin, aksincha, biroz o'zgartirilgan shaklda qo'llanilishi ham mumkin. O'zga gaplar nutqqa o'zgartirilib kiritilsa ham lekin mazmuni o'zgarmaydi.

Shunga ko`ra o`zga gaplar asosan ikki turli bo`ladi:

- 1) Ko`chirma gapli qo`shma gaplar.
- 2) O`zlashtirma gap.

Shakl va mazmun jihatdan nutqqa umuman o`zgartirilmasdan olib kirilgan birovlarining nutqi ko`chirma gaplar deyiladi. Bunday gaplar odatda muallifning gapi ya`ni so`zlovchining nutqi bilan birgalikda keladi. Shunga ko`ra ko`chirma gaplar ham o`zining ichida 2 turgabo`linadi:

- 1) o`zganing gapi ya`ni ko`chirma gap
- 2) so`zlayotgan shaxsning gapi ya`ni muallif gap.

Ko`chirma gaplar nutqda turlicha qo`llanilishi mumkin.

1. Ko`chirma gaplar ko`p hollarda muallif gapidan keyin keladi. Masalan, Onam menga har doim shunday deb o`rgatadilar: “Hayot yo`lingni chizar ekansan qalamni hech qachon birovning qo`liga berma”.

2. Ko`chirma gaplar muallif gapidan oldin kelishi ham mumkin. Masalan, “Yaxshi narsalar ishonganingda, yaxshiroq narsalar sabr qilganingda, eng yaxshilari voz kechmaganingda keladi. Duo qil, ishon, sabr qil, voz kechma, sen uchun xayrlisi eng to`g`ri paytda keladi”, —degan edi Jaloliddin Rumiy.

3. Ko`chirma gaplar ba`zi hollarda muallif gapning orasida ham keladi. Masalan, “Jumladan, T.Bushuy, SH.Safarovlar til birliklari orasidagi munosabatlarni an`anaviy tarzda sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatga ajratgan holda, paradigmatic munosabatga quyidagicha ta`rif beradilar: “Assotsiativ yoki paradigmatic munosabatlar birliklarning ayrim xususiyatlari umumiyliigi yoki o`xshashligi asosida muayyan guruhlariga bo`linib, munosabatga kirishuvidir”.

Ko`chirma gaplarning imlosi:

Ko`chirma gaplar yozma nutqda doimo qo`shirnoq bilan yoziladi. Agar ko`chirma gap darak gap sifatida qo`llanilib, so`zlovchining nutqidan oldin qo`llanilsa, ko`chirma gap qo`shirnoqqa olinadi va undan so`ng vergul va tire qo`yiladi. Tiredan so`ng muallif gapi yoziladi va oxiriga nuqta qo`yiladi.

Masalan:

"Baxtni kutmaydilar, uni yaratadilar", — deydilar ko`p odamlar.

Agar ko`chirma gaplar muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan so`ng ikki nuqta qo`yiladi va ko`chirma gap qo`shirnoq ichida yoziladi, qo`shirnoq berkitilgach nuqta qo`yiladi.

Masalan, Uning hayotidagi maqsadi: “Ota-onasini rozi qilib, bolalarini baxtlarini ko`rish”. Agar ko`chirma gap muallif gapining o`rtasida kelsa, muallif gapdan so`ng ikki nuqta qo`yiladi, qo`shirnoq ichida ko`chirma gap yozilib, vergul va tire qo`yiladi. Undan keyin yana muallif gapi davom ettirilib, nuqta bilan yakunlanadi.

Masalan, Narigi mahalladagi odamlarning aytishicha: “Po`lat o`g`irlik qildi”, — deb mish-mish tarqatishmoqda ekan. Shuning uchun ham yuqorida berilgan she`rda ham o`zga gaplar keltirilgan ko`chirma gaplarning yozilishida tire, ikki nuqta va qo`shtirnoqdan foydalanilgan. Ushbu she`r orqali o`quvchilar ko`chirma gaplarni yozilish tartibini ham o`rganib olishlari mumkin.

Boshlang`ich sinf o`quvchilari o`zga gap haqida qay darajada tushunchaga ega ekanliklarini aniqlash maqsadida tajriba o`tkazildi. Bunga ko`ra o`quvchilarga o`zga gap deganda hayolingizda qanday gaplar namoyon bo`lmoqda, tushunchalaringizni daftarga yozing degan topshiriq berildi. Shunda bolalar turlicha fikrlashlari va o`zga gap haqida turli xil tushunchaga ega ekanligiga guvoh bo`lindi. Masalan, bir o`quvchi o`zga gap deganda, men qo`shnimning gaplarini tushunaman deb yozgan bo`lsa, ikkinchi o`quvchi o`zga gaplar bu qo`shni qishloqdagi odamlarning so`zlari deb yana bir o`quvchi o`zimdandan tashqari boshqa barcha insonlarning gaplari o`zga gaplar hisoblanadi deb yozib o`tganlar. Boshlang`ich sinf o`quvchilari ongida o`zga gap haqida to`liq to`g`ri tushunchalar shakllanmagan. Ularning ba`zilari o`zga gap haqida kichik yoshdagi bolalar bilmagan faqat katta yoshli insonlar tomonidan foydalaniladigan gaplar majmuini tushunadilar, ba`zilari esa o`zga gap bu boshqa qishloq yoki shaharda yashovchi insonlar so`zlashadigan til deb tasavvur qiladilar. Lekin ular nutqlarida doimiy ravishda o`zga gaplarning barcha turlaridan foydalib keladilar. Ular o`zga gap haqida to`g`ri tushunchalarga ega bo`lib, dialoglarda kengroq foydalansalar, nutq va lug`at boyliklari oshib, dunyoqarashlari yanada kengayadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ona tili va o`qish savodxonligi” 1-qism: 1-sinf uchun darslik/ I.Azimova va boshqalar.-Toshkent Respublika ta`lim markazi, 2021.
2. Lutfullayeva D.E. “Assotsativ tilshunoslik nazariyasi”/Monografiya/-T:MERIYUS,2017. 23-bet
3. Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o`rgatish darslari. T:O`qituvchi, 2012 y.
4. Qosimova K. va boshqalar. Boshlang`ich sinflarda ona tili o`qitish metodikasi fani dasturi. Toshkent, 1996.
5. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 349-353.

6. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO‘LLANILISHI. Студенческий вестник, (13-5), 70-72.
7. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE‘RIYATIDA “SHAXS” TUSHUNCHASI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 182-196.
8. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. Scientific progress, 3(4), 506-514.
9. Umarova, N. R. (2021). THE USE OF ARTISTIC ANTHROPNYMS IN THE POEMS OF ALISHER NAVOI. Theoretical & Applied Science, (5), 419-421.
10. Umarova, N. R. (2021). A linguistic approach to conceptual research. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 62-66.

TALABALARINING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

N. Kubeynova

Qoraqalpoq davlat universiteti

Mamlakatimiz ta'lim siyosatida oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini isloh qilish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmoqta. Tadqiqotimizning maqsadi nafaqat ko'rib chiqishdir, balki shakllantirishda o'qitishning guruh shaklining ma'nosi va rolini tushunish, kasbiy jarayonda talabalarining tanqidiy fikrlashini tarbiyalash, balki tanqidiy shakllantirish usullarini aniqlashda ham o'quv tashkilotining jamoaviy shaklida talabalarining fikrlash darajalariga e'tibor qaratishdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, inson aqliy faoliyatining mantig'i hayotning o'zi mantig'i ta'sirida o'rganadi.

Biroq, eng samarali maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayoni umumlashtirish, tajriba va ushbu masala bo'yicha adabiyotlarni o'rganish uchun asos bo'ladi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirishning asosiy usullarining ko'rsatkichlari talabalar jamoalarda ishlaganda rivojlanadi.

Muammoli ta'lim maqsadli talabalarining kognitiv mustaqilligini rivojlantirishga va ularning ijodiy qobiliyat, ijodiy fikrlashiga qaratilgan. "...agar ob'ekt haqida bizga biror narsa ma'lumligini bilsak, masalan, uning biron bir qismi hodisalar yoki uning ba'zi tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanish usullari, demak bizda allaqachon ma'lum bir muammoli bilim bor bo'ladi"

"Muammo bu sub'ektning hal qilishning iloji yo'qligini anglashida bu vaziyatda yuzaga kelgan qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklar bizning mavjud bilim va tajribamiz, degan ma'noni anglatadi - " [1;98]. M. I. Maxmutovning "Muammoli tushunchada kontseptsiyasida" psixologiyaning topilmalaridan foydalangan fikrlash va tasdiqlashning mahsuldor va reproduktiv turlari haqida ma'lumot beradi. Ma'lum bo'lishicha, muammoli ta'lim rivojlanishning eng muhim vositasi va talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ko'nikmalarni shakllantirish samarali kognitiv faoliyatdir.

O'quv jarayonida fikrlashning barcha turlarining o'zaro aloqasi amalga oshiriladi.

Talabalar quyidagi harakatlarni bajarganda erishiladi [3; 134]:

- "ongning tanqidiyligi", "o'z-o'zini tanqid qilish" kabi tushunchalarni o'rganish mentalitet, "tanqid" va bu tushunchalarni hayotda qo'llash;

- tanqidiy tahlil va siyosiy, iqtisodiy, mintaqa, mamlakat, xorijdagi va turli sohalardagi ijtimoiy vaziyatlar faoliyati;
- muammo va muammolarni hal qilishda xatolarni muhokama qilish, eng ko'p tanlash;
- muhokamani tashkil qilish orqali hal qilishning yanada oqilona usullari yani nizolar;
- o'zining va boshqalarning asarlariga sharh yozish;
- matnni tanqidiy tahlil qilishga asoslangan adabiy insholar;
- o'qilgan kitoblar, maqolalar, hikoyalar, ertaklar va hokazolarni muhokama qilish;
- bayonot yozish, ulardagi (birovning va boshqalarning) xatolarini izlash va keyin ularning muhokamasi;
- tanqid va o'z-o'zini tanqid qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilish;
- isbotlashga o'rgatish orqali ko'nikma va malakalarni shakllantirish tadqiqot, fanda ilgari surilgan farazlarni rad etish va dalil va rad etish tartibi bo'yicha maxsus tayyorgarlik;
- tarix, fizika, kimyo, biologiya va boshqalarga asoslangan buyumlar;
- sport masalalari, filmlar bo'yicha muhokamalar tashkil etish;
- teleko'rsatuvlar, matbuotdagi "shov-shuvli" maqolalar;
- tanqidiy ishlarni amalga oshirishda nizolarni texnik tahlil qilish, munozaralar, eksperimental jarayon va boshqalar.

Shunday qilib, talabalarning jamoada ishlash qobiliyati bunga bog'liq quyidagi ko'nikmalarni rivojlantirish:

- muammoli vaziyatlarning maxsus turlarini ishlab chiqish, yaratish talabalarda muammoga tanqidiy munosabatda bo'lish;
- psixologik va pedagogik vazifalar sinflarini taqqoslash, qayta uning yechimi tanqidiy tahlil va baholashni o'z ichiga oladi;
- talabalarga oldindan taxminlar bilan muammolarning alohida sinflarini taqdim etish ularni hal qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatolar haqida bilim;
- har biri uchun muammolarni hal qilish usullarini aniqlash va umumlashtirish;
- tanqidiy baholashning umumlashtirilgan usullarini qo'llash; yangi original, nostandart psixologik muammolarni hal qilish usullarini qo'llash.

Yuqorida aytilganlarning barchasi talabalar qila oladigan xulosaga olib keladi, lekin agar o'quv mashg'ulotlari maqsadli bo'lsa, bu muammoni hal qilish uchun tanqidiy fikrlashga o'rgating. Talabalar to'liq o'zlashtira olishlari uchun va ongli ravishda aqliy qobiliyatingizni yaxshilashga e'tibor qarating qobiliyatlar va olingan ko'nikmalarni qo'llash doirasini kengaytirish, tanqidiy

fikrlashni o'rgatish hayotning turli sohalaridan bir qancha misollar, o'z ichiga olishi kerak.

O'qiyotgan talabalar jamoalarda tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Sizning oldingizda savollar va tizimli ravishda javob izlang. Shu bilan birga, ular nafaqat faktlardan qoniqishadi, balki bu faktlarning sabablari va oqibatlarini ochib berishadi. Jamoa a'zolari rahbardan shubhalanishadi, haqiqatlarni qabul qiladi va doimo o'zlariga savol berishadi: "Agar ...?"

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda mavjud tanqidiy fikrlashni shakllantirish bosqichlari [5;147]:

1) birinchi va eng muhim bosqich - o'qituvchini tayyorlash va talabalarni qobiliyatli va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish ta'limi;

2) bunday rivojlanish zaruriyati motivlarini shakllantirish sifat;

3) talabalarning maxsus mantiqiy tizimni egallashi operatsiyalar va harakatlar;

4) talabalarni ushbu operatsiyalar bo'yicha bilimlarini qo'llashga o'rgatish (ya'ni ko'nikmalar) ta'lim faoliyati va tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda;

5) tizimli o'qitish, faoliyatni so'zlash, aks ettirish tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun individual mashqlar to'plamini fikrlash.

Jamoa a'zolari shakllanishning uchta asosiy bosqichidan o'tadi: qiyinchilik, tushunish va mulohaza yuritish bosqichlari [2;67]. Biroq, bizning fikrimizcha, to'rtinchi bosqich ham zarur – umumlashtirish tinglash va baholash. Barcha bosqichlar o'zaro bog'liqli.

Kritik shakllanishining sanab o'tilgan bosqichlariga ko'ra talabalarning fikrlashiga qarab, biz taxminiy fikrni ishlab chiqishga harakat qildik, shakllantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish rejasi tashkilotning jamoaviy shaklida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ta'limni tartibga solishga erishdik.

Jamoadada ishlash, talabalar o'zlarining taqiqlarini engib o'tishadi va asta-sekin o'z fikrini bildirishni o'rganing, bu hatto ba'zilariga psixoterapevtik ta'sir ko'rsatadi.

Y. Skalkova kombinatsiyani ta'kidlaydi, talabalarning guruhda to'g'ri ishlashi, to'g'ri pedagogik etakchilik, ijtimoiy qimmatli shakllanishiga hissa qo'shishi mumkin talabalarning shaxsiy xususiyatlari, ular o'rtasidagi axloqiy munosabatlar, jamoaviy xulq-atvor ko'nikmalari [3; 76].

Maqsadlar: oliy ta'lim muassasalari talabalarning jamoalardagi mashg'ulotlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadlari:

- talabalarning mantiqiy, muammoli, ijodiy fikrlashga ega bo'lishi;

- talabalarga asosiy mantiqiy tushunchalarni o'rgatish: refleksiya - inkor - tanqid - tanqidiylik - o'z-o'zini tanqid qilish – bahs munozaraga kirishish - isbotlash - rad etish - baholash - o'zini o'zi qadrlash - qiymatni baholash;

- talabalarda tanqidiy xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish tanqidiy fikrlash tarzidagi, bag'rikenglik xarakteridagi fikrlar;

- talabalarni tanqidiy mantiqiy xatolarni aniqlashga o'rgatish, hodisalarni baholash.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik shartlari:

- jamoa a'zolarining yoshi va individual xususiyatlari, talabalarning to'plangan tajribasini hisobga olgan holda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish shartlarini belgilash;

- talabalarning jamoada tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash;

- jamoa a'zolarini mantiqiy tuzilma bilan tanishtirish va turli fanlarga tanqidiy munosabat bildirishni shakllantirish;

- talaba yangi o'quv materialini taqdim etishda, o'qitishda tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanish;

- jamoa a'zolari tomonidan o'quv topshiriqlarini bajarish;

- talabalar o'rtasida umumlashtirilgan usul va uslublarni shakllantirish;

- guruh muammolarini hal qilishda bayonotlarni tanqidiy tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyati

KURS MAZMUNI

1. Talabalarning tanqidiy fikrlashining rivojlanishi uchun yangi o'quv mavzusida talab qilinadigan materialni kiritish;

2. Tanqidning har xil turlarini ta'lim axborotiga jamoa a'zolariga taqdim etilgan materiallarni kiritishni shakllantirish;

3. Guruh topshiriqlarini, tanqidiy talab qiladigan vazifalarni tayyorlash turli fanlar bo'yicha mavzularni o'rganish jarayonida fikrlash;

4. O'quv materiallarini tematik taqsimlash, muvofiq tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun mo'ljallangan jamoa a'zolarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish vazifalari.

5. Talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash.

Trening shakllari

1. Guruh qarorlarini qabul qilishda tanqidiy fikrlashdan foydalanish jamoa a'zolarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda vazifalarni loyihalash;

2. Muammoli-kognitiv tizimlarni yechishda guruhda ishlash talabalar uchun tanqidiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun vaziyatlarni taxlil qilish;

3. Rollarning taqsimlanishini hisobga olgan holda talabalarning guruh ishi yaratishga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun jamoada tanqidiy fikrlash.

O'qitish usullari

1. Tayyorlikni aniqlash uchun reyting tizimidan foydalanish talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish qobiliyatini va shakllantirish va talabalarning bilim darajasiga mos ravishda pedagogik texnologiya tanlash.

2. Talabalarni tanqidiy fikrlashga undash o'quv mashg'ulotlarining mazmuni va ularda tanqidiy munosabatni shakllantirish bayonotlar va harakatlarga munosabat.

Pedagogik texnologiya tarkibidagi darajalarni belgilash tanqidiy fikrlashni shakllantirish "past", "o'rtacha", "yuqori".

4. Muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish: metod muammoli taqdimot, evristik usul ("ziddiyat bilan" usuli, keraksiz ma'lumotlarni chiqarib tashlash va ishonchlilikni baholash axborot manbai), tadqiqot usuli, dialog, talabalarni mustaqil ishlashga undash usullari mantiqiy vazifalarni tanqidiy fikrlash texnikasi bilan o'rganish, ya'ni...

Qaerda savol tug'ilsa: "Agar ...", "Nima ...?"

Mantiqiy usuldan foydalanish (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish).

6. Refleksiv-muammoli va tanqidiy metoddan foydalanish tanqidiy tafakkuri, induktiv va deduktiv fikrlash.

Talabalar faoliyati

Darsning mazmuni

1. Formal va dialektik mantiq haqidagi bilimlarni egallash;

2. Bir qator vazifalarni bajarish, ularning bajarilishi muammoli-tanqidiy fikrlash, mantiqiy usullar va tanqidiy usullardan foydalanish talabalarning ta'lim va bilimdagi bayonotlarini tahlil qilish va baholash tadbirlar.

4. Talabalarning mantiqiy xatolarini topishi va ularni tuzatishi. Bu xatolarni o'zingiz hal qiling...

Ta'lim shakllari

1. O'quv mashg'ulotlari davomida guruh ishlarini olib borish, matn va topshiriqlarni tahlil qilishga asoslangan muhim talab qiladigan vazifalar va ularni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

2. Bajarishga qaratilgan guruh ishlarini olib borish mantiqiy-kognitiv vazifalar.

3. Bog'liq mantiqiy-kognitiv, tanqidiy tahlil bilan, o'quv mashg'ulotlarida vazifalarni rolli o'ynash.

O'qitish usullari

1. O'quv ma'lumotlari va materiallariga tayyorlik darajasini mustaqil aniqlash.

2. Talabalar tomonidan mantiqiy topshiriqlarni yechish va bajarish (isbot va rad etish, aniqlash va umumlashtirish tartibi muammolarni hal qilish usullari va boshqalar).

3. Talabalar ijodiy ishlarni bajaradi.

4. Tanqidiy fikrlash bilan bog'luq texnikalarni uzatish mashqlarni bajarish yangi vaziyatda analitik tahlil va amaliy ko'nikmalar tanqidiy fikrlash (boshqa talabaning ishiga sharh yozish), har qanday ish uchun, yozma ishingizda xatolar va boshqalar topish va sozlash).

Tanqidiy fikrlash madaniyati

- nutq madaniyatini egallash;
- bahs va munozara madaniyatini egallash;
- muloqot jarayoniga psixologik jihatdan to'g'ri kirishish qobiliyati;
- jamoa a'zolari tomonidan ilgari surilgan barcha g'oyalarni qabul qilish va ko'rib chiqish;

- o'z fikrini erkin ifodalash;

- o'zini ifodalash har bir jamoa a'zosining fikri, chunki bu o'z fikrlarini bildirishga yordam beradi;

- o'z nuqtai nazari uchun javobgarlik;

- suhbatni olib borish va pauza qilish qobiliyati;

- fikrni ifodalash qoidalariga rioya qilish;

- turli masalalar bo'yicha konsensusga erishish;

- munozaralar va munozaralarda haqiqatni aniqlash;

- raqiblarga e'tiroz bildirish;

- suhbatdoshni tinglash va eshitish qobiliyati;

- yaxshi niyat;

- konstruktiv tanqid;

- sabr;

- o'zaro tushunish.

Xulosa sifatida shuni aytish joiz, oliy ta'lim muassasalarida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetentlikni rivojlantirish jarayonida muloqot madaniyatini, nutq texnikasini, barcha etiket qoidalariga rioya qilishga tarbiyalash asosiy maqsadimiz bo'lishi lozim. Buyuk mutafakkirlarimiz Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sinolar ta'kidlaganidek, "bolaning mustaqil tanqidiy fikrlashi jarayonida o'zlashtirilgan bilimlari biror-bir manbadan tayor holda olingan bilimlar bilan qiyoslanganda katta afzallikka ega. To'liqroq va tezroq rivojlangan bu bilimlar o'quvchilar e'tiqodiga, ular tafakkuri hamda faol amaliy-tanqidiy fikrlashi quroliga aylanadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. АРАБОВА М., БЕРДИЕВА Ф. “ТАНҚИДИЙ ФИКРЛАШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ” jurnali ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / 2014, 7 54- bet
2. Рубинштейн С.Л. О природе мышления и его составе: психология мышления / С.Л. Рубинштейн. – М.: Педагогика, 1991. – 80 с.
3. Педагогика: педагогические теории, системы, технологии: учеб. для студентов высш. и сред. пед. учеб. заведений / С.А. Смирнов [др.]; под ред. С. А. Смирнова. – 5-е изд., стер. – М.: Академия, 2004. – 512 с.
4. Солсо Р. Когнитивная психология / Р. Солсо. – СПб.: Питер, 2006. – 589 с.
5. Халперн Д. Психология критического мышления / Д. Халперн. – СПб.: Питер, 2000. – 240 с.
6. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: «Ўқитувчи», 1996.

ONA TILIDA TINISH BELGILARI

Oriental Universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Choriyeva Salima

Anotatsiya: *Har qanday tilda tinish belgilari hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u ma'noni yetkazishga, jumlarlar tuzilishini aniqlashtirishga va umumiy o'qishni yaxshilashga yordam beradi. Birinchi navbatda tinish belgilari yozma matnlarning ravshanligi va uyg'unligini oshirish uchun qo'llaniladi. Ushbu maqolada ona tilida qo'llaniladigan asosiy tinish belgilari va ularning vazifalari bilan tanishamiz.*

Аннотация: *Пунктуация играет решающую роль в любом языке, поскольку помогает передать смысл, прояснить структуру предложения и улучшить общее качество чтения. Прежде всего, знаки препинания используются для повышения ясности и связности написанного текста. В этой статье мы познакомимся с основными знаками препинания, используемыми в родном языке, и их функциями.*

Annotation: *Punctuation plays a crucial role in any language because it helps convey meaning, clarify sentence structure, and improve overall reading. First of all, punctuation marks are used to increase the clarity and coherence of written texts. In this article, we will get acquainted with the main punctuation marks used in the native language and their functions.*

Kalit so'zlar: *tinish belgilari, punktuatsiya, yozma nutq, chegaralovchi tinish belgilari, ajratuvchi tinishi belgilari, bir va ko'p elementli tinish belgilar.*

Ключевые слова: *знаки препинания, пунктуация, письменная речь, разграничительные знаки препинания, разграничительные знаки препинания, одноэлементные и многоэлементные знаки препинания.*

Keywords: *punctuation marks, punctuation, written speech, delimiting punctuation marks, delimiting punctuation marks, single and multi-element punctuation marks*

KIRISH

Tinish belgilari muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vosita hisoblalandi. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga: harflar va tinish belgilariga oid bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan ya'ni

raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar, bosmaxona belgilaridan ma'lum jihatlari bilan farq qiladi.

Tinish belgilarining yozuvda qo'llanishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim — Tinish belgilari miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yig'indisi — punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari hamda til birliklari bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi.

ASOSIY QISM

Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmuniy bo'linishini ko'rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir. Tinish belgilari jumla tarkibidagi so'zlarning semantik va grammatik munosabatlarini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, fikmi ta'kidlab, ajratib ko'rsatishga yordam beradi.

Hozirgi o'zbek tili tinish belgilarining vujudga kelishi, rivojlanishi va tadqiq etilishi Fitrat, S. Ibrohimov, H. G'oziyev, O. Usmonov, G'. kabi atoqli tilshunos olimlarning xizmatlari bilan chambarchas bog'liq. Abdurahmonov, K. Nazarovlar. H. G'oziyev "O'zbek tinish belgilarining tarixiy rivojlanishi" (1969, 1979) asarlarida G'. Abdurahmonov "Tinish belgilarini o'rgatish metodikasi" (1968), Q. Nazarov "Tinish belgilari" (1974) va "O'zbek tili tinish belgilari" (1976) kabi nashrlarida tinish belgilari va yozma nutqqa o'tgan yillar davomida keng to'xtalib o'tgan.

Puntuatsiya - tinish belgilari tizimi va ulardan foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan va qat'iy belgilangan qoidalar majmuasi. Bu termin ikki ma'noda: tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qonun-qoidalar majmuyiga va tinish belgilarining o'ziga nisbatan ishlatiladi. Bugungi kunda tinish belgilari fonografemalar tarkibidagi muhim belgilar tizimi (prosodemografema) bo'lib, yozma nutqning semantik, intonatsion va grammatik bo'linishining asosi sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, punktuatsiya va punktuatsion sistema tillararo har xildir. Puntuatsiya ayrim xalqlar yozuvida oldinroq ayrimlarida esa nisbatan keyinroq paydo bo'lgan. Masalan, ingliz tili punktuatsion sistemasida o'n ikkita tinish belgi bor. Ularda apostrof va defislar ham tinish belgi sanaladi.

Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq. Ularning aksariyati XIX asrning 2-yarmida toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo'lgan.

TADQIQIT NATIJALARI VA UNING MUHOKAMASI

Tinish belgilari o'z vazifasiga ko'ra, 2 ga bo'linadi:

a) chegaralovchi tinish belgilari — muayyan sintaktik tuzilmaning yoki umuman gapning chegarasini bildirish, biron- bir gap bo'lagini intonatsion mazmuniy jihatdan ajratib ko'rsatish, nutq qaratilgan shaxs yoki predmet nomi qamrab olingan, shuningdek, yozuvchi yoki so'zlovchining subyektiv munosabati ifodalangan sintaktik tuzilma chegarasini ko'rsatish uchun xizmat qiluvchi tinish belgilari: qavs, qo'shtirnoq, yagona qo'shaloq belgi sifatida qo'llanuvchi vergul, ayni shu vazifadagi tire;

b) ajratuvchi tinish belgilari — mustaqil gaplarni, ularning qismlarini, gapning uyushgan bo'laklarini, birgalik ergashishli qo'shma gaplarni, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini, nutqning bo'linganligini ko'rsatuvchi tinish belgilari: nuqta, so'roq va undov belgilari, vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, ko'p nuqta.

Ba'zi tinish belgilari ham chegaralash, ham ajratish vazifalarini namoyon eta oladi. Tinish belgilari tuzilish jihatdan ham ikkiga bo'linadi:

a) bir elementli tinish belgilari — vergul, tire, nuqta;

b) ko'p elementli tinish belgilari bu guruh, o'z navbatida, 2 elementli (so'roq (?) va undov belgilari (!), ikki nuqta (:), nuqtali vergul (;), qavs()), 3 elementli ko'p nuqta (...) va 4 elementli qo'shtirnoq ("") tinish belgilariga ajraladi.

Qo'llanish o'rniga ko'ra, tinish belgilari 3 guruhga bo'linadi:

1-GURUH gap oxirida qo'llanadigan tinish belgilari (nuqta, so'roq va undov belgilari),

2-GURUH gap o'rtasida qo'llanadigan tinish belgilari (vergul)

3-GURUH aralash, ya'ni gapning turli o'rinlarida qo'llaniladigan tinish belgilari (tire, ikki nuqta, qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta).

Tinish belgilarining qo'llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy grammatik, uslubiy va farqlash prinsiplari asosida belgilanadi.

Hozirgi o'zbek yozuvida tinish belgilari soni 10 ta: nuqta, so'roq belgisi undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko'p nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq.

Tinish belgilarining qo'llanilishi quyidagicha:

1. Fikr tugullangan bo'lsa, uning mazmuniga ko'ra nuqta, so'roq, undov belgilari va uch nuqta qo'yiladi. Bularning ko'pi bilan uchtasi bitta gapning so'ngida kelishi mumkin, lekin undan ko'pi birga kelmaydi. Ko'proq so'roq va undov belgisi birga kelishi mumkin:

Nahotki sen kitob o'qimaysan?!

Yoki so‘roq va uchta nuqta bitta gapning so‘ngida kelishi mumkin. Bunda so‘roq va ikkita nuqta qo‘yiladi. So‘roqdagi bitta nuqta hisobidan uchta nuqta to‘liq bo‘ladi:

Endi ustoz kelmaydilar mi?..

2. Tugallanmagan yoki izoh talab qiladigan fikrlardan keyin uch nuqta qo‘yiladi. Masalan, Ko‘klam quyoshidan ko‘kargan qirlar, ko‘m-ko‘k...

Agar bunday gap so‘roq gap bo‘lsa, yuqorida aytganimizdek, so‘roq belgisi va ikki nuqta, his-hayajon gap bo‘lsa undov belgisi va ikki nuqta qo‘yiladi.

Masalan: Men yetim o‘sganman, oh, u yetimlik!..

Turli his-hayajon ifodalangan gaplarda tinish belgilar:

1. Gapda so‘roq va his-hayajon ma‘nosi bo‘lsa, so‘roq va undov belgisi qo‘yiladi: Gapirsangiz-chi, nima bo‘ldi?!

2. His-hayajon va so‘roq ma‘nosi bo‘lsa undov va so‘roq belgisi qo‘yiladi: Eh qanday so‘lim joylar-a?!

3. Kuchli his-hayajon bo‘lsa undov belgisi ikki marta qo‘yiladi: Bu qanday bedodlik, bu qanday zulm!!

Tadqiqotlarga tayangan holda aytish mumkinki, dastlab qo‘llangan punktuatsion belgilar so‘zlarni va jummalarni bir-biridan ajratish, og‘zaki nutq bilan bog‘liq bo‘lgan turli aksentema va melodikalarni ifodalash uchun qo‘llangan. Ular bugungi kunda tinish belgilari yordamida yuzaga keladigan semantik va grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qilmagan. Tinish belgilari jumla tarkibidagi so‘zlarning semantik va grammatik munosabatlarini yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, fikmi ta'kidlab, ajratib ko‘rsatishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilida tinish belgilari yozma nutqda ravshanlik va izchillikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu tinish belgilarini to‘g‘ri tushunish va ulardan to‘g‘ri foydalanish o‘zbek tilidagi yozma matnlarning ta‘sirchanligini sezilarli darajada oshirib, so‘zlovchilarga o‘z fikrlarini aniq va samarali ifoda etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov G'. Punktuatsiyani o'rgatish metodnkasi, -Toshkent, «O'qituvchi» nashriyoti, 1968, -B.6-7.
2. Berdiyurov H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1984-yil
3. Nazarov K., Egamberdiyev B. O'zbek tili imlo-ishora qoidalari. – Toshkent: «O'qituvchi», 1996-yil
5. O'zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. Tuzuvchilar: N.M.Mahmudov, A.P.Madvaliyev, N.Mahkamov. - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2015-yil

DURADGORLIKNING XALQ TURMUSHIDAGI ROLI VA VAZIFASI, YOG'UCH TURLARI VA XOSSALARI

Sadriddinov Behruzjon Sabridin o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ishlab chiqarishda shuningdek duradgorlikda sohasida yog'ochning keng ko'lamda ishlatilishiga sabab uning texnik xossalarning yuqoriligidir. Ushbu maqolada duradgorlikning xalq turmushidagi roli va vazifasi hamda, duradgorlikda ishlatiladigan yog'och turlari va xossalari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *duradgorlik, yog'och, mexanik xususiyatlar, texnik xususiyatlar, namlik, issiqlik, chidamlilik, nuqsonlar.*


Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish, mustaqil ijodiy tafakkurini o'stirish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan keng va samarali foydalanishnigina emas, balki, mazkur jarayonni rejalashtiruvchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchining kasbiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasiga chuqurroq yondashuvni talab etadi. Shu sababli mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Duradgorlik tarixida Xitoy yog'och pardoqlash (sayqal, jilo berish, bo'yash, loklash) san'ati, Yevropa kemasozligi, O'zbek o'ymakorligi va boshqalar mashhur. O'zbekiston hududida qadimda qurilgan masjid va madrasalarning eshiklari o'ymakor naqshlar bilan bezatilgan. Samarqand, Buxoro, Ko'hna Urganch, Xiva, Panjikent va b. shaharlardagi IX-XII asrlarga oid ko'hna yodgorliklarda ishlatilgan yog'och materiallardan Duradgorlik me'morlikning ajralmas qismi bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu davrga oid o'ymakorlik va asbobsozlik buyumlari turli-tuman gul va islmiy naqshlar, Qur'on oyatlari va she'riy misralar bilan bezatilgan XIV-XV asrlarga oid me'moriy yodgorliklarida (ayniqsa Amir Temur davrida qurilgan bino va inshootlarda) duradgorlik tarmoqlarining yanada mukammallashgani ko'rinadi. Duradgorlik uslublarida yogochlarni yo'nish, ularga ishlov berishda, muayyan kompozitsiya asosida ularni birlashtirishda, detallarning aniq, ixcham va silliqligida davr ruhi aks etdi.

Duradgorlik hunarmandchilikning eng qadimgi turlaridan. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson uchun zarur har xil buyumlar tayyorlash, duradgorlik ustalari yetishib chiqishini taqozo etgan. Ibtidoiy jamiyatda


oychilik, balıq ovlash, o‘simlik ildizlarini kavlab olish kabi jarayonlarda tosh asboblari qatori duradgorlikning ibtidoiy buyumlari ham qo‘llanilgan. Tosh davriga oid topilmalar orasida tosh qurollarning yog‘och soplari, yog‘och qurollar tayoq, yoy, nayza kabilari ham uchraydi. Temir va jez davri yodgorliklari duradgorlik kasbinining ancha murakkablashganini, duradgorlik buyumlarining xili ko‘payganini ko‘rsatadi.

Yog‘ochning pishiqligi, qattiqligi va boshqa mexanik xossalari, metallardagi singari, turli yo‘nalishda turlichadir. Nam ta‘sirida yogochning mexanik xossalari keskin o‘zgaradi. Yog‘och oson alanganadi, chirishga, hasharotlarning kemirishiga qarshilik ko‘rsata olmaydi, bu esa uning sifatini pasaytirishga olib keladi. Hozirgi vaqtda yog‘ochni qayta ishlash sanoati korxonalarida mexanik xususiyatlari yanada yuqori bo‘lgan yangi tur yog‘och materiallari ishlab chiqarilmoqda va xalq xo‘jaligining turli sohalarida keng ishlatilmoqda.



1-rasm. Daraxt tanasining asosiy qirqimlari.


Yog‘och deb, daraxtning tanasi, butoqlari, novdalari va ildizlarining asosiy qismidan olinuvchi materialga aytiladi. Yog‘och, asosan, organik moddalardan tashkil topgan bo‘lib, turli yog‘och navlarining kimyoviy tarkibi deyarli bir xil bo‘ladi. Quruq yog‘ochning o‘rtacha 49 foizi - uglerod, 44 foizi - kislorod, 6 foizi - vodorod, 0,1- 0,3 foizi azotdan iborat. Yog‘och yondirilganda undan asosan kul qoladi.



1-rasm. Yog‘ochni kompleks qayta ishlash

Kulning tarkibiga kalsiy, kaliy, natriy, magniy va boshqa kimyoviy elementlar kiradi. Ushbu elementlar selluloza kabi kimyoviy birikmalarni hosil

qiladi. Bundan tashqari, yog'och tarkibida ozroq miqdorda smola, pektin, yog'lar va boshqa moddalar bo'lishi mumkin.



2-rasm. Yog'och tuzilishining texnologik nuqsonlari

Yog'ochga qurilish material sifatida qaraladi. Uning eng asosiy xususiyatlari metall mixlarni tutib turish, yeyilish, egilish va yorilishga chidamlilik darajasi hisoblanadi.



3-rasm. Yog'och chiqindilari turlari: *a* – qipiqlar; *b* – qirindilar; *d* – payrahalar; *e* – yog'och-taxta materiallari va arralangan materiallar parchalari

Yog'ochlar qattqlik darajasiga qarab uch guruhga bo'linadi

1-guruh: yumshoq yog'ochlar - qarag'ay, oq qarag'ay, archa, terak, tog'terak, arg'uvon va h.k.

2-guruh: qattiq yog'ochlar - qayin, qora qayin, tilog'och, eman, zarang, gujum va h.k.

3-guruh: juda qattiq yog'ochlar - nok, qayrag'och, yong'oq, akatsiya, shamshod, pista va h.k.

Yog'ochning tashqi kuch ta'sirida o'zgargan shaklini qayta tiklash qobiliyatiga yog'ochning elastikligi deyiladi. Yog'ochning elastikligi ularning namligiga, hajmiy og'irligiga, o'zak xalqalarining o'lchami va soniga, daraxtning yoshiga bog'liq. Yog'och qancha quruq bo'lsa, u shuncha elastik bo'ladi. Elastik yog'ochlar zarbni yutadi va yumshatadi. Yog'ochning bu xususiyatidan foydalanib, undan mashina bolg'alarining sandoni, tagiga qo'yiladigan taglik qistirmalar, nog'oralarning zarb berish cho'pi, bolg'a, iskana, egov, belkurak, ketmon, tesha dastalari tayyorlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Q.Qosimov. Mehnat ta'limi "Yog'och va unga ishlov berish texnologiyasi" asoslari bo'yicha plakatlar to'plami O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi. Toshkent 2006 – yil.

2. ugli Murtazoyev A. S., Mehmonova N. K. DEVELOPING A METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR INTEGRATED TECHNOLOGIES TO MONITOR STUDENTS'KNOWLEDGE //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 10. – C. 18-24.

3. Sunatula o'g'li M. A. INTEGRATIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH BO 'YICHA AXBOROT-METODIK TA'MINOTNI TAKOMILLASHTIRISH //PEDAGOGS. – 2024. – T. 55. – №. 1. – C. 190-194.

4. Yuldoshev, S., Savriev, S., Murtazoyev, A., & Khojiev, S. (2022). NUMERICAL SIMULATION OF THREE-DIMENSIONAL TURBULENT JETS OF REACTING GASES. *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 2(6), 73-82.

5. Xayrulla, D., Saidjon, U., & Azamat, M. (2021). DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR "SMART CLASS". *Universum: технические науки*, (5-6 (86)), 18-21.

6. Djurayev, X., Uvayzov, S., & Murtazoyev, A. (2021). DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR "SMART CLASS". *Universum: технические науки*, (5-6), 18-21.

7. Муртазоев, А. С. (2022, June). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 54-58).

8. Sunnatula o'gli, M. A. (2022). TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI. *World scientific research journal*, 4(2), 28-33.

9. Murtazoyev, A., & Sabina, S. R. (2023). PROSPECTS FOR USING NO-CODE PLATFORMS IN EDUCATION. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(6), 13-17.

**“ROBOTOTEXNIKA ASOSLARI” BO‘LIMI MAVZULARINI O‘QITISHDA
MEDIATA‘LIM VOSITALARI VA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Qiyomova Dilnoza Islomboy qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta‘lim” yo‘nalishi talabasi

Matyoqub Qo'shjonovning olim sifatidagi eng muhim fazilatlaridan yana biri shuki, u o'zi aytgan fikrlar ilmiy jihatdan to'g'ri va o'zgarmas bo'lishiga intiladi. Sobit fikrli va samimiy tanqidchi sifatida voqelikni badiiy aks ettirish va qahramon obrazini yaratish o'ziga xos tamoyillariga o'z nuqtai-nazaridan yondoshib salmoqli, dalilli fikrlar aytadi, muammolarga yechim axtaradi. Xususan, tanqidchi Oybekning "Qutlug' qon" romanini tahlilga tortar ekan, shunday deydi: "Asardagi xarakterlar tasvirida avtorni asosan, ikki masala qiziqtiradi: birinchisi – asosiy obekt sifatidagi masala bo'lib qahramonning xarakterida yuz bergan o'zgarishlar; ikkinchisi – oqibat-natijada qahramonlar xarakterlaridagi o'zgarishlarni vujudga keltiradigan qarama-qarshi kuchlar kurashidir. Bularning badiiy sintezi Yo'lchi obrazida beriladi³⁵"

Adabiyotshunoslik o'ziga xos, adabiy tanqidchilikdan keskin farq qiluvchi tomonlari bor, albatta! Shu jumladan, adabiyotshunoslik tarixiy fan sifatida topilmalar qiladi, badiiy matn ustida ishlaydi, bir-biriga taqqoslaydi, xulosalar chiqaradi, hujjat va faktlarni klassifikatsiya qiladi, yozuvchining hayoti va ijodiy yo'liga xos bo'lgan ijod yo'lini alohida olingan holda va yoki tarixiy adabiy jarayon kontekstida o'rganib chiqadi, yo'qolib yoki butunlay yo'q bo'lib ketgan ijod sahifalarini tiklash yo'lida sobitqadamlik bilan ilmiy-qidiruv ishlari olib boradi. Adabiyotshunoslik adabiy janrlar, adabiy oqimlar, yo'nalishlar, matndagi o'ziga xosliklar, uslubiy xilma-xilliklar haqida ham bahs yuritib,

³⁵ Matyoqub Qo'shjonov. "Hayot va qahramon". Adabiy maqolalar. "Adabiyot va san'at" nashriyoti. T.:1979

ilmiy-qidiruv ishlari olib boradi va hokazo. Jahon adabiyotshunosligi tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, adabiy tanqid adabiyotshunoslikdan oldin paydo bo'lganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Adabiy tanqid kitobxon g'oyaviy-estetik ehtiyoji talabi asosida uning davomi sifatida maydonga keldi. Masalan, haqiqiy tom ma'nodagi adabiyotshunoslik haqidagi fan Yevropada XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshlaganligi ma'lum. Ungacha adabiy tanqid, kitobxonning badiiy asar haqidagi fikr-mulohazalari, ya'ni o'ziga xos tanqidiy qarashlari asrlardan-asrlarga o'tib rivojlanib kelgan. Kitobxon ziyolilar o'zi o'qib chiqqan asarlar haqida doimo fikrlar bildirganlar, bahslar uyushtirganlar, bir-biriga maktublar yozib, ularda badiiy asarlar haqida adabiy-tanqidiy qarashlarini bayon etganlar. Bularning hammasi asta-sekinlik bilan adabiy-tanqid fanining paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Shuning uchun ham adabiy tanqidiy maqolalar matbuot va gazetalarda jamiyat va yoki biron bir guruh manfaatlarini o'zida ifoda etuvchi ilm va san'atning birikmasi sifatida paydo bo'la boshlagan. Ana shu nuqtai-nazaridan qaraganda adabiy tanqid xalqni tarbiyalashi, unga saboq berishi, estetik va axloqiy didini o'stirishi lozimligi jihatidan sof adabiyotshunoslikdan keskin farq qiladi. Adabiy tanqidning davr ruhi bilan, ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan qattiq bog'lanishi boisi ham ana shunda. Shuning uchun ham adabiy tanqid nafaqat hozirgi davr badiiy adabiyoti, balki adabiy asarni ham tahlil qilib, ulardan bugungi kun uchun muhim bo'lgan xulosalar chiqaradi.

Matyoqub Qo'shjonov ijodida she'riyat, nasr va adabiy tanqid muammolari doimo birdek o'z ifodasini topib kelgan. Jumladan, "Go'zallik sehri" nomli adabiy-tanqidiy maqolasi uch bo'limdan iborat, unda shakl, mazmun va uslub adabiy tanqid muammolari bog'lanishida yoritiladi. Munaqqid, ayniqsa, 70-yillar adabiy muhiti haqida fikr yuritir ekan, XX asrdagi adabiyotimiz tarixida hech qachon bugungidek ko'p yosh ijodkorlar adabiyot maydoniga porillab, zich saflar bilan kirib kelmaganligini alohida ta'kidlab, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Muhammad Rahmon kabi qator iste'dodli yosh shoirlar ijodini chuqur tahlil qiladi, ular ijodiga munaqqid tomonidan katta umid bildiriladi. Munaqqid adabiy-tanqidiy uslubiga xos bo'lgan muhim tomonlaridan yana biri shundaki, munaqqid aksariyat hollarda o'zi fikr yuritayotgan she'r, poema yoki nasr matnini o'quvchi ko'z o'ngida yana bir bor tiklaydi, shu yo'sinda asarning, qolaversa, muallif ijodining mahorat sirlari haqida bahs yuritib, o'zining nuqtai-nazari va g'oyaviy-estetik qarashlarini kitobxon hukmiga havola etadi. Munaqqid asarning tahlili jarayonida, uning eng hayojonli nuqtalarini topa biladi, ulardan ehtirosli ma'nolarni topib, kashfiyot qiladi. Bu jihatdan uning E.Vohidov ijodi haqidagi kuzatishlari diqqatga sazovor.

Maqolada olim adabiyotdagi go'zallik, badiiy, ma'naviyatni yangicha bir emotsional tuyg'ular og'ushida idrok etishi, estetik olamni nihoyatda barkamol tushunishi va o'quvchilarga yuksak mahorat bilan tushuntirib bera olishi bilan ham yuqori baholanadi, muayyan estetik qiymat ham kasb etadi.

Voqea-hodisani idrok etish va tuyish miqyosi odamzod xarakteri qadar turfalanadi. Ayni paytda, "haqqoniylik, badiiylik va obrazlilik yaxlit bir butunlikni tashkil etgan taqdirda ijodiy muvaffaqiyat qo'lga kiritiladi"¹. Unda real tasavvur (hayot haqiqati) hamda badiiy mohiyat (tasvir darajasi) tadriji, aksiologik (qadriyat sifatida anglangan uzv) hamda morfologik (tizim-intizom) qirralari uyg'unligi, ijodiy talqin hamda badiiy mantiq muvofiqligi, formal ibtido hamda vazifaviy yaxlitlik ko'zga tashlanadi. Zotan, obyektiv sajiya subyektiv tadriji poetik tafakkur qatida uslubiy individual hodisaga aylanadi. Ta'kidlash joiz, har bir davr adabiy-estetik muhokamasi borliq va inson munosabatlari haqidagi tasavvurlarni yangilaydi, jamiyat taraqqiyoti darajasini uyushtiradi. Zero, badiiy tizim mohiyati birinchi navbatda ong va tuyg'u chorrahasida kesishadi. Negaki, odamzod tiynatiga yig'ilgan ijodkor munosabatida davr ruhiyati hamda jamiyat a'moli shaxs muammosiga evriladi. So'z san'ati tadriji va o'ziga xosligi hayotiy-maishiy ziddiyatlar poetik teranligini nazariy umumlashtirish yordamida voqe' bo'ladi. Uning mag'zi esa badiiy munosabatlarning ruhiy mundarijasidan iborat. Zotan, mushohada teranligi, tasavvur tiniqligi hamda tasvir ravonligining markazlashuvi aynan badiiy yaxlitlik tushunchasida yana qabarib ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, Matyoqub Qo'shjonovning adabiyot va san'atga qo'shgan hissasi uning adabiyotshunoslikdagi yondashuvlari orqali yaqqol ko'rinadi. Olim o'z izlanishlarida adabiy tanqid va adabiyotshunoslikning o'zaro bog'liqligini, badiiy asarlarni chuqur tahlil qilishdagi yondashuvining obrazli va emotsional jihatdan boy ekanligini namoyish etadi. Uning asarlari va adabiyotshunoslikdagi yondashuvlari, o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi va kelajak avlodlar uchun ilmiy va badiiy meros sifatida o'z qiymatini hech qachon yo'qotmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Matyoqub Qo'shjonov. "Hayot va qahramon". Adabiy maqolalar. "Adabiyot va san'at" nashriyoti. T.:1979
2. Xudoyberganov N. Ishonch. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1988.
3. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.
4. Yo'ldoshev B. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2023.

¹ Xudoyberganov N. Ishonch. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1988. – B.5.

5. Rasulov A. Badiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
6. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1970.
7. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1978.
8. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1979.

ВЕЛИКИЕ ФИГУРЫ ДВУХ НАРОДОВ**Пардаева Ирода Мамаюнусовна***Доцент SamDChTI, (PhD)*

Аннотация: В статье рассматривается вопрос о влиянии великого азербайджанского поэта Низами Гянджеви на творчество Алишера Навои.

Ключевые слова: ученый-мыслитель, Низами Гянджеви, хамса, эпос, устное народное творчество, литературное общение, традиция, тюрки, глава, предшественники, литература.

Хазрат Низами Гянджеви и Алишер Навои внесли большой вклад в развитие литературы тюркских народов, создав прекрасные произведения восточной литературы. Низами Гянджеви как безупречный мыслитель тюркской нации положил начало уникальному поэтическому феномену в мировой литературе – движению. Несмотря на то, что он был закончен на персидском языке, известно, что в “Пандж гандже” великого поэта отражена тюркская мысль, тюркский дух. Шейх Низами как первый эпос в своей литературной среде, а Алишер Навои как общественно активный и отзывчивый творец эпохи тамаддуни Тимуридов, в своих произведениях обращается к основам народности, Народно – простому и мудро-созерцательному.

В каждом эпическом эпосе Низами выражал свои общественно полезные просветительские мысли не в виде сухих поучений, а с помощью художественных образов, заимствованных из народного устного творчества и фольклора. В этом отношении его творческий стиль близок стилю европейских художников эпохи Возрождения, стремившихся увидеть в человеке воплощение совершенства, секреты зрелой красоты. Эпическое творчество Низами также отличается богатством сюжетных деталей, мотивов, повествований в устном народном творчестве, органично Объединенных определенной темой и системой образов. О том, что включение элементов фольклора не только в предметный комментарий или сюжетную экспрессию, но и в былины, свидетельствует то, что в художественных творениях поэта стали проявляться особенности его творческого метода. О том, что в творчестве Низами, в отличие от Навои, выражены и религиозно-мистические соображения, можно судить по особенностям общественной жизни и эпохи. Статьи “Махзан уль-асрар”, первого эпоса большой пятерки, также содержат жалобы, пропитанные

религиозно-мистическими деталями, такими как «Неверность мира», «Страдания судного дня».

Великая пятерка – «Пандж Гандж» и назираи Беназир-литературно-просветительский феномен типа «Хамса», грандиозный культурный шедевр, были продуктом не только гения двух поэтов-мыслителей, но и эпохи, в которой они жили. Навоийская «Хамса», созданная до Навои на основе Низами Гянджеви и традиций Низами, наглядно демонстрирует, что Восточный романтический стиль достиг поэтического совершенства не только по композиции, но и по глубокому социальному содержанию. В этом процессе плодотворное и успешное использование фольклорных элементов в эпической поэзии демонстрирует поверхностное художественное мастерство двух великих художников слова.

Эпическое творчество Низами также отличается богатством сюжетных деталей, мотивов, повествований в устном народном творчестве, органично объединенных определенной темой и системой образов.

В «Хамсе» Низамиддина Амира Алишера Навои также важное место занимают эпизоды, основанные на народных сказаниях и художественные отрывки, созданные с помощью образов животных, пословицы сказочного содержания. Особенно заметно обращение поэта к сюжетам народных сказаний, притч, притч и сказок, как в первом эпосе великого автора, так и в созданном им в последние годы жизни эпосе «Лисон ут-Тайр».

Низами Гянджеви чувствовал огромную ответственность в выборе жанра и темы для художественного выражения своих общественных мыслей, идейного замысла. Известно, что его старший современник Хакани Ширвани еще раньше Саади и Хафиза создавал целостные Газели, стремясь к тому, чтобы газельный жанр имел свою самостоятельную форму, а также стремился к оригинальности в написании касыд, расширяя их бытовыми темами. Низами обратился к эпосу, который в его литературной среде был очень недоработан. До поэта существовало единственное произведение, написанное в этом жанре – эпос Хакани «Тухфат уль-Иракайн». В ближневосточной поэзии к этому времени сложилось два направления эпоса, одно было заметно на примере героического эпоса «Шахнаме», а другое – на примере эпоса Фахриддина гургани «Вис и Рам» в духе рыцарского романа. Произведение Гургани не имела полного успеха и к пятнадцатому веку почти не упоминалась. Это могло быть связано с тем, что работа не могла быть полезной для общественной жизни своего времени. Знаменитые поэты Хорасана и Хорезма в этот период также не прибегали к эпосу, оставаясь наиболее активным литературным видом – лирикой. В этих условиях человек, желающий создать эпическое

произведение, должен был расширить возможности этого жанра, служить требованиям общественной жизни, не только для создания художественного удовольствия, но и для удовлетворения социально-духовных потребностей людей. Низами добился полного выполнения этих требований уже в своем первом эпическом эпосе. Как Валиулла, отшельник, он выражал свои общественно полезные просветительские мысли не в сухом стиле панд-уещиваний, а через бессмертные художественные образы. В этом контексте его творческий стиль стремился увидеть в человеке воплощение зрелости, зрелой красоты. "... Если формально поэмы Низами этершех носят все признаки средневековой литературы, то в построении они уже значительно ближе к лучшим творениям европейского Ренессанса". Однако здесь следует отметить, что низамийские былины резко контрастируют с западными рыцарскими романами, изобилующими древними легендами, образами фей и духов, различными чудесными эпизодами, превосходя их реалистическим духом. Его творчество окутано оттенком жизненности, колоритом народности. Небольшие по объему лирические произведения он также создает, преследуя какую-то идейную цель. Включение в Газель не только сухих стихов, гимнов или комментариев, но и элементов эпизма свидетельствует о том, что в ранних творениях поэта стали проявляться особенности его творческого метода.

Навои в эпосе "Фархад и Ширин", создавая образ Хусрава, прототипом которого является Хусрав Парвез, выражает его только отрицательными чертами и точно отражает историческую действительность. Это явление проявляется в растущем к реализму, реалистическом элементе романтического стиля, "созревшем" в эпоху Навои. С другой стороны, Низами Гянджеви, как один из основоположников Восточного романтического стиля, подходит к образу Хусрава (в целом, к образам всех его эпических героев) с точки зрения требований стиля романтизма, выводя их за рамки своей вымышленной утопии. Именно поэтому герои Низами представлены динамичными, растущими, жесткими духовными борцами в собственном внутреннем мире.

Низами приукрашивает свои просветительские идеи, в которых пропагандируются благородные человеческие качества, цитируя чрезвычайно интересные жизненные жалобы. А Навои, выполняя аналогичную задачу, ищет прототипа для героев своих жалоб. В эпосе "Махзан уль-асрар" Низами, выдвигая идею о том, что труд является основой жизни, приводит жалобу муссафида, который с трудом кладет кирпичи, и молодого человека, который его упрекает. В этой жалобе "вклад из рассказа" состоит в прославлении труда.

Исследователи творчества великого Низами, в частности Е.Э. Бертельс, и поэт делают вывод, что эпосы, входящие в состав «Пандж Ганджа», объединены единой идеей, и возникает целостное монументальное произведение. Это мнение получило гораздо более глубокое научное обоснование в чартистских исследованиях. Но как отмечает Е.Э. Бертельс, это явление происходит незапланированным “механическим” образом: “ Это объединение, конечно, произведено механически, но как мы уже видели, известное основание для него все же есть, ибо, в сущности говоря, единая идея проникает в поэмы и связывает их вместе”. Именно такое “механическое” возникновение Низами “Хамсы”, осветление единого идейного взгляда в произведениях на несколько тем, различного содержания, послужило основой для дальнейшей социализации творческого стиля в навоийской “Хамсе”, развития эпоса как общественно активного жанра. В эпосе “Хайрат уль-Аброр” вселенная, которая прославила человека, объясняя ему тайны совершенства через двадцать пословиц, выдвинула идею о том, что “ человек обязательно должен жить счастливо в жизни”.

В то время как Хусрав Дехлави, создатель первого ответа на пятерку Низами в персидской литературе, выполнил эту задачу на тюркском языке. Навои на примере своей “Хамсы” показал возможность нового мышления даже в рамках традиционной формы, наличие способов полировки заданных форм, и это его произведение стало вершиной мировой литературы. Навоийская “Хамса” является зеркалом духовного состояния наших предков, в ней отражены взгляды на общественную жизнь прошлого, народную жизнь, обычаи, религию, нравы. В нем великий поэт пишет обо всех злободневных вопросах своего времени.

Так, Шейх Низами Гянджеви выражал свои просветительские мысли посредством художественных образов, заимствованных из устного народного творчества и фольклора. Низами эпосы резко контрастируют с западными рыцарскими романами, наполненными древними мифами, мифами, образами фей и духов, различными чудесными эпизодами, и превосходят их своим реалистическим духом.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА :

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. – Б. 100–124.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўнгирма жилдлик. 16-жилд. – Тошкент: Фан, 2000. – 336 б
3. Sirojiddinov Sh, Davlatov O., Yusupova D. Navoiyshunoslik. – Т.: Tamaddun, 2018.
4. Sirojiddinov Sh, Ashurova G' Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodida turkona tafakkur va g'oyaviy badiiy asos" – Т.: Vneshin vestprom, 2021.
5. Valixo'jayev B., Tohirov Q. O'zbek adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). – Samarqand: SamDU nashri, 2002.

LALMIKOR TUPROQLARNING UNUMDORLIGINI SAQLASH, OSHIRISH VA MUHOFAZALASHDA YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISH.

Rahimqulova Husnora Xolmo'min qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi.

Tojiyeva Maftuna Nizomiddin qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi.

Jo'rayev Xudoyor Abduxalil o'g'li

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi.

Abdiraxmonov Ozodbek Odina o'g'li

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Ekologiya va atrof muhit muxofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi 1- kurs talabasi.

Annotatsiya: *Maqolada Tog' va tog' oldi tuproqlarning vertikal zonallik qonuniyati bo'yicha tarqalishi, ularning morfogenetik xossa-xususiyatlari, qo'riq tuproqlarni lalmikor dehqonchilikda foydalanganda ularda kechadigan jarayonlarni kam o'rganilmaganligi hamda sifat darajalari aniqlanmaganligi sababli ushbu muammoni o'rganish zarur yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tuproqlarning vertikal zonallik qonuniyati, , tuproqlarning unumdorlik darajasini baholash, tuproqlarning eroziyalanishi, ixota daraxtzorlarini barpo etish, pistazorlar, bodomzorlar, yong'oqzorlar.*

Kirish. Bugungi kunda respublikamiz tog' va tog' oldi hududlari tuproqlarni lalmikor dehqonchilikka keng jalb qilish, ularning agrokimyoviy, agrofizikaviy xossalarini yaxshilash, tuproqlarning unumdorlik darajasini baholash va ularning unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmonida Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada lalmikor hududlar tuproqlarida kompleks tadqiqotlar olib borish, tuproqlarni xossa va xususiyatlarini va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning sifati jihatdan unumdorlik darajasini belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda lalmi tuproqlar unumdorligini baholash bo'yicha uslubiy qo'llanmalar yaratish borasida 1967 - 1971 yillarda B.V.Gorbunov va G.M.Konabyevalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu izlanishlar yakuniy natijasi sifatida 1975 yilda uslubiy qo'llanma chop etilgan. Mustaqillik yillarida sug'oriladigan tuproqlar qatori lalmi tuproqlarni ham kompleks o'rganish, ularning unumdorlik darajasini baholashga e'tibor qaratila boshlandi.

O'zbekiston lalmi yerlarining sifatini baholashda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarga pasaytiruvchi koeffitsiyentlar belgilangan. Lalmikor hudud tuproqlarining unumdorligini baholashda o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud bo'lib, tuproqlar taqdiri qisman relefga, ya'ni yer usti va tuproqni tekis, notekisligiga, namlik sharoitiga bog'liq bo'ladi. Shu bois lalmi dehqonchilik olib boriladigan yerlarni baholashda tuproq, iqlim, ona jins, relef, ekspozitsiya kabi tabiiy sharoitlar hisobga olinadi. Dunyoda lalmikor dehqonchilik qilinadigan tuproqlar unumdorligini tiklash, muhofazalash va oshirishga, ularda sodir bo'ladigan salbiy jarayonlarni aniqlash hamda oldini olish bo'yicha bir qator, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda: jumladan, lalmikor dehqonchilikda tuproq qoplamlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarni aniqlash, lalmi tuproq unumdorligini cheklovchi omillarni aniqlash va ularning salbiy ta'sirini bartaraf etish, lalmi tuproqlar unumdorligini baholash va xaritalash, lalmi tuproqlarning eroziyalanishi va ularning qishloq xo'jalik ekinlarini o'sishiga va rivojlanishiga ta'sirini kamaytirish texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tuproqlar, ularning fizik va kimyoviy xossalari, joylarning reliefi, qiyalik tikligi va ekspozitsiyasi, iqlim va boshqa omillar nisbiy baholanishi kerak bo'lgan asosiy omillar hisoblanadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun muhim bo'lgan yer elementar maydonlari lalmi yerlarning baholash ob'ekti sifatida qabul qilinadi.

Respublikamizdagi mavjud lalmi tuproqlarni holatini aniqlash va sifatini baholash uchun 2000 yilda O'zbekiston respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi tasarrufidagi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot Davlat instituti hamda "Yer kadastri" sho'ba korxonasining bir guruh olim va mutaxassislari R.Q.Qo'ziyev, V.E.Sektimenko, A.Yuldashev, J.M.Maqsudov, N.Yu.Abduraxmonov, I.Akramov, A.A.Tursunov, G.G.Nagayev va boshqalar tomonidan Respublika lalmi tuproqlarining unumdorligini baholash bo'yicha takomillashtirilgan uslubiy qo'llanma yaratilgan va amaliyotga tadbiq etilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, tog' va tog' oldi tuproqlarning vertikal zonallik qonuniyati bo'yicha tarqalishi, ularning morfogenetik xossa-

xususiyatlari, qo'riq tuproqlarni lalmikor dehqonchilikda foydalanganda ularda kechadigan jarayonlarni kam o'rganilmaganligi hamda sifat darajalari aniqlanmaganligi sababli ushbu muammoni o'rganish zarur.

Shu sababli lalmi och tusli bo'z, tipik bo'z va to'q tusli bo'z tuproqlarning asosiy xossalari-xususiyatlarni aniqlash va ularni unumdorligini oshirish qishloq xo'jaligida keng va samarali foydalanish yo'llari borasida ilmiy izlanishlar bu tuproqlarga doir yangi ma'lumotlar beradi

Lalmi tuproqlarni unumdorligini baholash 2000 yilda ishlab chiqarilgan va amaliyotgan tadbiriq etilgan uslubiy qo'llanma asosida olib boriladi. Uslubiy qo'llanmaga ko'ra lalmi to'q tusli bo'z tuproqlar 85 ball, tipik bo'z tuproqlar 70 ball va och tusli bo'z tuproqlar 50 ball bilan baholanadi. Lalmikor yerlarni ishlab chiqarish qobiliyatini baholash tuproqni asosiy xususiyatlari va agronomik xossalari ta'yan holda o'tkaziladi.

Tuproqlarni sifatini baholashda mexanik tarkibning roli lyoss va lyossimon va elyuviy tub jinslari, prolyuvial qirra tosh-qumoqli va chag'irtosh-qumoqli yotqiziqli tuproq paydo qiluvchi jinslar chegarasida baholanadi. Lalmikor yerlarda o'simlikni nam bilan doimiy ravishda ta'minlanishi tuproq xossalari mexanik tarkibga ko'proq bog'liq.

Eroziyaga uchragan tuproqlar foizi och tusli bo'z tuproqlardan tog' jigarrang tuproqlarigacha o'sib boradi. Yerni haydash eroziya jarayonini yanada tezlashtiradi. Bu jarayon ta'sirida haydaladigan yer maydonlaridan eng avvalo il zarralari, gumus va oziqa elementlari katta miqdorda olib chiqib ketiladi. Shuning uchun lalmikor yerlarni baholashda tuproqlarni eroziyaga uchraganlik darajasi hisobga olinadi.

Tuproqlarning eroziyalanganlik darajasi gumus qatlami qalinligi (A+B) yoki maksimal miqdordagi qatlam chuqurligiga qarab dala sharoitida aniqlanadi.

Lalmi yerlarning unumdorligi joylarni ekspozitsiyasi va qiyaligi tikligi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, turli hil relief sharoitida lalmi yerlarning har xil ekspozitsiyadan iborat maydonlariga bir vaqtning o'zida quyosh energiyasi turlicha tushadi. Lalmikor yer maydonlari ustki qismining ekspozitsiyasi va qiyalik tikligini hisobga olgan holda pasaytiruvchi koeffitsiyentlardan foydalaniladi.

Tuproq bonitirovkasi lalmi yerlarda yetishtirilayotgan boshqoli don hosildorligini hisob-kitob qilish imkonini beradi. Hosildorlikni aniq belgilash uchun g'allachilik bilan shug'ullanadigan xo'jaliklarning tuproqlarini tahlil qilgan holda, 100 balli tuproqda: kuzgi bug'doy uchun-25 s/ga, kuzgi arpa uchun-20 s/ga, no'xat uchun -12 s/ga qabul qilingan.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va ulardan yuqori hosil olishda har bir gektar yer maydonidan olingan hosil miqdori iqtisodiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qiladi va bu ko'rsatkichdan hamma vaqt ham to'g'ridan-to'g'ri foydalanib bo'lmaydi.

Tuproqlarni baholashda tuproq xossalari va undan olinadigan hosil miqdorlari ham matematik nuqtai nazardan qayta ishlashga muhtoj, ya'ni olingan raqamlarni qay darajada to'g'ri ekanligi matematik statistika orqali o'z ifodasini topadi. Yuqorida ta'kidlanganidek tuproq xossalari to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlar bilan shu tuproqdan olingan hosil o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishgina tuproqni saxiyiligini negizini tashkil qiladi. Matematik qayta ishlash usullari ko'p bo'lib, ularning ichida sinalgan va tuproqshunoslikda, tuproqni baholashda, agrokimyoda qo'llanilayotgan usul bu korrelyatsion bog'lanishlar hisoblanadi.

Korrelyatsion tahlil tuproq xossalari bilan qishloq xo'jalik ekinlarini hosili o'rtasidagi aloqadorlikni matematik aniqlikda ko'rsatib beradi va tuproqni tabiiy xossalarini bonitirovka negizi uchun yaroqli ekanligini aniqlab, isbotlab boradi.

Bu sohada qishloq xo'jaligi fanlarida tuproqdagi gumus miqdori bilan g'alla yoki boshqa qishloq xo'jaligi ekin turi bilan hosili o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega.

Xuddi shu kabi tuproqdagi harakatchan fosfor, kaliy, azot miqdori bilan ekinlarni o'sishi va rivojlanishi o'rtasidagi bog'lanishlar yoki ularni hosillari o'rtasidagi aloqadorliklar ham aslida korrelyatsion bog'lanishlar qatoridan joy oladi.

Xulosa sifatida, lalmi yerlarning unumdorligini baholash natijasida lalmikor hududlardagi fermer xo'jaliklar va boshqa yerdan foydalanuvchilar o'zlari yer maydonlaridagi tuproqlarning hozirgi kundagi holati hamda unumdorligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, tuproq sifatini baholash materiallari lalmi yerlarning keyingi me'yoriy qiymat bahosini hisoblash va yagona yer solig'ini belgilash, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish, hosildorlikni rejalashtirish, lalmi tuproqlar unumdorligini qayta tiklash, oshirish tadbirlarini belgilash uchun asos bo'ladi, natijada esa yer resurslaridan oqilona, samarali foydalanishni tashkil etish imkoni yaratiladi.

Lalmikor tuproqlarning unumdorligini saqlash, oshirish va muhofazalash hamda yerlardan samarali foydalanish uchun g'alla ekinlarini ko'p yillik o'tlar, shuningdek dukkakli, moyli ekinlar bilan almashlab ekishni joriy etish, eroziya jarayonlarining oldini olish, ixota daraxtzorlarini barpo etish, pistazorlar, bodomzorlar, yong'oqzorlar va uzumzorlar plantatsiyalarini barpo etish,

bundan tashqari shudgorlash yo'li bilan namlikni uzoq vaqt saqlab qolish kabi texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'rganilgan hudud Boysun tumani umumiy yer maydoni 325.3 ming gektarni tashkil qilib, Boysun tog' tizmasilarida tarqalgan lalmi tuproqlar 19 ming gektar. Bu ko'rsatkich Respublikamiz lalmi yer maydonining 16,2 % tashkil etadi. Ular boshqa lalmi mintaqalar tuproqlaridan o'ziga xos regional xususiyatlari, murakkab geologik–geomorfologik tuzilishi bilan farqlanib, dengiz sathidan 460-500 metr balandlikda rivojlangan bo'lib, tuproq hosil qiluvchi jinslari asosan elyuviy, delyuviy, prolyuviy va lyossimon qumolardan tashkil topgan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maxsudov X.M., Gafurova L.A. O'zbekistonning eroziyaga uchragan tog' va tog' oldi tuproqlari. // O'zbekistonning tuproqlari va unumdorligini oshirishning ayrim yunalishlari: Mehnat. -Toshkent, 1998. – B. 22-48.
2. Maxsudov X.M., Xaqberdiyev O.E. Janubiy Hisor tog' yon bag'ri tuproqlarining o'ziga xosligi va ularning eroziyalanganlik darajasi // O'zbekiston tuproqshunoslari va agrokimyogarlari jamiyatining V- qurultoyi materiallari:- Toshkent, 2010. - B. 43-46.
3. Mirhaydarova G.S., Maxsudov X.M., Avdarova N. G'arbiy Chotqol tog' yon bag'rida o'tkazilgan chora-tadbirlar ta'sirida eroziyalangan to'q tusli bo'z tuproqlarning xossalari o'zgarishi // «Tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligini oshirishning dolzarb masalalari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma'ruzalari to'plami. – Toshkent: TAITDI, 2014. – B. 76-79.

MADANIYAT TARIXI

Tursunov Abdurrahmon Azimjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti talabasi:

Annotatsiya: *Ozbekiston Respublikasining mustaqil bo'lishi va madaniyat sohasidagi o'zgarishlar tarixan zaruriy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson hayotiy faoliyatining, uning tevarak-atrofdagi olamni bilish shakllarining madaniyatda aks etishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insoniyat hayotining madaniy-tarixiy rivodlanishi asosida moddiy buyumlar va ma'naviy omillar – bilim, tajriba, taraqqiyot natijasida insoniyat madaniy taraqqiyotning yuksak cho'qqisiga chiqib bormoqda. Yo'nilgan tayoq va toshdan yasalgan quroldan tortib madaniy boyliklar va ilmiy bilimlargacha bo'lgan madaniyat yodgorliklari muhim ahamiyatga ega. Madaniyat tarixi umumjahon jarayoni sifatida jamiyatda ma'naviy va moddiy madaniyatning tutgan o'rni hamda vazifalari yoritishda muhim ahamiyatga ega. Madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyatning o'zaro bog'liqligi hamda bir-biriga ta'sir ko'rsatishini taqozo qiladi.*

Kalit so'zlar: *Til, yozuv, ta'lim, adabiyot, san'at, memorchilik, muhit.*

Madaniyat tarixi fanining predmeti jahon xalqlarining eng qadimgi zamonlardan to xozirgi kunlargacha bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganish va tushuntirishdan iborat. Mazkur kursning asosiy vazifasi insonning tabiat va jamiyat bilan birgalikdagi faoliyati hamda kishilarning ma'naviy turmshiga oid barcha

jarayonlarni tadqiq qilishdan iborat. Madaniyat deb insonlarning ijodiy faoliyati

tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasiga aytiladi. Madaniyat atamasi hozirgi zamon ilmiy adabiyotida rang-barang ma'noni anglatadi. U lotincha ishlov berish, parvarish qilish, ma'nosini anglatga, keyinchalik ma'rifatli bo'lish, tarbiyali, bilimli bo'lish mazmunida ishlatiladi³⁶. O'zbek tilida ko'p ishlatiladigan "madaniyat" atamasi arabcha "madina" – "shaxarlik" degan ma'noni anglatadi. Madaniyat insonni to'la qonli faoliyati "Inson tomonidan yaratilgan muhit", "Insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuidir". Madaniyat tushunchasi XX asrga kelib ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimidan o'rin oldi. Insoniyat jamiyat doimiy ravishda

³⁶. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent:Ma'naviyat, 2008 yil.

riyojlanishda bo`lib, o`zgarib takomillashib boradi. Turli tarixiy davrlarda xilma-xil madaniyatlar mavjud bo`lib, insonlar dunyoning o`zgacha anglagan va qabul qilgan. Madaniyat jamiyatning maxsuli ijtimoiy hayotining muhim jabxalarridan biri.

Jamiyat madaniyatni vujudga keltiradi. Jamiyat boyib borsa, madaniyat ham

yuksaladi. Alohida bir shaxsning alohida madaniyati bo`lmaydi. SHaxs muayyan

jamiyatdagi madaniy muhitda yashaydi va madaniyati shakllanadi. Ibtidoiy davr insoniyatning uzoq o`tmishidan iborat bo`lgan bosqichdir. Bu davr insoniyatni hayvonot olamidan ajratib yuborgan davr hisoblanib, ongli mavjudot xisoblanuvchi odam va u tomonidan yaratilgan madaniyatning shakllanish davridir.

Agar insoniyat tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma`naviy boyliklarga nazar tashlaydigan bulsak, bu boyliklarning yaratilishi bundan million yillar ilgari

yashab o`tgan qadim ajdodlarimiz tomonidan vujudga keltirilganligining guvohi

bo`lamiz. Chunki ibtidoiy davrda yaratilgan barcha moddiy madaniyatning mehnat qurollari, turar joylar, kiyim-kechaklar va boshqalarning asosiy vazifasi hamda mohiyati hozirgi kunimizda nshlatilayotgan barcha moddiy boyliklarimizda o`z ifodasini topgan. Yoki ma`naviy madaniyatning barcha elementlarida-axloqiy, huquqiy, siyosiy, badiiy ongda, diniy e`tiqodlar va turli xil urf-odatlar, marosimlar va an`analarda ijtimoiy xodisalar xisoblanuvchi oilaviy munosabatlarda, til taraqqiyoti va boshqalarda, ibtidoiy davrda yashagai ajdodlarimznzning ruhi sezilib turadi. Shu boisdan hozirgi moddiy va ma`naviy madaniyatimizning vujudga kelishi hamda mohiyati to`g`risida muayyan tasavvur xosil qilish uchun ibtidoiy davr madaniyati, uning rivojlanish bosqichlari masalasiga tuxtalib o`tish o`ta muhimdir. Ibtidoiy odamlar er yuzida yo`q bo`lib ketganlar. Biroq urning yuqori qatlamlarida qadim ajdodlarimiz faoliyatining moddiy qoldiqlari. uning ish qurollari, yaroqaslahalari, uylari, jixozlari, kiyimlari, tasviriy san`at asarlarn, topinish buyumlari va nihoyat yovvoyi hamda uy hayvonlarining suyaklari birin-ketin, qavatmaqavat bo`lib ko`milib saqlanib qolgan. SHu bilan birga qadim ajdodlarimiz to`g`risida muayyan fikr yuritish uchun ulardan bizga meros bo`lib kelgan, u yoki bu darajada saqlanib qolgan xalq og`zaki ijodining namunalari manba vazifasini o`taydi. Ibtidoiy jamiyatning rivojlanish tarixi bir qancha, bosqichlar yoki davrlarni bosib utgan. Fanda asosan mehnat qurollari qanday materialdan yasalganligiga qarab,ibtidoiy davrni tosh, bronza va temir

asrlariga bo`lish odatga aylanib qolgan. Masalan, Kopengagen (Daniya) asori-atiqalar muzeyi xodimi Kristian Tomsen birinchi marta fanga mehnat qurollarini yasalgan materiallarga qarab tosh, bronza va temir davrlarni tushunchasini kiritadi. Keyinchalik tosh asri qadimgi tosh— paleolit (gr. palato qadimgi va litos-tosh) va yangi (gr. neo- yangi) asrlarga bo`lingan. Davrlarga bo`lishning boshcha bir juda qadimgi sistemasi- bu ishlab chiqarish faoliyati sohalariga ko`ra bo`lishdir. Bunda ibtidoiy davr ovchilik, dehqonchilik va chorvachilik bosqichlariga bo`linadi³⁷. Kishi va kishilik jamiyatining paydo bo`lishidan boshlangan va tarixning eng avvalgi ibtidoiy poda davri deb yuritiladigan davriga kelib odamning biologik rivojlanishi tugallanadi. Biroq odam mana shu eng avvalgi davrdayoq o`zining hayvonot ajdodidan keskin farq qiladi. Bu davrda ular birgalashib mehnat qila boshlaganlar, sodda mehnat qurollarini yaratishib, madaniyatga asos solganlar.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida kishilarning bir muncha mustahkam birligi vujudga keldi. Bu birlikka urug' asos qilib olindi. Eng sodda qurollar yasash bilan inson o`zini yaratdi va o`zi bilan hayvon o`rtasiga chegara qo`ydi. Bu esa insonning tabiat ustidan hukmron bo`lishida birinchi qadam bo`ldi.

Xozirgi davrda fanda ibtidoiy odamlarning eng avvalgi vakillaridan birini Pitekanthrop deb ataladi. Pitekanthroplarning qoldiqlari dastlab YAvro orolidan topilgan. Birmuncha vaqt o`tgandan so`ng Xitoyning Pekin shahri yaqinidagi g'ordan Sinantrop («Xitoy odami»)ning qoldiqlari topilgan. Bu erdan 40 ga yaqin sinantroplarning suyaklari bilan birga juda sodda tosh qurollari, sinantropga ovqat bo`lgan hayvonlarning suyaklari va nihoyat ularning olovdan foydalanganliklarini ko`rsatuvchi kul qoldiqlari topilgan. Odamning rivojlanishidagi keyingi

bosqich Neandertal bosqich deb nomlanadi. Germaniyaning Neandertal' shahri yaqinidan topilgan odam qoldiqlari nomi bilan yuritiladi. Respublikamiz xududidagi Teshik tosh g'oridan (Surxondaryo viloyati) ham 12 -yoshli neandertal' bolaning qoldiqlari topilgan. Odamga qurol va yaroq ishlash uchun xizmat qilgan birinchi material tosh, ya`ni chaqmoqtosh yoki unga yaqin mineral. jinslar, xususan oqtosh (kvarts) bo`lgan. Chaqmoqtosh er sharining barcha erida juda keng tarqalgan bo`lib, bu mineralda juda ham muhim ahamiyatga ega bo`lgan uch xususiyat—qattiqlik, yupka bulakchalarga bo`linib ketish va kosuzchi utkir chirralar mavjud bo`lgan. Agar tabiatda shu chaqmoqtosh bulmaganda, insoniyatning boshlang'ich tarixi qandaydir boshqa yo`l bilan ketishi mumkin edi. Dastlabki qurol uchun yog'och ham material

³⁷ . Shamsutdinov R. va boshqalar. Vatan tarixi I,II,III-kitob- Toshkent: Sharq. 2013.

xizmatini o'tagan, lekin undan toshga nisbatan keyinroq foydalanilgan. Yog'och qurollar yoki qurollarning yog'och qismlari tosh qurollari kabi erda uzoq vaqtgacha saqlanishi mumkin bo'lmaganligi uchun arxeologiya yog'ochdan foydalanishning ilk namunalari ko'rsatib bera olmaydi. Ibtidoiy odamlarga tegishli bo'lgan qoldiqlar madaniyat va texnikaning uzluksiz o'sib borganligidan dalolat bradi. Bu birin- ketin keladigan bosqichlar er sharining turli joylarida topilgan muayyan tipdagi odam faoliyatining qoldiqlariga qarab aniqlanadi va fanda bu qoldiqlar «madaniyat» deb nomlanadi. Bu madaniyatlar dastlab topilgan joylarning nomi bilan atalib, ular ana shu madaniyatning eng tipik yodgorliklaridan iborat bo'ladi. Ibtidoiy davr madaniyatining eng oddiy bosqichi Shell madaniyatidir. Shuningdek, til va tafakkur taraqqiyoti - moddiy ishlab chiqarishning, ya'ni moddiy madaniyatning rivojlanishini tezlashtirgan. Olov singari til va tafakkur ham odamning hayvonot dunyosidan ajralib chiqishini tezlashtirgan. Ibtidoiy madaniyatning keyingi bosqichi orin'yak-salyutr va madlen davrlari so'ngi paleolitga mansubdir. Bu davr o'zining neandertalga nisbatan ancha taraqqiy qilganligi bilan, ya'ni ham mehnat qurollarida, ham inson qiyofasida tub o'zgarishlarning vujudga kelishi bilan karakterlanadi. Mehnat quroli sifatida shoh va suyaklardan keng foydalaniladi. Suyakdan ignalar yasalgan. Odamlar bu davrga kelib, qurollardan hayvonlarni o'rab, quvib, qamab, tuzoq qo'yib ushlashni o'rganganlar. O'z manzillarini ochiq joylarga qurganlar³⁸. Bu davrga kelib odamlar tikishni o'rganganlar, hayvon terilaridan kiyim tikish bilan birga o'zlari yashayotgan turar-joylarning ustlarini yopishda ham foydalanganlar. Shunday qilib bu davrga kelib odam madaniyatning yana bir boyligi — o'zining tanasini himoya etadigan kiyim-kechakka ega bo'lgan. Bu davrda nafaqat olovning qoldiqlari, balki o'choq va o'ta sodda holdagi pechlarning qoldiqlari ham uchraydi. Bu yerlardan topilgan parmalangan hayvon tishlari va boshqa ba'zi bir bezak buyumlari ham topilgan. Nihoyat, ayrim belgilar, jumladan ibtidoiy odam skletlarining quyilishi holati hamda ayrim ibtidoiy rasm va tasvirlarning mazmuni ana shu bosqichga kelib dinning paydo bo'lganligini ham ko'rsatadi. Xullas paleolit davrining so'nggi bosqichlariga kelib antropogenez jarayoni tugallanib, hozirgi zamon odami paydo bo'lgan. Ana shu davrga kelib irqalar ham paydo bo'la borgan. Shuningdek bu davrda bir necha qismdan iborat bo'lgan qurollar ham paydo bo'lgan. Suyak va hayvon shoxlaridan material sifatida keng foydalanila boshlangan. Yirik xayvonlarni ovlash osonlashib, doimiy turar-joylar vujudga kelgan.

³⁸ Gulmetov E. va boshqalar. Madaniyatshunoslik. Darslik. -Toshkent, 2000 y

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- Toshkent:Ma'naviyat, 2008 yil.
2. Mualliflar jamoasi. O‘zbekistonning yangi tarixi / I,II,III-kitob – Toshkent: Sharq. 2000.
3. Shamsutdinov R. va boshqalar. Vatan tarixi I,II,III-kitob- Toshkent: Sharq. 2013.
4. Lafasov M. Jahon tarixi. – Toshkent: Turon-Iqbol. 2008 .
5. Gulmetov E. va boshqalar. Madaniyatshunoslik. Darslik. -Toshkent, 2000 y
6. Mavrulov A. A. Madaniyat va tafakkur o‘zgarishlari. - Toshkent. 2004.
7. Mavrulov A. A. Ta'lim tizimida madaniyat masalalari. - Toshkent, 2004
8. Mavrulov A. A. Nishonboeva Q. Madaniyat tarixi. O‘quv uslubiy qo‘llanma.-Toshkent, 2006.
9. Qoraboev U. O‘zbekiston madaniyati. - Toshkent, 2011.
10. O.R.Topildiyev *MADANIYAT TARIXI - O`QUV-USLUBIY MAJMUA NAMANGAN – 2021*